

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
“AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI**



HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH

fanidan o'quv uslubiy majmua

Bilim sohasi:

300 000 - Ishlab chiqarish texnik soha

Ta'lim sohasi:

310 000 - Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi:

5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab
chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish

NAVOIY - 2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
“AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI**



«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

N.A. Abduazizov

“*30.08.*” 2017 y.

HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH

fanidan

**O'QUV USLUBIY
MAJMUA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 25 avgustdagи 355 – sonli buyrug‘ining bilan tasdiqlangan “Hisoblash usullarini algoritmlash” fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O‘rinov Sherali Raufovich – “Avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasini dotsenti, NDKI


Taqrizchilar:

Eshmurodov Z.O. – texnika fanlari nomzodi, dosent, NDKI

Po’latov V.B. – Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo’limi boshlig’i, NKMK

O‘quv-uslubiy majmua “Avtomatlashtish va boshqarish” kafedrasining yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№ 1 Bayonnomma, “25” avgust 2017 y.).

Kafedra mudiri:

 **O.A.Jumayev**


O‘quv-uslubiy majmua NDKI Energo-mexanika fakultetining yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№ 1 Bayonnomma, 26 avgust 2017 y.).

Konchilik fakulteti dekani:

 **S.J.Bozorova**

O‘quv-uslubiy majmua NDKI o‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№ 1 Bayonnomma, «30» avgust 2017 y.)

O‘quv-uslubiy kengash kotibasi:

 **M.J. Normatova**

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i:

 **I.A. Karimov**

MUNDARIJA

O'QUV MATERIALLARI.....	7
MA'RUZALAR MATNI	7
KIRISH	8
1 – MA'RUZA	10
KIRISH. HISOBBLASH USULLARINI ALGORITMLASH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR....	10
2 – MA'RUZA	21
ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARNI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. ILDIZLARINI AJRATISH VA TENG YARMIGA BO'LISH USULI.....	21
3 – MA'RUZA	35
ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARNI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. VATARLAR USULI. NYUTON USULI.....	35
4 – MA'RUZA	43
ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARNI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. BIRLASHGAN USUL. ITERATSIYA USULI.....	43
5 – MA'RUZA	50
CHIZIQLI ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALAR SISTEMALARINI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. GAUSS USULI.....	50
6 – MA'RUZA	63
CHIZIQLI ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALAR SISTEMALARINI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. ITERATSIYA VA ZAYDEL USULLARI.....	63
7 – MA'RUZA	76
INTERPOLASIYA USULLARINI ALGORITMLASH. FUNKSIYALARНИ INTERPOLASIYALASH.....	76
8 – MA'RUZA	88
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI TAQRIBIY YECHIMLARINI ANIQLASH. EYLER USULI ...	88
9 – MA'RUZA	99
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI TAQRIBIY YECHIMLARINI ANIQLASH. RUNGE –KUTTA VA ADAMS USULLARI	99
10 – MA'RUZA	103
ANIQ INTEGRALLARNI TAQRIBIY QIYMATLARI. TO'RTBURCHAK VA TRAPETSIYA USULLARI. SIMPSON FORMULASI	103
11 – MA'RUZA	117
ANIQ INTEGRALLARNI TAQRIBIY QIYMATLARI. GAUSS FORMULASI	117
12 – MA'RUZA	119
TAJРИBA NATIJALARINI QAYTA ISHLASH. ENG KICHIK KVADRATLAR USULI.....	119
13 – MA'RUZA	132
CHIZIQLI DASTURLASH MASALASINING QO'YILISHI. CHIZIQLI DASTURLASH MASALALARINI YECHISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	132
14 – MA'RUZA	136
CHIZIQLI DASTURLASH MASALALARINI YECHISHNING GEOMETRIK TALQINI	136
15 – MA'RUZA	140
CHIZIQLI PROGRAMMALASH MASALASINI YECHISH UCHUN SIMPLEKS USULI	140
16 – MA'RUZA	143
CHIZIQLI PROGRAMMALASH MASALASINI YECHISH UCHUN SUN'iy BAZIS USULI	143
17 – MA'RUZA	146
TRANSPORT MASALASI. BOSHLANGICH TAYANCH YECHIMNI TOPISH USULLARI	146
18 – MA'RUZA	149
TRANSPORT MASALASINING OPTIMAL YECHISHNING POTENSIALLAR USULI.....	149
AMALIY MASHG'ULOTLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY QO'LLANMA....	153
KIRISH	154
1 - AMALIY MASHG'ULOT	155
ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARNI YECHIMINI ITERATSION USULLARDA SONLI YECHISH.....	155
2 - AMALIY MASHG'ULOT	159
NYUTON VA LAGRANJ USULI BILAN INTERPOLASIYALASH.....	159
3 - AMALIY MASHG'ULOT	166
ANIQ INTERGRALLARNING QIYMATINI TAQRIBIY TOPISH USULLARI.....	166

4 - AMALIY MASHG'ULOT.....	175
TAJРИBA NATIJALARINI ENG KICHIK KVADRATLAR USULI YORDAMIDA APPROKSIMATSИYALASH. CHIZIQSIZ EMPERIK BOГ'LANISHNI QURISH.	175
5 - AMALIY MASHG'ULOT.....	179
CHIZIQqli DASTURLASH MASALALARINI YECHISHNING GEOMETRIK USULI.	179
TAJРИBA MASHG'ULOTLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY KO'RSATMA ...	185
1 - TAJРИBA MASHG'ULOT.....	186
ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARНИ NYUTON HAMDA VATARLAR USULI BILAN YECHISH.	186
2 - TAJРИBA MASHG'ULOT.....	192
CHIZIQqli ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI GAUSS, ODDIY ITERATSIYA VA ZEYDEL USULLARIDA YECHISH.	192
3 - TAJРИBA MASHG'ULOT.....	202
CHIZIQSIZ ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI ODDIY ITERATSIYA USULI BILAN YECHISH.	202
4 - TAJРИBA MASHG'ULOT.....	207
ODDIY DIIFERENSIAL TENGLAMASIGA QO'YILGAN KOSHI MASALASINI YECHISHNING SONLI ULULLARI. EYLER, RUNGE-KUTTA VA ADAMS USULLARI.	207
5 - TAJРИBA MASHG'ULOT.....	215
CHIZIQqli DASTURLASH MASALASINI SIMPLEKS USULIDA YECHISH.	215
MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH UCHUN USLUBIY KO'RSATMA.....	221
MA'RУZA VA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MUSTASIL ISH MAVZULARI VA TOPSHIRIQLARI	222
GLOSSARY	231
ILOVALAR	237
NAMUNAVIY DASTUR	237
ISHCHI O'QUV DASTUR.....	246
BAHOLASH MEZONLARI.....	252
KALENDAR REJA	257
NAZORAT UCHUN SAVOLLAR (JN, ON, YAN)	259
UMUMIY SAVOLLAR.....	264
TESTLAR TO'PLAMI	266
ME'YORIY HUJJATLAR.....	280
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	290
TARQATMA MATERIALLAR.....	294
FOYDALI MASLAHATLAR	296
MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT	300
FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSLIK VA QO'LLANMALAR RO'YXATI.....	301
XORIJY ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI.....	302

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**

«HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH»

fanidan

MA'Ruzalar matni

NAVOIY

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning taqdirida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi”. Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tatbiq etilmoqda.

Ta'lif tizimidagi chuqr va keng ko'lamda islohotlarning mazmuni va amalga oshirish muddatlar O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'risida”gi qonun va “Kadrlar taylorlash milliy dasturi” da o'z ifodasini topgan. Jumladan, “Kadrlar taylorlash milliy dasturi” da ta'kidlanganidek, “kadrlar taylorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisidiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish” lozim.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda yoshlarga zamonaviy kompyuter sirlarini hamda dasturlash texnologiyalarini chuqr o'rgatish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab zamonaviy kompyuter texnologiyalari safiga kompyuter modellash va loyihalash tizimlari jadal sur'atlar bilan kirib kelib o'qitish texnologiyalari sifatida katta muaffaqiyatlarga erishmoqda.

Hozirgi rivojlangan axborot texnologiyalar davrida ishlab chiqarish korxonalari oldiga, ishlab chiqarishning sifatini oshirish, kam xarajat va ko'p maxsulot ishlab chiqarish quyildi. Rivojanish yuqori suratda o'sishi, ishlab chiqarish korxonalarini yangi avtomatik sistemalarga o'tish majburiyatini yukladi.

Yangi avtomatlashtirilgan sistemalarga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish uchun malakali kadrlar etishtirib berish oliy ta'lif muassasalari oldigi yangi vazifalar quyadi, shu maqsatda “Hisoblash usullarini algoritmlash” fani malakali avtomatchiklar yetishtirishda boshlang'ich ma'lumotlar beradi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida o'rnatilgan dasturiy paketlarning tuzilishi ishlash prinsiplari haqidagi qisqa ma'lumotlar fanni o'qitish davomida talabalar diqqatiga havola etiladi. Talabalarni etuk mutaxasis qilib etishtirish uchun fan tarkibida mantiqiy elementlarning avtomatlashtirishdagi ahamiyati, matematik modellashtirish uchun ishlatalinadigan MATLAB dasturiy paketining ishlash prinsiplari va ishchi oynalarining tuzilishi, SCADA sistemalarining tuzilishi, uning tarkibidagi ishchi dasturlar haqida, trenajer sistemalari va ularning ishlab chiqarishdagi ahamiyatini o'rganadi.

Hisoblash usullarini algoritmlash sanoatda ishlab chiqarish sifatini oshirish, va unga xizmat ko'rsatishni qulay qilish maqsadida qo'llaniladi. Boshqarish sistemasini ishonchlitligini oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonidagi rial voqealarni SCADA sistemasi asosida manitorda imitasiya holatida operatorlarga namoyon qilishni imkonini beradi. Honeywell, Siemens firmalari ishlab chiqargan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalaridagi avtomatlashtirilgan boshqaruv dasturlari, respublikamiz ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanilmoqda.

Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarga hisoblash usullarini algoritmlash imkoniyatlari, kompyuterli modellashtirish asoslari, ma'lumotlarni yangi informatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va ularga ishlov berish algoritmlarini qurish usullari, MATLAB tizimi va unda hisoblash jarayonlarini modellashtirish, turli xil energetik, mexaniq va dinamik tizimlarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish, muhandislik va mutaxasislik fanlaridan bajariladigan barcha turdag'i grafik axborotlarni vizuallashtirish, ikki va uch o'lchovda kompyuter yordamida modellashtirish va loyihalash, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

1-MA`RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.	Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 40-45 nafar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, vizual ma`ruza
3.	Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> Amaliy va matematik masalalar. Masalalarni EHMda yechishning asosiy bosqichlari. Hisoblash matematikasining tarixi va fanning predmeti. Miqdorlarning taqribi qiyatlari. xatoliklar va ularning manbai. Absolyut va nisbiy xatoliklar. Qiymatli raqam va ishonchli raqam tushunchalari. Yaxlitlash qoidasi. Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasi. Xatoliklar nazariyasining teskari masalasi.
4.	O'quv mashg'ulotining maqsadi:	«Hisoblash usullarini algoritmlash» fanining predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.
5.	Pedagogik vazifalar: Hisoblash usullarini algoritmlash tushunchasi bilan tanishtirish va fanning predmetini tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➢ Hisoblash usullarini algoritmlash fanining predmetini izohlaydi; ➢ Hisoblash usullarini, algoritmlash, avtomatlashtirish tushunchalariga ta`rif beradi; ➢ Xatolikning tarqalishi, yaxlitlash qoidalarini bayon qiladi. ➢ Xatoliklarning umumiy formulasini bayon qiladi. ➢ Xatoliklar nazariyasining teskari masalasini aytib beradi.
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, blitz-so'rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo'q” texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

1-MA`RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Hisoblash usullarini algoritmlash fanining predmetini bayon qiling. • Hisoblash usullarini, algoritmlash, avtomatlashtirish tushunchalariga ta`rif bering. • Xatolikning tarqalishi, yaxlitlash qoidalarini tasvirlab bering. • Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasi aytib bering. <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma`ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. AQP tarkibi va strukturasi to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'yaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Ta`rifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtiroy etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Hisoblash usullari” va “Algoritm” so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

1 – MA’RUZA.
KIRISH. HISOBBLASH USULLARINI ALGORITMLASH HAQIDA UMUMIY
TUSHUNCHALAR.

Reja:

- 1. Amaliy va matematik masalalar. Masalalarni EHMda yechishning asosiy bosqichlari.**
- 2. Hisoblash matematikasining tarixi va fanning predmeti.**
- 3. Miqdorlarning taqribiy qiymatlari. xatoliklar va ularning manbai. Absolyut va nisbiy xatoliklar.**
- 4. Qiymatli raqam va ishonchli raqam tushunchalari. Yaxlitlash qoidasi.**
- 5. Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasi.**
- 6. Xatoliklar nazariyasining teskari masalasi.**

1. Amaliy va matematik masalalar. Masalalarni EHMda yechishning asosiy bosqichlari.

Masalalar avvalo o’z ob`yektlari harakati bilan farq qiladi. Agar masaladagi ob`ektlardan aqalli biri real predmetdan iborat bo’lsa, bu bu masalani amaliy masala deyiladi. Agar masaladagi hamma ob`ektlar matematik ob`ektlar (sonlar, geometrikalar, funksiya va boshkalar) dan iborat bo’lsa, bu masalani matematik masala deyiladi.

Amaliy masalani matematika yordamida yechish uchun unga mos matematik masalani qurish kerak. Bu matematik masala real predmetlarning konkret xususiyatlarini xisobga olmagan xolda tuziladi, ya`ni real predmetlardan iborat ob`ektlar matematik ob`ektlar bilan almashtiriladi.

Masalan, amaliy matematikadagi tugrilangan simni, ustunni kesmalar bilan, lampochkaning yongan yoki uchgan xolatlarini mos ravishda 1 va 0 raqamlari bilan almashtirish mumkin.

Amaliy masalalarni EHMda yechish jarayoni masala qanday qo’yliganligiga karab turlicha bosqichlarni uz ichiga olishi mumkin. Lekin ular asosan quydagilardan iborat.

1. Masalani mutaxassis tomonidan qo’yilishi. Mutaxxasis yechmoqchi bo’lgan masalaning moxiyati va maqsadini, mumkin bo’lsa, soddalashtirishlarni, kutiladigan natijalarni bayon kiladi.
2. Masalaning matematik modelini qurish. Bu bosqichda masalaning matematik modeli - masalaning maqsadini va uzgaruvchilarning uzoro boglanishini ifodalovchi matematik munosabatlar, boglanishlar majmui ishlab chikiladi. Buning uchun erkli va boglik uzgaruvchilar aniqlaydi, ularga qo’ylgan cheklanishlar va uzgaruvchilarning uzoro boglikligi matematik munosabatlar yordamida ifodalaniladi. Natajada biron bir matematik masalaga keliniladi.
3. Matematik masalani yechish usulini tanlash yoki ishlab chikish. Xozzirgi kunda juda kup masalalarni yechish usullari nazariy tomonidan ishlab chikilgan va amaliy jixatdan tekshirib kurligan.

Agar matematik modelp xali matematikada urganilgan masalaga olib kelsa, uni yechish usulini ishlab kerak buladi.

4. Hisoblash algoritimini tanlash yoki ishlab chikarish. Karalayotgan masalaning yechish usulini amalgalash oshirish (realizatsiya) jixatidan soddaligi, hisoblash uchun ketadigan vakti EHM xotirasidan egallaydigan urni, boshlangich va yaxlitlash xatoliklarni tarkalish va boshka xususiyatlari bilan farklanadigan xar xir algoritmlar bulishi mumkin. Bu bosqichda xam butunlay yangi masalalar (usullar) uchun uning algoritmini yaratish, tuzish extiyoji tughilishi mumkin. Bundan tashkari baozi bir usullar moxiyatan algoritmlidir, yaoni ularni matematik formulalar yordamida tavsiflash imkoniyati yuk, maolum bir kursatmalarni ketma-ket bajarish natijasida masala yechimi olinadi.

5. Hisoblash programmasini tuzish yoki tanlash.

Hozirgi kunda katta universal EHMLar va kichik shaxsiy EHMLarning matematik taominoti tarkidida juda kup usullar algoritmlarining porgrammalari mavjud. Bundan tashkari muayyan soxaga oid masalalarni yechishga muljallangan amaliy programmalar tuplami ishlab chikilgan va ishlab chikarilmoqda. Uzining samaradorligi, anikligi va tezkorligi bilan foydalanuvchini qanoatlantiruvchi va mavjud EHM uchun tanlangan programmalash tilida yozilgan programma tanlab olinadi yoki bevosita programmalovchi tomonidan tuziladi.

6. Programmani sozlash. Programma EHM xotirasiga kiritiladi, unda yul qo'yilgan xatolar tuzatiladi va uning tigrilagini muljallangan namunaviy masalalarda ishlab kuriladi

7. Bevosita EHMda hisoblash va natijalarni taxlil kilish. Uzgaruvchilarning tadkikotchini kiziktirgan qiymatlarida hisoblashlar bajariladi. Bunda olingan natijalar masalaning maqsadiga javob berishi - bermasligi, texniki yoki tenologik jixatdan mantikan tugri kelish kelmasligi taxlil kilinadi. Agar ular qanoatlantirarli, mantikan tugri bo'lsa, ularga asoslanib ilmiy texnik ishlanmalar ishlab chikiladi.

Aks xolda yukorida sanab utilgan xar bir bosqich yoki shubxali bo'lganlari kaytadan kurib chikiladi.

Keltirilgan bosqichlar hamma masalalarni yechish uchun majburiy emas. Masalaning murakkabligiga va katta -kichikligiga karab ixtiyoriy bittasi tashlab utilishi, karalmasligi mumkin. Matematik bayonlash mumkin bo'lgan murakkab jarayonlarni nazariy tadkikot kilish usulini hisoblash eksperimenti (tajribasi) deb yuritiladi. Hisoblash eksperimentini yukorida keltirilgan (1-6) bosqichlarga ajratish mumkin.

2. Hisoblash matematikasining tarixi va predmeti.

Bobil olimlarining asosiy faoliyati matematik jadvallar tuzishdan iborat bo'lgan. Kadimiy misrliklar, jumladan chizikli bulmagan algebraik tenglamalarni yechish uchun vatarlar usulini yaratishgan. Yunon matematiklari, jumladan kvadrat ildizni hisoblashda iterasion usuldan foydalanishgan, kvadrat tenglamalarni sonli yechish usulini yaratishgan. Buyuk uzbek matamatigi al-Xorazmiy hisoblash usullarini yaratishga katta hissa qo'shgan. U, jumladan, vkoraplo qiymatni anikladi, matematik jadvallar tuzishda faol katnashdi, unlik sanok sistemasida turtta arifmetik amallarni bajarish koidalarini(algoritmlarini) birinchi bulib bayon kildi, 1 – va 2 – darajali algebraik tenglamalarni yechish usullarini bayon kildi. Samarkandda XV asrda Ulugbek raxbarligida jaxonda birinchi Hisoblash markazi barpo etildi. Bu erda jumladan, Giyosiddin Koshiy Giyosiddin Koshiy π soning qiymatini 17 xona aniklik bilan topdi.

XVI-XVII asrlarda Evropada matematika, mexanika, astronomiya rivojlana boshladi va XIX asrga kelib hozirgi zamon matematikasining asosi yaratildi. Matematika bilan bir paytda hisoblash matematikasi xam rivojlangan.

XVII asrning boshlarida logarifmik jadvallar tuzilishi katta axamiyatga ega buldi. 1845 yilda Adams va 1846 yilda Leverpelar hisoblashlar natijasida Neptun sayyorasining mavjudligi va fazodagi urnini oldindan aytishlari hisoblash matematikasining buyuk galabasi edi. Neptunni "kalam uchida topilgan sayyora" xam deyiladi.

Tadbikiy masalalarni sonli yechish matematiklar eotiborini doim uziga tortar edi. Shuning uchun xam utgan zamonning buyuk matematiklari uz tatnikotlarida tabiat jarayonlarini urganish, ularning modellarini tuzish, modellarni tadkik etish ishlarini birga kushib olib borishgan. Ular bu modellarni tekshirish uchun maxsus hisoblash metodlarini yaratishgan. Bu metodlarning ayrimlari Nyuton, Eyler, Labachevskiy, Gauss, Chebishev, Ermit nomlari bilan bogliqidir. Bu shundan dalolat beradiki hisoblash metodlarini yaratish bilan uz zamonasining buyuk metematiklari shugillangan.

Matematikaning hozirgi zamon fan va texnikasining xilma-xil soxalaridagi tadbiklaridan, odatda, shunday tipik matematik masalarga duch kelinadiki, ularni klassik usullar bilan yechish mumkin emas yoki yechish mumkin bo'lgan takdirda xam yechim

shunday murakkab kurinishda buladiki, undan samarali foydalanishning iloji bulmaydi. Bunday tipik matematik masalalarga algebra (odatda, tartibi juda katta bo'lgan chizikli algebraik tenglamalar sistemasini yechish, matrisalarning teskarisini topish, matrisalarning xos sonlarini topish, algebraik va transsident tenglamalar xamda bunday tenglamalar sistemasini yechish), matematik analiz (sonli integrallash va differensiallash, funksiyani yakinlashtirish masalalari) xamda oddiy va xususiy xosilaviy differensial tenglamalarni yechish masalalari va boshkalar kiradi.

Fan va texnikaning jadal ravishda rivojlanishi munosabati bilan paydo bulayotgan masalalar, uz navbatida matematiklar oldiga yangidan-yangi hisoblash usullarini yaratish vazifasini kuyadi. Ikkinchchi tomondan, fan va texnika yutuklari matematiklar ixtiyoriga kuchli hisoblash vositalarini bermoqda. Buning natijasida esa mavjud usullarni yangi mashinalarda kullash uchun kaytadan kurib chikish extiyoji tugilmoqda.

Matematikada tipik matematik masalalarning yechimlarini etarlicha aniklikda hisoblash imkonini beruvchi usullar yaratishga va shu maqsadda hozirgi zamon hisoblash vositalaridan foydalanish yollarini ishlab chikishga bagishlangan soxa hisoblash matematikasi deyiladi.

Hozirgi zamon hisoblash matematikasi jadal rivojlanib bormoqda, hisoblash matematikasi kamragan masalalar turi juda kup. Tabiiyki, bu masalalarni yechish usuli xam xilma-xildir, shunga karamay bu metodlarning umumiy goyasi xakida suz yuritish mumkin.

Elementlari ketma-ketlikdan yoki funksiyalardan iborat bo'lgan fazo funksional fazo deyiladi. Biror funksional fazoni ikkinchi bir funksional fazoga akslantiradigan A operator deyiladi. Agar operatorning qiymatlari tashkil etgan fazo sonli fazo bo'lsa, u xolda bunday operator funksional deyiladi.

Hisoblash matematikasining predmeti. Hisoblash matematikasida uchraydigankup masalalarni yachlo shaklida yozish mumkin, bu erda x va y berilgan chsa va kva. funksional fazolarning elementlari bulib, A-operator yoki xususiy xolda funksionaldir. agar A operator va x element xakida maolumot berilgan bulib, uni topish lozim bo'lsa, bunday masala tugri masala deyiladi. Odatda teskari masalani yechish ancha murakkab bu masalalar xar doim xam anik yechilavermaydi. Bunday xollarda hisoblash matematikasiga murojat kilinadi. Bazan masalani anik yechish xam mumkin, lekin klassik matematika usullari bilan kerakli sonli qiymat olish uchun juda kup hisoblashlar talab kilinadi. Shuning uchun xam hisoblash matematikasi zimmasiga konkret masalalarni yechish uchun okiloni va tejamkor usullar ishlab chikish yuklanadi (masalan, chizikli algebraik tenglamalar sistemasini yechishda Kramer formulalariga nisbatan Gauss usuli ancha tejamkor usuldir).

Hisoblash matematikasida yukoridagi masalarni xal kilishning asosiy moxiyati rorpazolarni va A operatorni hisoblash uchun qulay bo'lgan mos ravishda boshka orpor fazolar va A operator bilan almashtirishdan yoki fakatgina ulardan birortasini, baozan esa fakat A operatorni almashtirish kifoyadir. Bu almashtirishlar shunday bajarilishi kerakki natijada xosil bo'lgan yangi kypav masalaning yechimi biror maonoda berilgan (1) masalaning yechimiga yakin bulsin va bu yechimni nisbatan kup mexnat sarflamasdan topish mumkin bulsin.

Bunga misol sifatida shuni kursatish mukinki, odatda matematik-fizik tenglamalari u yoki bu strukturaga ega bo'lgan algebraik tenglamalar sistemasiga keltirib yechiladi.

Demak, hisoblash matematikasi oldidagi asosiy masala funksional fazo larda tuplamlarni va ularda aniklangan operatorlar (funksionallar)ni yakilashtirish xamda hozirgi zamon hisoblash mashinalari kullaniladigan sharoitda masalalarni yechish uchun okilona va tejamkor algoritm va usullar ishlab chikishdan ibordatdir.

3. Miqdorlarning taqrifiy qiymatlari. Xatoliklar va ularning manbai. Absolyut va nisbiy xatoliklar

Insoniyatning amaliy faoliyati kattaliklarni o'lchash natijasi bo'lgan son bilan bog'liqdir. Amaliy masalalarni hal qilishda uchraydigan boshlang'ich miqdorlarni o'lchash

natijalari, aksari hollarda aniq bo‘lmay, balki taqribiy bo‘ladi. Undan tashqari, masalani hal qilish jarayonida uchraydigan hisoblashlarni ham, ba‘zi hollarda, taqribiy bajarishga to‘g‘ri keladi. SHunga o‘xhash omillar ta’sirida miqdorlarning qiymatlari taqribiy aniqlanib, qandaydir darajada xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Bunday xatoliklar darajasini aniqlash bilan taqribiy hisob nazariyasi shug‘ullanadi. Biz quyida shu nazariya bilan qisqacha tanishamiz[4].

Xatoliklar manbai quyidagilardir:

- 1)Matematik model xatoligi – real jarayonning matematik tavsiflanishi noaniqligidan kelib chiqadigan xatolik;
- 2)Boshlang‘ich ma’lumotlar xatoligi – boshlang‘ich ma’lumotlarning noaniqligi tufayli yuzaga keladigan xatolik;
- 3)Uslub xatoligi – masalani yechishda qo‘llanilayotgan uslublarning noaniqligidan kelib chiqadigan xatolik;
- 4)Hisoblash xatoligi- hisoblashlarda vujudga keladigan xatoliklar;
- 5)Yaxlitlash xatoligi – yaxlitlash natijasida hosil bo‘ladigan xatolik.

Ba‘zan, matematik model va boshlang‘ich ma’lumotlar xatoliklarini tuzatib bo‘lmaydigan (yoki yo‘qtib bo‘lmaydigan) xatoliklar deyiladi.

1–ta’rif. *Hisoblashlarda qatnashayotgan taqribiy a son bilan shu sonning aniq qiymati A orasidagi farq ($A - a$) xatolik deyiladi.*

Agar $A > a$ bo‘lsa, xatolik musbat va $A < a$ bo‘lsa, xatolik manfiy bo‘ladi. Xatoliklarni baholash to‘g‘ri bo‘lishi uchun absolyut xatolik tushunchasi kiritiladi.

2–ta’rif. *Xatolikning moduliga a taqribiy sonning absolyut xatosi deyiladi va Δa kabi belgilanadi, ya’ni*

$$\Delta a = |A - a| \quad (1)$$

3–ta’rif. *Taqribiy a soni absolyut xatoligining shu son moduliga nisbati a taqribiy sonning nisbiy xatoligi deyiladi va $\delta(a)$ kabi belgilanadi, ya’ni*

$$\delta(a) = \frac{|A - a|}{|a|} \quad (2)$$

Aniq A son noma’lum bo‘lganligi sababli absolyut va nisbiy xatoliklar ham noma’lum bo‘ladi, shuning uchun xatolikning chegarasi ko‘rsatiladi.

4–ta’rif. *$|A - a| \leq h$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi h kattalik absolyut xatolikning chegarasi deyiladi.*

5–ta’rif. *$\frac{|A - a|}{|a|} \leq \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ε soni nisbiy xatolikning chegarasi deyiladi.*

Nisbiy xatolikning chegarasi ko‘pincha foyizlarda ifodalanadi. h va ε sonlari imkonи boricha kichik qilib olinadi. Masalan, $A = \pi$ bo‘lib, $a = 3,14$ kabi qabul qilingan bo‘lsa, $h = 0,002$ deb olinishi mumkin. U holda $\varepsilon = 0,07\%$ bo‘ladi.

Taqribiy a sonining absolyut va nisbiy xatoliklari chegaralari ta’riflariga ko‘ra, $A = a \pm h$ va $A = a(1 \pm \varepsilon)$ kabi yozish mumkin.

1 – misol. Taqribiy qiymati $a = 0,67$ bo‘lgan $A = 2/3$ soni nisbiy xatoligining chegarasini toping.

Yechish. $|2/3 - 0,67| = 0,01/3$ bo‘lganidan, $h = 0,0034$ deb olamiz. U holda

$$\varepsilon = \frac{0,0034}{0,67} = 0,0051 \text{ yoki } \varepsilon = 0,51\% \text{ hosil bo‘ladi.}$$

2 – misol. 24,6 – biror sonning 0,4% nisbiy xatolikdagi taqribiy qiymati bo‘lsa, bu yaqinlashish qanday aniqlikda bajarilgan? A son qanday chegaralarda joylashgan?

Yechish. Bizga $\varepsilon = 0,4\%$, $a = 24,6$ berilgan. U holda $a \varepsilon = 24,6 \cdot 0,004 = 0,0984$ hosil bo‘ladi. Soddalik uchun $h = 0,1$ deb olamiz. Bundan $A = 24,6 \pm 0,1$ yoki $24,5 \leq A \leq 24,7$.

4. Qiymatli raqam va ishonchli raqam tushunchalari. Yaxlitlash qoidasi

1–ta’rif. O’nli kasr ko‘rinishida yozilgan sonning chapdan noldan farq qiluvchi raqamdan boshlangan barcha raqamlariga qiymatli raqamlar deyiladi.

Masalan, 0.003020 soni toʻrtta: 3,0,2,0 qiymatli raqamlarga ega: 25.5605 soni oltita: 2,5,5,6,0,5 qiymatli raqamlarga ega. 500 soni uchta 5,0,0 qiymatli raqamga ega; 0.00001 soni bиргина 1 qiymatli raqamga ega va hokazo.

2-ta’rif. Agar berilgan taqribiy sonning absolyut xatosi n – qiymatli raqami razryad birligining yarmidan oshib ketmasa, bu sonning boshlang‘ich n ta qiymatli raqami ishonchli deviladi.

Shunday qilib, A aniq sonni almashtiruvchi *a* taqrifiy son ma'lum bo'lsa, u holda

$$\Delta a = |A - a| \leq \frac{1}{2} \cdot 10^{m-n+1}$$

bo‘lib, bu sonning boshlang‘ich **n** ta $a_m, a_{m-1}, \dots, a_{m-n+1}$ raqamlari qiymatli bo‘ladi.

Masalan, $A = 35.97$ aniq son uchun $a = 36.00$ taqribiy son uchta ishonchli raqam bilan yaqindir, chunki $|A - a| \leq \frac{1}{2} \cdot 0.1$.

3.-misol. Oyidagi taqribiy sonlardagi ishonchli raqamlar sonini aniqlang:

a) $x = 3.14 \pm 0.01$; b) $\mu = 2.718 \pm 0.006$.

Yechish. a) 3.14 taqribiy sonning yuzdan birlar xonasida joylashgan 4 raqami ishonchhsiz, chunki $0,005 \leq 0,01$. SHunisi ravshanki, oldinda kelgan ikkita 3 va 1 raqamlari ishonchlidir.

b) 2.718 taqribiy sonning oxirida turgan 8 raqami ishonchsiz bo‘lib, qolganlari ishonchli bo‘ladi (chunki $0.005 < 0.006$).

4-misol. Agar 2.768 sonidagi barcha raqamlar ishonchli bo'lsa, uning absolyut xatoligining chegarasi uchun nima olinishi mumkin?

Yechish. Berilgan taqribiy sonning barcha raqamlari ishonchli bo‘lganidan uning oxirgi raqam razryadining yarmiga bog‘liq ravishda xatolik chegarasi aniqlanadi. Oxirgi raqam razryad birligi: 0.001. SHuning uchun 0.0005 sondan katta bo‘limgan har qanday son bo‘lib 0.2768×10^{-5} ni o‘sishga keladi.

Ko‘pgina hollarda berilgan taqribiylar sonlarni yaxlitlashga to‘g‘ri keladi, ya’ni uni ishonchli raqamlar soni kam bo‘lgan taqribiylar son bilan almashtirishga to‘g‘ri keladi. Bunda yaxlitish metodi i minimalko‘hligiga boribet qilingadi.

Berilgan taqrifiy sonlarni yaxlitlash qoidasi quyidagicha. Sonni n ta qiymatli raqamgacha yaxlitlash uchun, **n** – qiymatli raqamdan keyingi barcha raqamlar tashlab yuborildi yoki agar kerak bo'ssa, ular pollar bilan olmeshtirildi. Bunda:

- yuboriladi yoki agar kerak bo'lsa, uhar hollari bilan ammashtiriladi. Bunda:

 - 1) agar tashlab yuborilgan raqamlarning birinchisi 5 dan kichik bo'lsa, u holda qolgan o'nli belgilari o'zgarishsiz qoldiriladi;
 - 2) agar tashlab yuborilayotgan raqamlarning birinchisi 5 dan katta bo'lsa, u holda qolgan raqamlarning oxirgisiga 1 qo'shiladi;
 - 3) agar tashlab yuborilayotgan raqamlarning birinchisi 5 ga teng bo'lsa, u holda undan keyingi tashlanayotgan raqamlarga e'tibor qilinadi, ya'ni ulardan birortasi noldan farqli bo'lsa, qolgan oxirgi raqamga bir qo'shiladi; agar barchasi nollardan iborat bo'lsa, qolayotgan oxirgi raqamga qarab, juft bo'lsa o'zgarishsiz qoldiriladi, toq bo'lsa unga 1 qo'shiladi.

5-misol. $\pi \approx 3.1415926535\dots$ taqrifiy sonni uchta qiymatli raqamgacha yaxlitlang.

Yechish. $3.1415926535 \approx 3.14$.

5. Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasi

Yuqorida biz sonlarni yaxlitlashda hosil bo‘ladigan xatoliklar va ularni baholash haqida to‘xtadik. Bunday xatoliklar turli arifmetik amallar natijalarini tahlil qilinayotganda hisobga olinishi kerak. SHuning uchun taqrifiy sonlar ustida turli amallarni bajarganda, xatolikning qanday tarqalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida shular haqida to‘xtalamiz.

1-teorema. Taqrifiy sonlar algebraik yig‘indisining absolyut xatoligi, shu sonlarning absolyut xatoliklari yig‘indisidan katta emas.

Isbot. Berilgan taqrifiy sonlar x_1, x_2, \dots, x_n lardan iborat bo‘lsin. Ularning algebraik yig‘indisini ko‘raylik:

$$u = x_1 \pm x_2 \pm \dots \pm x_n.$$

Ravshanki,

$$\Delta u = \Delta x_1 \pm \Delta x_2 \pm \dots \pm \Delta x_n,$$

bundan

$$|\Delta u| \leq |\Delta x_1| + |\Delta x_2| + \dots + |\Delta x_n|. \quad (3)$$

Teorema isbot qilindi. Taqrifiy sonlarning algebraik yig‘indisining chegaraviy absolyut xatoligi uchun

$$h_u = h_{x_1} + h_{x_2} + \dots + h_{x_n}. \quad (4)$$

ni olish mumkin.

Ayirmaning xatoligi. Ikki x_1 va x_2 taqrifiy sonning $u=x_1-x_2$ ayirmasini ko‘raylik. Yuqorida ko‘rilgan yig‘indining chegaraviy absolyut xatoligi formulasi (4) ga ko‘ra, ayirmaning chegaraviy absolyut xatoligi

$$h_u = h_{x_1} + h_{x_2} \quad (5)$$

kabi bo‘ladi, ya’ni ayirmaning chegaraviy absolyut xatoligi ayiriluvchi va ayiruvchilarning chegaraviy absolyut xatoliklari yig‘indisiga teng.

Bu yerda ayirma nisbiy xatolining chegarasi uchun

$$\varepsilon_2 = \frac{h_{x_1} + h_{x_2}}{|x_1 - x_2|} \quad (6)$$

ni olish mumkin. Formuladan ko‘rinib turibdiki, agar x_1 va x_2 sonlar yaqin joylashgan bo‘lsa, xatoliklar juda kichik bo‘lsa ham chegaraviy nisbiy xatolik yetarlicha katta bo‘lishi mumkin.

Ko‘paytma xatoligi.

2-teorema. Noldan farqli taqrifiy sonlar ko‘paytmasining nisbiy xatoligi, shu sonlarning nisbiy xatoliklari yig‘indisidan katta emas.

Isbot. $u = x_1 \cdot x_2 \dots x_n$ bo‘lsin. Qulaylik uchun berilgan taqrifiy sonlar musbat deylik. U holda, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\ln u = \ln x_1 + \ln x_2 + \dots + \ln x_n.$$

$\Delta \ln x \approx d \ln x = \frac{\Delta x}{x}$ taqrifiy formulani qo‘llab,

$$\frac{\Delta u}{u} = \frac{\Delta x_1}{x_1} + \frac{\Delta x_2}{x_2} + \dots + \frac{\Delta x_n}{x_n}$$

ni hosil qilamiz. Oxirgi ifodani absolyut kattalik bo‘yicha baholasak:

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| \leq \left| \frac{\Delta x_1}{x_1} \right| + \left| \frac{\Delta x_2}{x_2} \right| + \dots + \left| \frac{\Delta x_n}{x_n} \right|$$

hosil bo‘ladi yoki

$$\delta(u) \leq \delta(x_1) + \delta(x_2) + \dots + \delta(x_n). \quad (7)$$

Natija: Ko‘paytmaning chegaraviy nisbiy xatoligi uchun taqrifiy sonlarning

chegaraviy nisbiy xatoliklari yig‘indisini olish mumkin, ya’ni

$$\varepsilon_u = \varepsilon_{x1} + \varepsilon_{x2} + \dots + \varepsilon_{xn}. \quad (8)$$

Bo‘linmaning xatoligi. 3-teorema. Bo‘linmaning nisbiy xatoligi bo‘linuvchi va bo‘luvchilarning nisbiy xatoliklari yig‘indisidan katta emas.

$$\frac{\Delta u}{u} = \frac{\Delta x}{x} - \frac{\Delta y}{y}$$

bo‘lib, bu yerdan

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| \leq \left| \frac{\Delta x}{x} \right| + \left| \frac{\Delta y}{y} \right|$$

yoki $\delta(u) \leq \delta(x_1) + \delta(x_2)$ bo‘ladi.

Natija: Bo‘linmaning chegaraviy nisbiy xatoligi uchun bo‘linuvchi va bo‘luvchining chegaraviy nisbiy xatoliklari yig‘indisini olish mumkin:

$$h_u = h_{x1} + h_{x2}. \quad (9)$$

Darajaning xatoligi $u = x^m$ (m – natural son) bo‘lsin, u holda $Lnu = m \cdot Lnx$ va

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| = m \left| \frac{\Delta x}{x} \right| \quad (10)$$

bo‘lib, bundan

$$\varepsilon_u = m \cdot \varepsilon_x$$

kabi yozish mumkin, ya’ni taqrifiy son m – darajasining chegaraviy nisbiy xatoligi taqrifiy sonning chegaraviy nisbiy xatoligidan daraja ko‘rsatkichi m marta katta.

Ildizning xatoligi. $u = \sqrt[m]{x}$ bo‘lsin, u holda $u^m = x$. Darajaning chegaraviy nisbiy xatoligi formulasi (1.10) ga ko‘ra $m\varepsilon_u = \varepsilon_x$ yoki

$$\varepsilon_u = \frac{1}{m} \cdot \varepsilon_x \quad (11)$$

ya’ni, m – darajali ildizning chegaraviy nisbiy xatoligi ildiz ostidagi taqrifiy sonning chegaraviy nisbiy xatoligidan ildiz ko‘rsatkichi m marta kichik.

6-misol. Quyidagi funksiya qiymatini hisoblashda hosil bo‘ladigan xatoliklarni toping:

$$x = \frac{A^2 \cdot B^3}{\sqrt{K}}, \text{ bu yerda } A = 28.3 \pm 0.02, K = 0.678 \pm 0.003, B = 7.45 \pm 0.01.$$

Yechish. Quyidagilarni aniqlaymiz: $A^2 = 800.9$; $V^3 = 413.5$;

$$\sqrt{K} = 0.8234; \text{ bulardan foydalanib,}$$

$$x = \frac{800.9 \cdot 413.5}{0.8234} = 402200 = 4.02 \cdot 10^5$$

So‘ngra quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$\varepsilon_A = 0.02/28.3 = 0.00071;$$

$$\varepsilon_B = 0.01/7.45 = 0.00135;$$

$$\varepsilon_K = 0.003/0.678 = 0.00443$$

bulardan

$$\varepsilon_x = 2\varepsilon_A + 3\varepsilon_B + 0.5\varepsilon_K = 0.00142 + 0.00405 + 0.002202 = 0.77\%.$$

$$h_x = 4.02 \cdot 10^5 \cdot 0.0075 = 3.09 \cdot 10^3.$$

SHunday qilib, $x = 4.02 \cdot 10^5 \pm 3.09 \cdot 10^3$; $\varepsilon_x = 0.77\%$.

Argumentlarning taqrifiy qiymatlari uchun funksiya qiymatining yo‘qotib bo‘lmaydigan xatoligini baholash masalasini ko‘raylik. Bizga

$$\mathbf{u} = f(\mathbf{x}_1, \mathbf{x}_2, \dots, \mathbf{x}_n)$$

differentsiallanuvchi funksiya berilgan bo‘lib, uning argumentlarining aniq qiymatlari ma’lum bo‘lmay, faqat taqribiy qiymatlari ma’lum bo‘lsin. Argumentlarning absolyut xatoliklari Δx_i ($i = 1, 2, \dots, n$) kabi bo‘lsin. U holda funksiya qiymatining absolyut xatoligi

$$|\Delta u| = |f(x_1 + \Delta x_1, x_2 + \Delta x_2, \dots, x_n + \Delta x_n) - f(x_1, x_2, \dots, x_n)|$$

bo‘ladi. Δx_i ($i=1, n$) qiymatlar juda kichik bo‘lganligidan, amalda ularning ko‘paytmalari, kvadratlari va yuqori darajalarini hisobga olinmasa ham bo‘ladi. SHuning uchun

$$|\Delta u| \approx |df(x_1, x_2, \dots, x_n)| = \left| \sum_{i=1}^n \frac{\partial f}{\partial x_i} \Delta x_i \right| \leq \sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial f}{\partial x_i} \right| \cdot |\Delta x_i|$$

SHunday qilib,

$$|\Delta u| \leq \sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial f}{\partial x_i} \right| \cdot |\Delta x_i| \quad (12)$$

yoki

$$h_u = \sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial f}{\partial x_i} \right| \cdot h_{x_i} \quad (13)$$

tengsizlikning ikkala tomonini u ga bo‘lib, nisbiy xatolikni baholasak,

$$\delta(u) \leq \sum_{i=1}^n \frac{\left| \frac{\partial f}{\partial x_i} \right|}{u} \cdot |\Delta x_i| = \sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial}{\partial x_i} \ln f(x_1, x_2, \dots, x_n) \right| \cdot |\Delta x_i| \quad (14)$$

hosil bo‘ladi, shuning uchun chegaraviy nisbiy xatolikni

$$\varepsilon_v = \sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial}{\partial x_i} \ln u \right| \cdot h_{x_i} \quad (15)$$

kabi olish mumkin.

7-misol. Tsilindr asosining radiusi $R = 1.3$ sm, balandligi $N = 20.4$ sm mos ravishda 0.01 va 0.02 aniqlikda o‘lchangan bo‘lsa, tsilindr hajmini hisoblashda hosil bo‘ladigan xatoliklarni toping.

Yechish. (12) formulaga ko‘ra tsilindr hajmini hisoblashda hosil bo‘ladigan hatolikni aniqlaymiz. Buning uchun tsilindr hajmini ifodalovchi $V = \pi R^2 H$ funksiyadan R , N va π kattaliklar bo‘yicha xususiy hosilalar olamiz:

$$\frac{\partial V}{\partial R} = 2\pi \cdot R \cdot H = 166.55; \quad \frac{\partial V}{\partial H} = \pi \cdot R^2 = 5.31; \quad \frac{\partial V}{\partial \pi} = R^2 \cdot H = 34.48.$$

$\pi \approx 3.14$ deb olindi. U holda π kattalikning absolyut xatoligi uchun

$h_\pi = 0,0016$ ni olishimiz mumkin. SHuning uchun

$$h_v = \left| \frac{\partial V}{\partial \pi} \right| \cdot |h_\pi| + \left| \frac{\partial V}{\partial R} \right| \cdot |h_R| + \left| \frac{\partial V}{\partial H} \right| \cdot |h_H| \approx 0.055 + 1.666 + 0.106 = 1.827 \text{ sm}^3 \approx 1.83 \text{ sm}^3$$

Demak,

$$V = \pi \cdot R^2 H = 108.25 \text{ sm}^3 \pm 1.83 \text{ sm}^3.$$

Izlanayotgan chegaraviy nisbiy xatolik

$$\varepsilon_v = \frac{h_v}{V} = \frac{1.83}{108.25} \approx 0,017 (= 1.7\%)$$

kabi bo‘ladi.

S

6. Xatoliklar nazariyasining teskari masalasi

Amalda xatoliklarning teskari masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin: funksiyaning xatoligi berilgan kattalikdan oshib ketmasligi uchun, argumentlar xatoligi qanday bo‘lishi kerak? (qanday olinishi kerak?). Bu masala matematik aniqlanmagan masaladan iborat. CHunki birgina ma’lum bo‘lgan funksiyaning xatoligiga ko‘ra, n ta argumentning xatoligi topilishi kerak. Ushbu masalaning sodda

yechilishi teng ta'sir printsipiga ko'ra hal qilinadi. Bu printsipga binoan quyidagi hollar qaraladi:

- 1) $u = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiyaning chegaraviy nisbiy xatoligi hosil bo'lishiga argument chegaraviy absolyut xatoliklari teng ta'sir etsin, boshqacha aytganda, ular o'zaro teng bo'lsin, ya'ni

$$h_{x_1} = h_{x_2} = \dots = h_{x_n}. (= h_x)$$

5 – dagi (13) formulaga ko'ra:

$$h_x = \frac{h_u}{\sum_{i=1}^n \left| \frac{\partial u}{\partial x_i} \right|} \quad (i = 1, 2, \dots, n) \quad (16)$$

- 2) Funksiya xatoligi hosil bo'lishida barcha argumentlarni o'lchash aniqligi bir xil bo'lsin, ya'ni barcha chegaraviy nisbiy xatoliklar o'zaro teng bo'lsin:

$$\varepsilon_u = \varepsilon_{x_1} + \varepsilon_{x_2} + \dots + \varepsilon_{x_n}.$$

Bundan

$$\frac{h_{x_1}}{|x_1|} = \frac{h_{x_2}}{|x_2|} = \dots = \frac{h_{x_n}}{|x_n|} = K$$

bu yerda K – nisbatlarning umumiy qiymati. SHuning uchun

$$h_{x_i} = K \cdot |x_i| \quad (i = 1, 2, 3, \dots, n).$$

Bu qiymatlarni 5 – dagi (12) formulaga qo'yib

$$h_u = K \cdot \sum_{i=1}^n \left| x_i \frac{\partial u}{\partial x_i} \right|$$

ni hosil qilamiz, demak,

$$K = \frac{h_u}{\sum_{i=1}^n \left| x_i \frac{\partial u}{\partial x_i} \right|}$$

SHunday qilib, natijada

$$h_{x_i} = \frac{|x_i| \cdot h_u}{\sum_{i=1}^n \left| x_i \frac{\partial u}{\partial x_i} \right|} \quad (i = 1, 2, 3, \dots, n). \quad (17)$$

formulaga ega bo'lamiz.

- 3) $u=f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiyaning chegaraviy absolyut xatoligi hosil bo'lishida barcha xususiy $\frac{\partial f}{\partial x_i} \cdot h_{x_i}$ ($i = 1, 2, 3, \dots, n$) differentsiallar teng ta'sir etsin deylik, ya'ni

$$\frac{\partial u}{\partial x_1} \cdot h_{x_1} = \frac{\partial u}{\partial x_2} \cdot h_{x_2} = \dots = \frac{\partial u}{\partial x_n} \cdot h_{x_n} = \frac{h_u}{n}$$

bo'lsin. Demak, 1.15 – dagi (1.13) formulaga ko'ra quyidagiga ega bo'lamiz:

$$h_{x_i} = \frac{h_u}{n \cdot \left| \frac{\partial u}{\partial x_i} \right|} \quad (i = 1, 2, 3, \dots, n)$$

(1.17')

8 – Misol. Silindr asosining radiusi $R \approx 2$ m, balandligi $N \approx 3$ m. Silindr hajmi, V ni 0.1 m^3 anqlikda hisoblash uchun uning R va N o'lchamlari qanday anqlikda topilishi kerak?

Yechish. $V = \pi \cdot R^2 H$ va $h_v = 0.1 \text{ m}^3$ ma'lum $R = 2$ m; $N = 3$ m; $\pi = 3.14$ deb taqriban

$$\frac{\partial V}{\partial \pi} = R^2 \cdot H = 12; \quad \frac{\partial V}{\partial R} = 2\pi \cdot R \cdot H = 37.7; \quad \frac{\partial V}{\partial H} = \pi \cdot R^2 = 12.6$$

qiymatlarga ega bo'lamiz. Bundan $n = 3$ ekanligini e'tiborga olib, (1.17) formulaga ko'ra

quyidagilarni topamiz:

$$h_{\pi} = 0,1/(3 \cdot 12) < 0,003; h_R = 0,1/(3 \cdot 37,7) < 0,001; h_H = 0,1/(3 \cdot 12,6) < 0,003.$$

Demak, $h_{\pi} = h_H = 0,003$ va $h_R = 0,001$ kabi olinish kerak ekan.

Tayanch iboralar.

Amaliy masala, matematik masala, matematik model, algoritm, hisoblash eksperimenti

Nazorat savollari.

1. Amaliy masala qanday masala.
2. Amaliy masalaga misol keltiring.
3. Matematik masala qanday masala.
4. Matematik masalaga misol keltiring.
5. Masalani EHM da yechishning assosiy bosqichlarini aytинг
6. Hisoblash eksperimenti nima.
7. Hisoblash matematikasining predmeti nimadan iborat.
8. Hisoblash matematikasining usulini aytинг.
9. Hisoblash matematikasining usulini tushintirishga misol keltiring.
10. Hisoblash matematikasi tarakkiyotiga katta hissa qo'shgan qaysi olimlarni bilasiz.
11. Xatoliklar manbayi nimalardan iborat?
12. Qanday xatoliklarni bilasiz?
13. Absolyut va nisbiy xatoliklarni ta'riflang.
14. Chegaraviy absolyut va va chegaraviy nisbiy xatoliklarnitushintiring?
15. Taqribiy sonlarning ayirmasi va yig'indisining xatoliklarini aytинг?
16. Taqribiy sonlarning ko'paytmasi va bo'linmasining xatoliklarini aytинг?
17. Taqribiy sonlarning ildiz va darajasining xatoliklari qanday aniqlanadi?
18. Xatolik qanday qilib hisobga olish mumkin.

Adabiyotlar.

1. Isroilov M. Hisoblash metodlari T.2003 y.
2. Siddikov A. Sonli usullar va programmalash. T 2001y.
3. Samarskiy A.A., Gulin A.V. Chislenke metodk M 1989 y.

2-MA`RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.	Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 40-45 nafar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma`ruza
3.	Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	1. Zamonaviy EHMLarning dasturiy ta'minoti. 2. Amaliy dasturlar paketi. 3. Avtomatlashirishda qo'llaniladigan paketlarning sinflanishi.
4.	O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi klassifikatsiyasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.
5.	Pedagogik vazifalar: - AQP klassifikatsiyasi, avtomatlashirilgan ish joyi, loyihalash ob'yekti, loyihalashni avtomatlashirish darajasi bilan tanishtirish va tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: ➤ AQP klassifikatsiyasining asosiy belgilarini aytib beradi. ➤ Loyihalash ob'yekti asosiy tushunchalarini bayon qiladi. ➤ Texnikaviy ta'minot strukturasidagi darajalar haqida aytib beradi. ➤ AQPning boshqa avtomatlashirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'siri printsiplarini ta'riflaydi.
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, blits-so'rov, klaster, BBB texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

2-MA`RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. <ul style="list-style-type: none"> • AQP klassifikatsiyasining asosiy belgilarini bayon qiling. • Loyihalash ob'yekti asosiy tushunchalarini bayon qiling. • Texnikaviy ta'minot strukturasidagi darajalar haqida aytib bering. • AQPning boshqa avtomatlashirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'siri printsiplarini ta'riflang. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. 2.3. AQP klassifikatsiyasi to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'yaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifi yozib oladi, misollar keltiradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtiroy etgan talabalarni rag'batlanadir. Mustaqil ish uchun vazifa: AQP klassifikatsiyasiga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

2 – MA’RUZA.

ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALARINI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. ILDIZLARINI AJRATISH VA TENG YARMIGA BO‘LISH USULI.

Ma’ruza rejasi:

1. Algebraik tenglama ildizini ajratish.
2. Transendent tenglama ildizini ajratish.
3. Algebraik tenglama ildizlari yotgan oraliqlarni aniqlash.
4. Kesmani teng ikkiga bo‘lish usuli

1. Algebraik tenglama ildizini ajratish

Amaliyotda, ba’zi masalalarda

$$f(x)=0 \quad (2.1)$$

ko‘rinishdagi bir noma’lumli chiziqsiz tenglamalarini yechishga to‘g‘ri keladi. Bunda $f(x) [a,b]$ oraliqda aniqlangan funksiya bo‘lib, $f(t)=0$ bo‘lsa, $x=t$ ni (2.1) tenglanamaning yechimi-ildizi deyiladi. Tenglanamaning aniq yechimini topish qiyin bo‘lgan hollarda uning taqribi yechimini topish to‘g‘ri keladi, bu ikki bosqichga bo‘linadi.

- 1) Yechimni ajratish(yakkalash), ya’ni yagona yechim yotgan intervalni aniqlash;
- 2) Taqribi yechimni topilgan intervalda berilgan aniqlikda topish.

Tenglanamaning yagona yechimi yotgan oraliqni aniqlash uchun quyidagi teoremadan foydalilanadi.

2.1-teorema. Aytaylik,

- 1) $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksiz va (a,b) intervalda hosilaga ega bo‘lsin;
- 2) $f(a)f(b)<0$, ya’ni $f(x)$ funksiya kesmaning chetlarida har xil ishoraga ega bo‘lsin;
- 3) $f'(x)$ hosila $[a,b]$ kesmada o‘z ishorasini saqlasın.

U holda, (2.1) tenglama $[a,b]$ oraliqda yagona yechimiga ega bo‘ladi.

2. Transendent tenglama ildizini ajratish

1. Teoremadagi $[a,b]$ kesmani topishda ba’zan grafik usuldan foydalilanadi. Bu usulga asosan (2.1) tenglanamaning ildizini ajratish uchun $y=f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ oraliqdagi grafigini chizamiz. Bu grafigning OX o‘qi bilan kesishish nuqtasining abstsissasi (2.1) tenglanamaning yechimi bo‘ladi. $y=f(x)$ funksiyani grafigini chizish qiyin bo‘lsa, $f(x)=0$ tenglamani grafigini chizish qulay bo‘lgan funksiyalarga ajratib

$$f_1(x)=f_2(x) \quad (2.2)$$

ko‘rinishga keltiramiz va $y=f_1(x)$, $y=f_2(x)$ funksiyalarning grafiklarini chizamiz. Bu grafiklar kesishish nuqtasining abstsissasi $x=t$ $f(t)=0$ tenglanamaning yechimi bo‘ladi. Bu yechimni o‘z ichiga oluvchi $[a,b]$ kesmani yuqoridagi teorema shartlarining bajarilishini tekshirish asosida tanlaymiz.

2.1-masala. $e^x - 10x - 2 = 0$ tenglanamaning yagona ildizi yotgan oraliq topilsin.

Yechish. Tenglamani

$$e^x = 10x + 2$$

ko‘rinishda yozamiz. So‘ngra

$$y=e^x, y=10x+2$$

funksiyalarning grafiklarini (2.1-rasm) chizamiz. 2.1-rasm dan ko‘rinadiki,

$$e^x - 10x - 2 = 0$$

tenglama yagona yechimini o‘z ichiga olgan oraliq $[-1,0]$ bo‘ladi. Tanlangan $[-1,0]$ kesmada teorema shartlarining bajarilishini tekshiramiz.


- 1) $f(x)=e^x - 10x - 2$ funksiya $[-1,0]$ oraliqda uzluksiz, $(-1,0)$ intervalda $f'(x)=e^x - 10$ hosilaga ega.

$$2) f(-1)=e^{-1} - 10(-1) - 2 \approx 3.368 > 0, f(0)=e^0 - 10 \cdot 0 - 2 = -1 < 0$$

bundan: $f(-1) f(0) < 0$

$$3) x \in (-1,0) \text{ bo‘lganda } f'(x)=e^x - 10 < 0$$

Demak, 2.1-teoremaning barcha shartlari $[-1,0]$ oraliqda bajariladi.



2.1-Maple 7 dasturi

```

exp(x)=10*x+2 chiziqsiz tenglamani yechimini topish
> with(Student[Calculus1]):
Roots( exp(x)-10*x-2,x,numeric );

```

[K .1104575676 , 3.650889167]

> restart;

> solve(exp(x)=10*x+2,x);

$$-LambertW\left(\frac{1}{10}e^{\frac{-1}{5}}\right) - \frac{1}{5}$$

$$-LambertW\left(-1, \frac{1}{10}e^{\frac{-1}{5}}\right) - \frac{1}{5}$$

> evalf(%);

K .1104575676 , 3.650889167

> fsolve({exp(x)-10*x-2},x,complex);


{x = K .1104575676 }

>plot({exp(x),10*x+2, ex(x)-10*x-2},x=-4..4,y=-4..4);

> with (plots) :

```
implicitplot([y=exp(x),y=10*x+2,y=exp(x)-10*x-2],x=-2..4,y=-4..4,color = [blue, blue, red]);
```

write(' ildiz yotgan oraliq va ildiz ');
gotoxy(10,10);
write(' (', 'x1=',x1:6:3,', ', 'x2=',x2:6:3,', ', ', 'x=',x:8:4);
i:=i+1;
L3: x1:=x2;
goto L1;
L4: readln;
end.

```

Ildiz yotgan Kesma (a,b) va ildizni aniqlash qadami h bo'lganda

BIRGALASGAN usulida hisoblash

a=-7

b=7

h=0.1

ildiz yotgan oraliq va ildiz ($x_1 = -0.200$, $x_2 = -0.100$) $x = -0.1104$

ildiz yotgan oraliq va ildiz ($x_1 = 3.600$, $x_2 = 3.700$) $x = 3.6509$

2. Ketma-ket yaqinlashish (iteratsiya) usuli

Berilgan $f(x)=0$ tenglamani unga teng kuchli bo'lgan $x=\varphi(x)$ ko'rinishdagi tenglamaga keltiramiz.

2.5-teorema. Aytaylik,

- 1) $\varphi(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqda aniqlangan va differentsiyallanuvchi bo'lsin;
- 2) $\varphi(x)$ funksiyaning hamma qiymatlari $[a,b]$ oraliqqa tushsin;
- 3) $[a,b]$ oraliqda $|\varphi'(x)| \leq q < 1$ tengsizlik bajarilsin.


Bu holda $[a,b]$ oraliqda $x=\varphi(x)$ tenglamaning yagona $x=t$ yechimi mavjud va bu yechim

$t_0 \in [a,b]$ – qanday tanlanishidan qatoiy nazar

$$t_1 = \varphi(t_0), t_2 = \varphi(t_1), \dots, t_n = \varphi(t_{n-1}), \dots$$

formulalar bilan aniqlanadigan $\{t_n\}$ ketma – ketlikning limitidan iborat bo'ladi.

Berilgan $f(x)=0$ tenglamani unga teng kuchli bo'lgan $x=\varphi(x)$ tenglama uchun yaqinlashish sharti bajarilganda yaqinlashish jarayonini quyidagi shakillar misolida ko'rish mumkin.



Bu yerda, t_0 qiymat $[a,b]$ oraliqda yotuvchi
ixtiyoriy son bo'lib, yechimning 0-yaqinlashishi, t_i
– ni yechimning i – yaqinlashishi deb yuritiladi.

Bu teorema asosida tenglama ildizini quyidagicha aniqlaymiz.

1) $f(x)=0$ tenglamaning yagona ildizi yotgan $[a,b]$ kesmani biror (masalan, grafik) usul bilan aniqlaymiz.

2) $[a,b]$ da $f(x)$ ning uzlusizligi va $f(a)f(b)<0$ shart bajarilishini tekshiramiz.

3) Tenglamani $x=\varphi(x)$ ko'rinishga keltirib, $\varphi(x)\in[a,b]$ ekanligini hamda $[a;b]$ da $\varphi'(x)$ mavjudligini tekshiramiz va $q = \max_{x \in [a;b]} |\varphi'(x)|$ ni topamiz.

4) Agar $q<1$ bo'lsa, $x_n = \varphi(x_{n-1})$ ketma-ketlikning boshlang'ich yaqinlashishi x_0 uchun $[a;b]$ ning ixtiyoriy bitta nuqtasi olamiz.

5) Ketma-ketlik hadlarini hisoblashni $|x_n - x_{n-1}| < \varepsilon(1-q)/q$ shart bajarilguncha davom ettiramiz.

6) Ildizning taqribiy qiymati uchun x_n ni olamiz.

Birinchi shakilda $\varphi'(x) > 0$ bo'lganda pog'anasimon va ikkinchi shakilda $\varphi'(x) < 0$ bo'lganda speralsimon yaqinlashish $|\varphi'(x)| < 1$ bshlganda yaqinlashuvchiligidini ko'ramiz.

2.5-masala.

$e^x - 10x - 2 = 0$ tenglamaning $[-1,0]$ oraliqdagi yechimini $\varepsilon=0.01$ aniqlikda toping.

Yechish. Berilgan tenglamani unga teng kuchli bo'lgan
 $x=(e^x-2)/10$

ko'rinishga keltiramiz. Endi $\varphi(x)=(e^x-2)/10$ funksiya uchun $[-1,0]$ oraliqda 2.5-teoremaning barcha shartlari bajarilishini ko'rsatamiz:

1) $[-1,0]$ da $\varphi(x)$ funksiya $\varphi'(x)=e^x/10$ uzlusiz hosilaga ega va $\varphi'(x)>0$ ekanligini payqash qiyin emas.

2) $[-1,0]$ da $\varphi(x)$ o'suvchi bo'lganligi sababli, uning qiymatlari uchun

$\varphi(-1)=-0.163>-1$, $\varphi(0)=-0.1<0$ ekanligidan $-1 < \varphi(x) < -0.1$, ya'ni $\varphi(x)\in(-1;0)$ kelib chiqadi.

3) $\varphi''(x)=\frac{e^x}{10}$ ikkinchi tartibli hosila $[-1,0]$ oraliqda musbat bo'lgani uchun $\varphi'(x)$ -hosila o'suvchi va

$$e^{-1}/10=\varphi'(-1)<\varphi'(0)=e^0/10 \text{ ekanligidan } q = \max_{x \in [-1,0]} |\varphi'(x)| = \frac{1}{10} = 0.1 \text{ ni olamiz.}$$

Demak, $x=(e^x-2)/10$ tenglama uchun iteratsiya usulini qo'llash mumkin.

Eslatma. Agar $e^x - 10x - 2 = 0$ ni x ga nisbatan yechib

$$x=\ln(10x+2)$$

ko'rinishga keltirsak, $\varphi(x)=\ln(10x+2)$ bo'lib, bu funksiya $[-1,0]$ oraliqda 2.5-teorema shartlarini qanoatlantirmaydi. Demak, $x=\ln(10x+2)$ tenglamaga iteratsiya usulini qo'llab bo'lmaydi.

Endi $\varepsilon=0.01$ aniqlik bilan $x=(e^x-2)/10$ tenglamani iteratsiya usuli bilan yechamiz. Dastlabki yaqinlashish sifatida $t_0=0$ ni olamiz. Bu holda

$$t_1=\varphi(t_0)=\varphi(0)=(e^0-2)/10=-0.1;$$

$$t_2=\varphi(t_1)=\varphi(-0.1)=(e^{-0.1}-2)/10=-0.1095.$$

$|t_2-t_1|=0.0095<\varepsilon$ bo'lganligi uchun $t=-0.1095 \approx -0.11$ ni berilgan tenglamaning 0,01 aniqlikdagi taqribiy ildizi uchun qabul qilamiz.

Iteratsiya usuli bilan tenglama yechimini topish uchun dastur tuzamiz.

Masaladagi berilganlar asosida ko'rsatilgan usulda hisoblashning algoritmini 2.9-jadvalda beramiz :

2.9-

jadval

Berilganlar	Belgilashlar	
	matn bo'yicha	dastur bo'yicha
Tenglama funksiyasi	$f(x)=e^x-10x-2$	$FNF(x)=EXP(X)-10*X - 2$
Iteratsiya usulini qo'llash uchun tenglamani o'zgartirilgan ko'rinishi	$x=(e^x-2)/10$	$X=(EXP(X)-2)/10$
Tenglama funksiyasi ning ikkinchi hosilasi	$f'''(x)=e^x-10$	$FNF2(x)=EXP(X)$
Ildiz yotgan Kesma	$a=-1, b=0$	$a=-1, b=0$
Kesmani bo'linish qadami va aniqlikda	$H=0.1, \varepsilon=0.01$	$H=0.1: E=0.01$
Ildiz yotgan kesma	$(x_1, x_2)=(x_1, x_1+h)$	$(x_1, x_2)=(x_1, x_1+h)$
Ildiz yotgan kesmani aniqlash sharti	$f(x_1)f(x_2)<0$	$f_nf(x_1)*f_nf(x_2)<0$
Urinmalar va vatarlar usulini	$f(x)f''(x)>0$	$f_nf(x)*f_nf2(x)>0$

qo'llash sharti	$f(x) f'(x) < 0$	$f'f(x) * f'f2(x) < 0$
Urinmalar va vatarlar usulida hisoblash formulasi	$x_2 = x_1 - f(x_1) / f'(x_1)$, $x_1 = x_1 - (x_2 - x_1) f(x_1) / (f(x_2) - f(x_1))$	$A = A - FNF(A) / FNF1(A)$, $X = X - (A - X) * FNF(X) / (FNF(A) - FNF(X))$
Ildizga yaqinlashish sharti	$ x_1 - x_2 < \epsilon$	$ABS(x_1 - x_2) \leq \epsilon$ yoki $FNF(X) \leq \epsilon$

4 ‘ ----- 2.9- DASTUR -----

5 ‘----Iteratsiya usulida trantsendent tenglama -----

6 ‘ ----- ildizini aniqlash-----

10 PRINT “Boshlangich qiymatni, aniqlikni va iteratsiya sonin”

12 PRINT “kiriting X1 , E, N=:”

20 INPUT X1 , E, N

30 DEF FNF(X)=(EXP(X)-2)/10

40 X=X1

50 FOR I=1 TO N

60 Y=FNF(X)

70 IF ABS(Y-X)<=E THEN 120

80 X=Y

90 NEXT I

100 PRINT “ berilga N aniqlik etarli emas”

110 GOTO 10

120 PRINT” Xisob natijasi: “

130 PRINT” i=”; i,” da x=”;x , ”y=”;y

140 END

Berilganlar: x0=0 , ε=0.01 , N=100

Javob: I=3 , x= -0.1095 , y= -0.108965

(*----- 2.9- DASTUR -----*)

(* Iteratsiya usulida chiziksiz tenglamalarni *)

(* Paskal tili dasturida hisoblash dasturi *)

USES CRT;

LABEL L1,L2;

function fnf(x:real):real;

write(‘ x=’);readln(x);

begin fnf:=(EXP(x)-2)/10; end;

y:=fnf(x);

P:=x-y;

if abs(P)<EPS then goto L2;

write(i:2,’-yakinlashish’);

writeln(‘x(‘,i:2,’)=’,x:8:4);

i:=i+1;

x:=y;

goto L1;

L2: writeln(‘x(‘,i:2,’)=’,x:8:4);

readln;

end.

X=-1

1-yakinlashish

x(1)= -1.0000

2-yakinlashish

x(2)= -0.1632

3-yakinlashish

x(3)= -0.1151

2.4-Maple 7 dasturi

$$> f := x \rightarrow (\exp(x) - 2) / 10; \quad f \doteq x / \frac{1}{10} e^x - \frac{1}{5}$$

$$> x || 0 := 0; \quad x0 \doteq 0$$

$$> for k from 1 to 16 do x||k := evalf(f(x) || (k-1)) : od:$$

$$\begin{aligned}
 > f(x) := x; \text{ solve}(\%, x); \text{evalf}(\%, 4); & \quad \frac{1}{10} e^x \approx \frac{1}{5} = x \\
 & - LambertW\left(-\frac{1}{10}e^{\left(-\frac{1}{5}\right)}\right) \approx -\frac{1}{5}, \quad - LambertW\left(-1, -\frac{1}{10}e^{\left(-\frac{1}{5}\right)}\right) \approx -\frac{1}{5}
 \end{aligned}$$

$$K \approx 1.105, 3.651$$

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Tenglama ildiziga yaqinlashish sharti.
2. Ildizga ketma-ket yaqinlashish haqidagi teorema.
3. Ildizni hisoblashda vatarlar usulini qo‘llashning asosiy sharti.
4. Vatarlar usuli bilan ildizga chapdan yaqinlashish sharti.
5. Vatarlar usuli bilan ildizga o‘ngdan yaqinlashish sharti.
6. Vatarlar usulini qo‘llashda boshlang‘ich yaqinlashishni tanlash.
7. Ildizni hisoblashda urinmalar usulini qo‘llashning asosiy sharti.
8. Urinmalar usuli bilan ildizga chapdan yaqinlashish sharti.
9. Urinmalar usuli bilan ildizga o‘ngdan yaqinlashish sharti.
10. Urinmalar usulini qo‘llashda boshlang‘ich yaqinlashishni tanlash.
11. Iteratsiya usulining yaqinlashish shartini aytинг.
12. Iteratsiya usulida boshlang‘ich shartni tanlash usulini tushuntiring.
13. Kesmani ikkiga bo‘lish usuli va uning yaqinlashish shartini aytинг.
14. Tenglamalarni taqribiy hisoblashda ketma-ket yaqinlashish (iteratsiya) shartlar.
15. Iteratsiya usulini qo‘llashda $x = \square(x)$ tenglamadagi $\square(x)$ uchun qo‘yilgan shartlar.
16. Iteratsiya usulini qo‘llashda $x = \square(x)$ tenglamadagi $\square'(x)$ uchun qo‘yilgan shartlar.
17. Ketma-ket yaqinlashish (iteratsiya) usulida boshlang‘ich yaqinlashish qiymatini tanlash qoidasi.

5-MA`RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.	Vaqti – 4 soat	Talabalar soni: 40-45 nafar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma`ruza, муаммоли маъруза
3.	Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	1. MATLAB tizimida ikki o'lchovli grafika. 2. Uch o'lchovli grafika. Animatsiya.
4.	O'quv mashg'ulotining maqsadi:	MATLAB tizimida ikki va uch o'lchovli grafika hamda animatsiya to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.
5.	Pedagogik vazifalar: - MATLAB tizimida ikki va uch o'lchovli grafika hamda animatsiya to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish bilan tanishtirish va tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none">➢ MATLAB tizimida ikki o'lchovli grafika elementlarini ko'rsatib beradi.➢ Uch o'lchovli grafika elementlarini ko'rsatib beradi..➢ Animatsiya elementlarini ko'rsatib beradi.➢ MATLAB da grafik chizish uchun ishlataladigan buyruqlarni sanab beradi.➢ plot, mesh, grid buyruqlarining vazifalarini tushuntiradi.
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, aqliy hujum, klaster, "FSMU" texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va jutflikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

5-MA`RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qanday buyruqlar bilan tekislikda va fazoda grafiklarni yasash mumkin? Bu buyruqlarning parametrlari haqida gapiring. • Oshkormas ko'rinishda berilgan funksiyalarning grafiklari qaysi buyruqlar yordamida yasaladi? Ularning parametrlarini yozing • plot va mesh buyrug'i nima maqsadda ishlataladi? • Berilgan tengsizliklar sistemasi orqali aniqlanadigan ikki o'lchovli soha qanday buyruq bilan yasaladi? • Fazoviy sirtlar va egrilarning grafiklari qanday buyruq bilan yasaladi? <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma`ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. MATLAB tizimida ikki va uch o'lchovli grafika hamda animatsiya to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi.</p> <p>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi.</p> <p>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Ta`rifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtiroy etgan talabalarini rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: MATLAB tizimida ikki va uch o'lchovli grafikaga oid klaster tuzishni va fazoda animatsion grafiklar chizishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

5 – MA’RUZA.

CHIZIQLI ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALAR SISTEMALARINI SONLI YECHISH USULLARINI ALGORITMLASH. GAUSS USULI.

Reja:

1. Chiziqli tenglamalar sistemalari haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning Gauss usuli (noma'lumlarni ketma-ket yo'qotish usuli)

1. Chiziqli tenglamalar sistemalari haqida umumiy ma'lumotlar.

N ta noma'lumli t ta tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$\left\{ \begin{array}{l} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 + \dots + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 + \dots + a_{2n}x_n = b_2 \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ a_{i1}x_1 + a_{i2}x_2 + a_{i3}x_3 + \dots + a_{in}x_n = b_i \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + a_{m3}x_3 + \dots + a_{mn}x_n = b_m \end{array} \right. \quad (3.23)$$

a_{ik} koeffitsientning belgilanishidagi birinchi indeks tenglama nomerini, ikkinchi indeks esa noma'lum nomerini bildiradi. Har bir noma'lum indeksli bitta x harfi bilan belgilangan bo'lib, bu indeks noma'lumning nomerini bildiradni.

Agar chiziqli tenglamalar sistemasi yechimga ega bo'lsa, u *birgalikda*, agar yechimga ega bo'lmasa, u *birgalikdaemas* deyiladi.

Birgalikda bo'lgan chiziqli tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo'lsa, u *aniqlangan*, agar cheksiz ko'p yechimlarga ega bo'lsa, u *aniqmas* sistema deb ataladi.

Agar ikkita birgalikdagi tenglamalar sisgemasidan birining ha' bir yechimi ikkinchisining yechimi va aksinchasi, ikkinchisiining har bir yechimi birinchisining yechimi bo'lsa, bu sistemalar *teng kuchli sistemalar* deb ataladi.

Quyidagi almashtirishlar tenglamalar sistemasini unga teng kuchli sistemaga o'tkazishini isbotlash mumkin:

- 1) istalgan ikkita tenglamaning o'rinnarini almashtirish;
- 2) tenglamalardan istalgan birining ikkala tomonini noldan farqli istalgan songa ko'paytirish;
- 3) sistema tenglamalaridan birining ikkala tomoniga boshqa bir tenglamaning istalgan haqiqiy songa ko'paytirilgan mos qismini qo'shish.

Bu almashtirishlarni ham matritsalarni elementar almashtirishlarga mos qilib, *elementar almashtirishlar* deb ataymiz.

Bir nechta shunday almashtirishlardan so'ng sistemada barcha koeffitsientlari va ozod hadi nolga teng bo'lgan tenglama hosil bo'lishi mumkin. Bunday tenglamani noma'lumlarning i s t a l g a n qymatlari qanoatlanrigani uchun uni tashlab yuborish mumkin. Bu holda biz berilgan sistemaga teng kuchli, lekin undan bitta kam tenglamaga ega bo'lgan sistemani hosil qilamiz.

Agar elementar almashtirishlarni tatbiq qilinganidan so'ng sistemada chap tomonining barcha koeffitsientlari nolga teng, ozod hadi esa noldan farqli tenglama hosil bo'lsa, bu narsa noma'lumlarning hech qanday qymatlari bu tenglamani qanoatlanirmsligini ko'rsatadi va demak, hosil bo'lgan sistema b i r g a l i k d a emas. Binobarii, dastlabki sistema ham birgalikda emas.

Aytaylik, bizga n ta noma'lumli n ta chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin:

$$\left\{ \begin{array}{l} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n = b_1, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n = b_2, \\ \dots \dots \dots \dots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \dots + a_{nn}x_n = b_n. \end{array} \right. \quad (3.24)$$

Bu chiziqli tenglamalar sistema noma'lumlarining koeffitsientlaridan

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ .. & .. & .. & .. \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix} \quad (3.25)$$

matritsani hamda ozod hadlari va noma'lumlaridan

$$B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_n \end{pmatrix}, \quad X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{pmatrix} \quad (3.26)$$

matritsalarni tuzamiz. Bu matritsalar asosida chiziqli tenglamalar sistemasini quyidagi ko'rinishda yozamiz

$$A \cdot X = B$$

Ta'rif: Agar $\det A \neq 0$ bo'lsa, A matritsa maxsus bo'lmagan matritsa, $\det A = 0$ bo'lsa, A matritsa maxsus matritsa deyiladi.

Agar A maxsus bo'lmagan matritsa bo'lsa, ya'ni uning determinantini

$$\det A = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} \neq 0 \quad (3.27)$$

bo'lsa, (3.24) sistema yagona yechimga ega bo'ladi. CHiziqli tenglamalar sistemasini yechish uchun tadbiq qilinadigan usullarni ikkita aniq va taqrifiy yechish usullaridan iborat bo'lgan guruhlarga bo'lamiz.

2. Chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning Gauss usuli (noma'lumlarni ketma-ket yo'qotish usuli)

Karl Fridrich Gauss(taniqli nemis matematigi (1777-1855)) usulining mohiyati quyidagidan iborat. Qulaylik uchun (3.24) chiziqli tenglamalar sistemasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n = a_{1,n+1}, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n = a_{2,n+1}, \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \dots + a_{nn}x_n = a_{n,n+1} \end{cases} \quad (3.28)$$

Bu sistemaning birinchi yetakchi-tenglamasidagi birinchi noma'lum oldidagi a_{11} koeffitsient noldan farqli bo'lsin: $a_{11} \neq 0$. Agar $a_{11} = 0$ bo'lsa, bu holda yetakchi-tenglamani sistemadagi tenglamalaridan birortasida x_1 ning koeffitsient noldan farqli bo'lsa shu tenglamala bilan o'rinnarini almashtiramiz.

Dastlab (3.28) sistemaning birinchi tenglamasidan boshqa barcha tenglamalaridan x_1 noma'lumni yo'qotamiz. Buning uchun eng avvalo 1-tenglamaning har ikkala tomonini $a_{11} \neq 0$ koeffitsienta bo'lamiz;

$$x_1 + \frac{a_{12}}{a_{11}}x_2 + \frac{a_{13}}{a_{11}}x_3 + \frac{a_{14}}{a_{11}}x_4 + \dots + \frac{a_{1n}}{a_{11}}x_n = \frac{a_{1,n+1}}{a_{11}}$$

bu yerda

$$b_{ij} = \frac{a_{ij}}{a_{11}}, \quad i = 1, j = 2, 3, 4, \dots, n+1 \quad (3.29)$$

bu holda berilgan sistemaga teng kuchli ushbu sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 + \dots + b_{1n}x_n = b_{1,n+1} \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 + a_{24}x_4 + \dots + a_{2n}x_n = a_{2,n+1} \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 + a_{34}x_4 + \dots + a_{3n}x_n = a_{3,n+1} \\ a_{41}x_1 + a_{42}x_2 + a_{43}x_3 + a_{44}x_4 + \dots + a_{4n}x_n = a_{4,n+1} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + a_{n3}x_3 + a_{n4}x_4 + \dots + a_{nn}x_n = a_{n,n+1} \end{cases}$$

Endi bu sistemaning birinchi tenglamasidan foydalanim, kyegingi tenglamalardagi x_1 noma'lumni yo'qotish, ya'ni uning koeffitsentini nolga aylantirish uchun quyidagi amallarni ketma-ket bajaramiz. Birinchi tenglamani a_{21} ga ko'paytiramiz va nkkinchini tenglamasidan ayiramiz. So'ngra birinchi tenglamani a_{31} ga ko'paytiramiz va uchinchi tenglamadan ayiramiz va hokazo. Natijada yana berilgan sistemaga teng kuchli ushbu yangi sistemani hosil qilamiz:

$$\left\{ \begin{array}{l} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 + \dots + b_{1n}x_n = b_{1,n+1} \\ a_{22}^{(1)}x_2 + a_{23}^{(1)}x_3 + a_{24}^{(1)}x_4 + \dots + a_{2n}^{(1)}x_n = a_{2,n+1}^{(1)} \\ a_{32}^{(1)}x_2 + a_{33}^{(1)}x_3 + a_{34}^{(1)}x_4 + \dots + a_{3n}^{(1)}x_n = a_{3,n+1}^{(1)} \\ a_{42}^{(1)}x_2 + a_{43}^{(1)}x_3 + a_{44}^{(1)}x_4 + \dots + a_{4n}^{(1)}x_n = a_{4,n+1}^{(1)} \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ a_{n2}^{(1)}x_2 + a_{n3}^{(1)}x_3 + a_{n4}^{(1)}x_4 + \dots + a_{nn}^{(1)}x_n = a_{n,n+1}^{(1)} \end{array} \right. \quad (3.30)$$

bu yerda quyidagicha belgilashlar kiritilgan:

$$a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{i1}b_{1j}, \quad i = 2, 3, 4, \dots, n, \quad j = 2, 3, 4, \dots, n+1 \quad (3.31)$$

Endi (3.30) sistemaning ikkinchi tenglamasini $a_{22}^{(1)}$ koeffitsientga bo‘lamiz (uni noldan farqli deb faraz qilamiz). So‘ngra hosil bo‘lgai sistemaning ikkinchi tenglamasini ketma-ket $a_{32}^{(1)}, a_{42}^{(1)}, \dots, a_{n2}^{(1)}$ ga ko‘paytiramiz va sistemaning uchinchi, ..., n-tenglamalaridan mos ravishda navbatil bilan ayiramiz.

$$\left\{ \begin{array}{l} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 + \dots + b_{1n}x_n = b_{1,n+1} \\ x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + b_{24}^{(1)}x_4 + \dots + b_{2n}^{(1)}x_n = b_{2,n+1}^{(1)} \\ a_{33}^{(2)}x_3 + a_{34}^{(2)}x_4 + \dots + a_{3n}^{(2)}x_n = a_{3,n+1}^{(2)} \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ a_{n3}^{(2)}x_3 + a_{n4}^{(2)}x_4 + \dots + a_{nn}^{(2)}x_n = a_{n,n+1}^{(2)} \end{array} \right. \\ b_{ij}^{(1)} = \frac{a_{ij}^{(1)}}{a_{22}^{(1)}}, \quad i = 2, \quad j = 3, 4, \dots, n+1; \\ a_{ij}^{(2)} = a_{ij}^{(1)} - a_{i2}^{(1)}b_{1j}^{(1)}, \quad i = 3, 4, \dots, n, \quad j = 3, 4, \dots, n+1 \quad (3.32)$$

Bu jarayonni davom ettirib quyidagi,

$$\left\{ \begin{array}{l} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + \dots + b_{1n}x_n = b_{1,n+1} \\ x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + \dots + b_{2n}^{(1)}x_n = b_{2,n+1}^{(1)} \\ x_3 + \dots + b_{3n}^{(2)}x_n = b_{3,n+1}^{(2)} \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ x_n = b_{n,n+1}^{(n-1)} \end{array} \right. \quad (3.33)$$

uchburchak sistemaga kelamiz, bujarayonni olg‘a borish deyiladi. Uchburchak sistema bo‘lgai holda so‘nggi(oxirgi) tenglamadan $x_n = b_{n,n+1}^{(n-1)}$ ni topamiz; so‘ngra x_n ning qiymatini oldingi tenglamaga qo‘yib, x_{n-1} ni topamiz va hokazo, bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi bu jarayonni orqaga qatish deyiladi.

$$\left\{ \begin{array}{l} x_n = b_{n,n+1}^{(n-1)} \\ x_{n-1} = b_{n-1,n+1}^{(n-2)} - b_{n-1,n}^{(n-2)}x_n \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ x_4 = b_{4,n+1}^{(3)} - b_{45}^{(3)}x_5 - \dots - b_{4n}^{(3)}x_n \\ x_3 = b_{3,n+1}^{(2)} - b_{34}^{(2)}x_4 - \dots - b_{3n}^{(2)}x_n \\ x_2 = b_{2,n+1}^{(1)} - b_{23}^{(1)}x_3 - \dots - b_{2n}^{(1)}x_n \\ x_1 = b_{1,n+1} - b_{12}x_2 - b_{13}x_3 - \dots - b_{1n}x_n \end{array} \right.$$

Endi yuqoridagi Gauss usulida **bajarilgan amallarning formulalarini ko‘rsatish uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasining yechimini topish tartibini ko‘ramiz:**

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 + a_{14}x_4 = a_{15}, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 + a_{24}x_4 = a_{25}, \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 + a_{34}x_4 = a_{35}, \\ a_{41}x_1 + a_{42}x_2 + a_{43}x_3 + a_{44}x_4 = a_{45}. \end{cases} \quad (3.34)$$

Aytaylik, berilgan sistemada $a_{11} \neq 0$ (etakchi element) bo'lsin, aks holda tenglamalarning o'rinnlarini almashtirib, x_1 oldidagi koeffitsienti noldan farqli bo'lgan tenglamani birinchi o'ringa ko'chiramiz.

Sistemaning birinchi tenglamasining barcha koeffitsientlarini a_{11} ga bo'lib,

$$x_1 + \frac{a_{12}}{a_{11}}x_2 + \frac{a_{13}}{a_{11}}x_3 + \frac{a_{14}}{a_{11}}x_4 = \frac{a_{15}}{a_{11}}$$

bundan

$$x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 = b_{15} \quad (3.35)$$

birinchi yetakchi tenglamani hosil qilamiz, bu yerda.

$$b_{1j} = \frac{a_{1j}}{a_{11}}, \quad (j = 2, 3, 4, 5)$$

Bu topilgan (3.35) tenglamadan foydalanib, yuqoridagi sistemaning qolgan tenglamalaridagi x_1 qatnashgan hadni yo'qotish mumkin. Buning uchun (3.35) tenglamani ketma-ket a_{21} , a_{31} va a_{41} larga ko'paytirib, mos ravishda sistemaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchи tenglamalaridan ayiramiz.

Natijada quyidagi uchta tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.

$$\begin{cases} a_{22}^{(1)}x_2 + a_{23}^{(1)}x_3 + a_{24}^{(1)}x_4 = a_{25}^{(1)}, \\ a_{32}^{(1)}x_2 + a_{33}^{(1)}x_3 + a_{34}^{(1)}x_4 = a_{35}^{(1)}, \\ a_{42}^{(1)}x_2 + a_{43}^{(1)}x_3 + a_{44}^{(1)}x_4 = a_{45}^{(1)}. \end{cases} \quad (3.36)$$

bu sistemadagi $a_{ij}^{(1)}$ koeffitsientlar

$$a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{11}b_{1j}, \quad (i=2,3,4; j=2,3,4,5) \quad (3.37)$$

formula yordamida hisoblanadi. Endi (3.36) sistemaning birinchi tenglamasini etakchi element $a_{22}^{(1)} \neq 0$ ga bo'lib,

$$x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + b_{24}^{(1)}x_4 = b_{25}^{(1)} \quad (3.38)$$

ikkinchi etakchi tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$b_{2j}^{(1)} = \frac{a_{2j}^{(1)}}{a_{22}^{(1)}}, \quad (j = 3, 4, 5)$$

(3.38) tenglama yordamida (3.36) sistemaning keyingi tenglamalaridan x_2 ni, yuqoridagidek, qoida asosida, yo'qotamiz va quyidagi tenglamalar sistemasini topamiz:

$$\begin{cases} a_{33}^{(2)}x_3 + a_{34}^{(2)}x_4 = a_{35}^{(2)}, \\ a_{43}^{(2)}x_3 + a_{44}^{(2)}x_4 = a_{45}^{(2)}. \end{cases} \quad (3.39)$$

bu yerda

$$a_{ij}^{(2)} = a_{ij}^{(1)} - a_{12}^{(1)}b_{2j}^{(1)}, \quad (i = 3, 4, j = 3, 4, 5) \quad (3.40)$$

(3.39) sistemaning birinchi tenglamasini etakchi element $a_{33}^{(2)}$ ga bo'lib,

$$x_3 + b_{34}^{(2)}x_4 = b_{35}^{(2)} \quad (3.41)$$

uchinchi etakchi tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$b_{3j}^{(2)} = \frac{a_{3j}^{(2)}}{a_{33}^{(2)}}, \quad (j = 4, 5)$$

Bu (3.41) tenglama yordamida (3.39) sistemaning ikkinchi tenglamasidan x_3 ni yo'qotamiz. Natijada

$$a_{44}^{(3)}x_4 = a_{45}^{(3)}, \quad x_4 = b_{45}^{(3)} = \frac{a_{45}^{(3)}}{a_{44}^{(4)}},$$

tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$a_{4j}^{(3)} = a_{4j}^{(2)} - a_{43}^{(2)} b_{3j}^{(2)} \quad (j=4,5) \quad (3.42)$$

SHunday qilib, biz qarayotgan sistemani unga ekvivalent bo'lgan quyidagi uchburchakli chiziqli tenglamalar sistemasiga olib keldik.

$$\left. \begin{array}{l} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 = b_{25} \\ x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + b_{24}^{(1)}x_4 = b_{25}^{(1)} \\ x_3 + b_{34}^{(2)}x_4 = b_{35}^{(2)} \\ x_4 = b_{45}^{(3)} \end{array} \right\} \quad (3.43)$$

Bu (3.43) sistemadan foydalanib, ketma -ket quyidagilarni topamiz:

$$\left. \begin{array}{l} x_4 = \frac{a_{45}^{(3)}}{a_{44}^{(3)}} \\ x_3 = b_{35}^{(2)} - b_{34}^{(2)}x_4 \\ x_2 = b_{25}^{(1)} - b_{24}^{(1)}x_4 - b_{23}^{(1)}x_3 \\ x_1 = b_{15} - b_{14}x_4 - b_{13}x_3 - b_{12}x_2 \end{array} \right\} \quad (3.44)$$

Demak, yuqorida keltirilgan Gauss usulida sistemaning yechimini topish 2 qismdan iborat bo'lar ekan.

Olg'a borish – (3.34) sistemani uchburchakli (3.43) sistemaga keltirish

Ortga qaytish- (3.44) formulalar yordamida noma'lumlarni topish.

Gauss usuli bilan n noma'lumli n ta chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechish uchun bajariladigan arifmetik amallarning miqdori quyidagidan iborat:

$$\begin{aligned} (n^3+3n^2-n)/3 & \text{ta ko'paytirish va bo'lish,} \\ (2n^3+3n^2-5n)/6 & \text{ta qo'shish.} \end{aligned}$$

Xususan:

$$\begin{aligned} n=2 \text{ da } & (2^3+3*2^2-2)/3=6 \text{ ko'paytirish va bo'lish} \\ & (2*2^3+3*2^2-5*2)/6=3 \text{ qo'shish,} \\ n=3 \text{ da } & (3^3+3*3^2-3)/3=17 \text{ ko'paytirish va bo'lish} \\ & (2*3^3+3*3^2-5*3)/6=11 \text{ qo'shish.} \end{aligned}$$

3.5-masala. Berilgan quyidagi sistemani Gauss usulida yechamiz. Buning uchun noma'lumlarni ketma-ket yo'qotamiz. Etakchi satr uchun birinchi tenglamani tanlasak bo'ladi, chunki $a_{11}=2 \neq 0$.

$$\left. \begin{array}{l} 2x_1 + 7x_2 + 13x_3 = 0 \\ 3x_1 + 14x_2 + 12x_3 = 18 \\ 5x_1 + 25x_2 + 16x_3 = 39 \end{array} \right\} \quad (3.45)$$

Gauss usuli yordamida yechish uchun sistema koeffitsientlarini quyidagicha belgilaymiz:

$$\begin{array}{llll} a_{11}=2, & a_{12}=7, & a_{13}=13 & b_1=0 \quad [1] \\ a_{21}=3, & a_{22}=14, & a_{23}=12 & b_2=18 \quad [2] \\ a_{31}=5, & a_{32}=25, & a_{33}=16 & b_3=39 \quad [3] \end{array} \quad (3.46)$$

Hisoblash jarayoni quyidagicha bo'ladi.

Olg'a b o r i sh

1) (3.45) dagi tenglamaning [1] satr koeffitsientlarini $a_{11}=2$ ga bo'lamiz:

$$(1, a_{12}/a_{11}, a_{13}/a_{11}, b_1/a_{11}) = (1, 7/2, 13/2, 0/2) \quad (3.47)$$

2)(3.45) ning 2- tenglamasidagi x_1 ni yo'qotish, ya'ni x_1 koeffitsientini nolga aylantirish uchun (3.47) ni $a_{21}=3$ ga ko'paytirib, uni [2] satr eleientlaridan mos ravishda ayiramiz, ya'ni [2] –(3.47) a_{21} :

$$\begin{aligned} a^{(1)}_{21} &= a_{21} - a_{21} = 0 \\ a^{(1)}_{22} &= a_{22} - a_{21}a_{12}/a_{11} = 14 - 3(7/2) = 7/2 \\ a^{(1)}_{23} &= a_{23} - a_{21}a_{13}/a_{11} = 12 - 3(13/2) = -15/2 \\ b^{(1)}_1 &= b_1 - a_{21}b_1/a_{11} = 18 - 3(0/2) = 18 \end{aligned}$$

Demak, 2- tenglama koeffitsientlari:

$$(0, 7/2, -15/2, 18) \quad (3.48)$$

bo'ladi.

3)(3.45) ning 3- tenglamasidagi x_1 ni yo'qatish uchun (3.47) ni $a_{31}=5$ ga ko'paytirib, [3] satrdan mos ravishda ayiramiz, ya'ni [3] –(3.47) a_{31} :

$$\begin{aligned} a^{(1)}_{31} &= a_{31} - a_{31} = 0 \\ a^{(1)}_{32} &= a_{32} - a_{31}a_{12}/a_{11} = 25 - 5(7/2) = 15/2 \\ a^{(1)}_{33} &= a_{33} - a_{31}a_{13}/a_{11} = 16 - 5(13/2) = -33/2 \end{aligned}$$

$$b^{(I)}_3 = b_3 - a_{31}b_1/a_{11} = 39 - 5(0/2) = 39$$

Demak, 3- tenglama koeffitsientlari:

$$(0, 15/2, -33/2, 39) \quad (3.49)$$

bo'ladi.

Natijada topilgan yangi koeffitsientlar asosida quyidagi sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} x_1 + (7/2)x_2 + (13/2)x_3 = 0 \\ (7/2)x_2 - (15/2)x_3 = 18 \\ (15/2)x_2 - (33/2)x_3 = 39 \end{cases} \quad (3.50)$$

bu sistemaning 2-tenglamasidan x_2 noma'lumni to'ib, 3 – tenglamalaridan x_2 noma'lumni yo'qotish uchun 2-tenglamani $a^{(I)}_{22} = 7/2$ ga bo'lamiz. Bu tenglama koeffitsientlari:

$$(1, -15/7, 36/7) \quad (3.51)$$

bo'ladi. Bu (3.51) koeffitsientlardan foydalanib (3.50) sistemaning 3- tenglamasidagi x_2 ni yo'qotaimz. Buning uchun (3.51) ni 15/2 ga ko'paytirib 3-tenglama koeffitsientlardan mos ravishda ayirib quyidagi koeffitsientlar topamiz:

$$(0, -3/7, 3/7) \quad (3.52)$$

Natijada berilgan sistemani quyidagicha yozamiz:

$$\begin{cases} x_1 + (7/2)x_2 + (13/2)x_3 = 0 \\ x_2 - (15/7)x_3 = 36/7 \\ - (3/7)x_3 = 3/7 \end{cases}$$

Orqaga qaytish

Bu oxirgi sistemadagi 3- tenglamadan x_3 qiymatini to'ib bu asosida 2-tenglamadan x_2 ni topamiz. Topilgan x_2 va x_3 asosida 1- tenglamadan x_1 ni topamiz:

$$\begin{aligned} x_3 &= -1 \\ x_2 &= 36/7 + (15/7)(-1) = 21/7 = 3 \\ x_1 &= (-7/2)(3) - (13/2)(-1) = -8/2 = -4 \end{aligned}$$

Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi:

$$x_1 = -4, x_2 = 3, x_3 = -1$$

3.4-Maple 7 dasturi

Chiziqli tenglamalar sistemasini oddiy va Gauss usulida yechish(3.5- masala).

$$\begin{cases} 2x_1 + 7x_2 + 13x_3 = 0, \\ 3x_1 + 14x_2 + 12x_3 = 18, \\ 5x_1 + 25x_2 + 16x_3 = 39, \end{cases}$$

1. Oddiy usulida yechish.

```
> solve( {2*x + 7*y + 13*z = 0, 3*x + 14*y + 12*z =18, 5*x + 25*y +16*z =39}, [x, y, z]);
```

$$[[x = K 4, y = 3, z = K 1]]$$

2. Gauss usulida yechish.

```
> with(LinearAlgebra):
```

```
A := <<2,3,5>|<7,14,25>|<13,12,16>>;
```

$$A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$$

```
> B := <0,18,39>;
```

$$b := \begin{bmatrix} 0 \\ 18 \\ 39 \end{bmatrix}$$

```
> GaussianElimination(A);
```

$$\left[\begin{array}{ccc|c} 2 & 7 & 13 & \\ 0 & \frac{7}{3} & -15 & \\ 0 & 0 & \frac{-3}{7} & \end{array} \right]$$

> GaussianElimination(A,'method'='FractionFree');

$$\left[\begin{array}{ccc|c} 2 & 7 & 13 & \\ 0 & 7 & -15 & \\ 0 & 0 & -3 & \end{array} \right]$$


> ReducedRowEchelonForm(<A|b>);

$$\left[\begin{array}{cccc} 1 & 0 & 0 & -4 \\ 0 & 1 & 0 & 3 \\ 0 & 0 & 1 & -1 \end{array} \right]$$

Masaladagi berilganlar asosida ko'satilgan usulda hisoblashning algoritmini 3.5-jadvalda beramiz :

3.5-jadval

Berilganlar	Belgilashlar	
	matn bo'yicha	dastur bo'yicha
CHiziqli tenglamalar sistema koeffitsientlari	$a_{11}, a_{12}, a_{13}, a_{14}$ $a_{21}, a_{22}, a_{23}, a_{24}$ $a_{31}, a_{32}, a_{33}, a_{34}$	A(1,1), A(1,2), A(1,3), A(1,4) A(2,1), A(2,2), A(2,3), A(2,4) A(3,1), A(3,2), A(3,3), A(3,4)
CHiziqli tenglamalar sistemasini Gauss usulida hisoblash formulalari	$b_{ij} = \frac{a_{ij}}{a_{11}}, (i = 1, 2, 3, 4 ; j = 2, 3, 4, 5)$ $a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{i1} b_{1j}, (i=2, 3, 4; j=2, 3, 4, 5)$	FOR I=K+1 TO N A(K,I)=A(K,I)/A(K,K) NEXT I FOR I=K+1 TO N FOR J=K+1 TO N A(I,J)=A(I,J) - A(K,J)*A(I,K) NEXT J NEXT I,K X(N)=B(N)/A(N,N) FOR I=N-1 TO 1 STEP -1 X(I)=B(I) FOR J=I+1 TO N X(I)=X(I)-A(I,J)*X(J) NEXT J,I
CHiziqli tenglamalar sistema koeffitsientlari	$a_{11}=2, a_{12}=7, a_{13}=13, a_{14}=0$ $a_{21}=3, a_{22}=14, a_{23}=13, a_{24}=18$ $a_{31}=5, a_{32}=25, a_{33}=16, a_{34}=39$	DATA 2,7,13,0 DATA 3, 14,13,18 DATA 5,25,16,39



Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining etakchi elementini tanlash bilan Gauss usulida hisoblash dasturini beramiz.

```
10 REM----- 3.5 – DASTUR -----
12 REM GAUSS usulida tenglamalar sistemasini yechish
20 DIM A(20,20),B(20),X(20)
30 READ N
40 FOR I=1 TO N: FOR J=1 TO N
60 READ A(I,J) : NEXT J
80 READ B(I) : NEXT I
90 REM Etakchi elementni tanlash
100 FOR K=1 TO N-1
110 IF A(I,K)><0 THEN 200
120 FOR I=K+1 TO N
130 IF A(I,K)><0 THEN 160
140 NEXT I
150 PRINT “ Tenglamalar sistemasining yechimi yuk” :GOTO 440
160 FOR J=K TO N
170 A1=A(I,J): A(I,J)=A(K,J):A(K,J)=A1
180 NEXT J
190 A1=B(I): B(I)=B(K):B(K)=A1
200 FOR I=K+1 TO N
210 A(K,I)=A(K,I)/A(K,K)
220 NEXT I
230 B(K)=B(K)/A(K,K)
240 FOR I=K+1 TO N: FOR J=K+1 TO N
260 A(I,J)=A(I,J) -A(K,J)*A(I,K)
270 NEXT J
280 B(I)=B(I)-A(I,K)*B(K)
290 NEXT I,K
300 X(N)=B(N)/A(N,N)
310 FOR I=N-1 TO 1 STEP -1
320 X(I)=B(I)
330 FOR J=I+1 TO N
340 X(I)=X(I)-A(I,J)*X(J)
350 NEXT J,I
352 PRINT “ Tenglamalar sistemasining yechimi: “
360 FOR I=1 TO N
370 PRINT “ x(“;USING “##”;I;
380 PRINT “ )=”;USING “###.###”;X(I)
390 NEXT I
400 DATA 3
402 REM Tenglamalar sistemasining koeffitsientlari:
410 DATA 2,7,13,0
420 DATA 3,14,12,18
430 DATA 5,25,16,39
440 END
RUN
```

Tenglamalar sistemasining yechimi:

```
x(1)= -4.0001
x(2)= 3.0000
x(3)= -1.0000
```

Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining etakchi elementi noldan farqli bo‘lganda GAUSS usulida hisoblash dasturi:

```
4 REM----- 3.5.1 – DASTUR -----
5 REM SAVE”gauss.bas”,a
10 INPUT” nomalumlar soni N=”;n
20 DIM A(N+1, N+1),B(N, N+1),X(N)
30 REM Tenglamalar sistemasining koeffitsientlarini o‘qish:
40 FOR I=1 TO N: FOR J=1 TO N+1 :READ A(I, J)
50 NEXT J:NEXT I
60 FOR I=1 TO N:FOR J=I+1 TO N+1
```

```

70 B(I, J)=A(I, J)/A(I, I)
72 FOR K=I+1 TO N
80 A(K, J)=A(K, J)-B(I, J)*A(K, I)
90 NEXT K:NEXT J:NEXT I
100 X(N)=A(N, N+1)/A(N, N)
110 FOR I=N-1 TO 1 STEP -1
112 X(i)=B(I, N+1)
120 FOR J=I+1 TO N
130 X(I)=X(I)-X(J)*B(I, J)
140 NEXT J, I
142 PRINT " Tenglamalar sistemasining yechimi: "
150 FOR I=1 TO N:'RINT "x("I")=";X(I)
160 NEXT I
162 REM Tenglamalar sistemasining koeffitsientlari:
170 DATA 2,7,13,0
180 DATA 3,14,12,18
190 DATA 5,25,16,39
200 END
RUN
      nomalumlar soni N=? 3
      x (1) = -4
      x (2) = 3
      x (3) = -1

```

```

(*--- 3.5.1 – Paskal tili dastur ---*)
uses crt;
var
  ch:char;
  i,j,n,k:integer;
  a:array[1..4,1..5] of real;
  b:array[1..4,1..5] of real;
  x:array[1..4] of real;
begin
  clrscr;
  writeln('Chiziqli tenglamalar sistemasini echmini
Gauss usulida yechish ');
  writeln(' Nomalumlar sonini krining N=');
  readln(n);
  writeln(' sistemaning koeffitsentlarini kiriting:');
  for i:=1 to n do for j:=1 to n+1 do
  begin
    gotoxy(j*10,4+i);
    write('a('i,';',j,')=');readln(a[i,j]);
  end;
  for i:=1 to n do
  begin
    for j:=i+1 to n+1 do b[i,j]:=a[i,j]/a[i,i];
    for k:=i+1 to n+1 do
      for j:=i+1 to n+1 do a[k,j]:=a[k,j]-b[i,j]*a[k,i];
  end;
  x[n]:=a[n,n+1]/a[n,n];
  for i:=n-1 downto 1 do
  begin
    x[i]:=b[i,n+1];
    for j:=i+1 to n do x[i]:=x[i]-b[i,j]*x[j];
  end;
  writeln(' Chiziqli tenglamalar sistemasini echmi:');
  for i:=1 to n do
  begin
    gotoxy(i*15,10);
    writeln('x('i,')=',x[i]:4:2);
  end;

```

```
ch:=readkey;  
end.
```

Chiziqli tenglamalar sistemasini echmini Gauss usulida yechish
Nomalumlar sonini krining N=3
sistemaning koeffitsentlarini kriting:
 $a(1;1)=2$ $a(1;2)=7$ $a(1;3)=13$ $a(1;4)=0$
 $a(2;1)=3$ $a(2;2)=14$ $a(2;3)=12$ $a(2;4)=18$
 $a(3;1)=5$ $a(3;2)=25$ $a(3;3)=16$ $a(3;4)=39$
Chiziqli tenglamalar sistemasini echmi:
 $x(1)=-4.00$ $x(2)=3.00$ $x(3)=-1.00$

Chiziqli tenglamalar sistemasini echmini Gauss usulida hisoblashdagi jadvallarini bosmaga chiqarish bilah
yechimini topish dasturini beramiz:

```
4 REM----- 3.5.2 – DASTUR -----  
10 REM SAVE "gauss-X.bas",a  
20 DIM A(10,10),B(10),X(10)  
30 N=3'READ N  
40 FOR I=1 TO N:FOR J=1 TO N:READ A(I,J)  
50 NEXT J:READ B(I):NEXT I  
60 FOR I=1 TO N : FOR J=1 TO N  
70 GJ(I,J)=A(I,J) :NEXT J  
80 GJ(I,N+1)=B(I) : NEXT I  
90 PRINT" Berilganlar "  
100 K=0:GOSUB 420  
110 FOR K=1 TO N: M=A(K,K)  
120 FOR J=K TO N  
130 A(K,J)=A(K,J)/M :GJ(K,J)=A(K,J)  
140 NEXT J  
150 B(K)=B(K)/M :GJ(K,N+1)=B(K)  
160 FOR I=K+1 TO N: FOR J=K TO N  
170 GJ(I,J)=A(I,J)-A(K,J)*A(I,K)  
180 NEXT J  
190 GJ(I,N+1)=B(I)-A(I,K)*B(K)  
200 NEXT I  
210 FOR I=K+1 TO N :FOR J=K TO N  
220 A(I,J)=GJ(I,J):NEXT J  
230 B(I)=GJ(I,N+1):NEXT I  
240 GOSUB 420 : INPUT " ENTER ";R  
250 NEXT K  
260 X(N)=B(N)/A(N,N)  
270 FOR I=N-1 TO 1 STEP -1  
280 X(I)=B(I)  
290 FOR J=I+1 TO N  
300 X(I)=X(I)-A(I,J)*X(J)  
310 NEXT J,  
320 FOR I=1 TO N: PRINT" X("I")=";  
330 PRINT USING"#####.#####";X(I)  
340 NEXT I  
350 'DATA 3  
360 'Tenglamalar sistemasining koeffitsientlari:  
370 DATA 2, 7, 13, 0  
380 DATA 3, 14, 12, 18  
390 DATA 5, 25, 16, 39  
400 DATA  
410 GOTO 500  
420 PRINT K;"-gauss qadami ";  
430 PRINT  
440 FOR I=1 TO N: FOR J=1 TO N  
450 PRINT USING"###.###";GJ(I,J);  
460 NEXT J  
470 PRINT USING"###.###";GJ(I,N+1)  
480 NEXT I
```

490 RETURN

500 END

RUN

0 -gauss qadami
2.000 7.000 13.000 0.000
3.000 14.000 12.000 18.000
5.000 25.000 16.000 39.000

1 -gauss qadami
1.000 3.500 6.500 0.000
0.000 3.500 -7.500 18.000
0.000 7.500 -16.500 39.000

ENTER ?

2 -gauss qadami
1.000 3.500 6.500 0.000
0.000 1.000 -2.143 5.143
0.000 0.000 -0.429 0.429

ENTER ?

3 -gauss qadami
1.000 3.500 6.500 0.000
0.000 1.000 -2.143 5.143
0.000 0.000 1.000 -1.000

ENTER ?

X(1)= -3.99994
X(2)= 2.99999
X(3)= -1.00000

Ok

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar.

1. Chiziqli tenglama ta’rifini bering.
2. Qanday chiziqli tenglamalar sistemasi birgalikda deyiladi?
3. Chiziqli tenglamalar sistemasining tuzilishi va yozilishi qanday?
4. Sistema yechimining yagonaligi.
5. Aniq va taqribiy yechimlar farqini tushuntiring.
6. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli nimalardan iborat?
7. Chiziqli tenglamalar sistemasini Gauss usulida yechish.
8. Etakchi element va etakchi tenglamaning vazifasi.
9. Noma’lumlarni ketma-ket yo‘qotishda yangi koeffitsientlarni aniqlash.
10. Gauss usulida chiziqli tenglamalar sistemasining yechimini topishda bajariladigan ko‘paytirish, bo‘lish va qo‘shish amallari sonini aniqlash.

6-MA`RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.	Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 40-45 nafar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma`ruza, муаммоли маъруза
3.	Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	1. MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari. 2. M-fayllar bilan ishlash.
4.	O'quv mashg'ulotining maqsadi:	MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari va M-fayllar bilan ishlash to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.
5.	Pedagogik vazifalar: - MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari va M-fayllar bilan ishlash to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish va tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none">➤ MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari ko'rsatib beradi..➤ M-fayl tushunchasini bayon qiladi.➤ MATLAB da dasturlashda ishlataladigan buyruqlarni sanab beradi.➤ If, for, do, while, function buyruqlarining vazifalarini tushuntiradi.
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, aqliy hujum, klaster, 3*4 texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

6-MA`RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari ko'rsatib beradi.. • M-fayl tushunchasini bayon qiladi. • MATLAB da dasturlashda ishlataladigan buyruqlarni sanab beradi. • If, for, do, while, function buyruqlarining vazifalarini tushuntiradi. <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari va M-fayllar bilan ishlash to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'yaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi.</p> <p>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi.</p> <p>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: MATLAB dasturlash tilining boshqaruvchi konstruksiyalari va M-fayllar tushunchasiga oid klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

6 – MA’RUZA.

CHIZIQLI ALGEBRAIK VA TRANSENDENT TENGLAMALAR SISTEMALARINI SONLI YECHIPISH USULLARINI ALGORITMLASH. ITERATSIYA VA ZAYDEL USULLARI

Reja:

1. Chiziqli tenglamalar sistemasini iteratsiya usulida yechish. Sodda iteratsiya usuli.
2. Gauss – Zeydelning iteratsiya usuli.

1. Chiziqli tenglamalar sistemasini iteratsiya usulida yechish. Sodda iteratsiya usuli

Aytaylik,

$$A\vec{x} = \vec{b} \quad (3.58)$$

ko‘rinishdagi chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan bo‘lsin, bu chiziqli tenglamalar sistemasini biror usul bilan

$$\vec{x} = C\vec{x} + \vec{f}$$

ko‘rinishga keltiramiz.

Bu yerda C -matriksa, \vec{f} - ustun vektor.

Ixtiyorli boshlang‘ich

$$\vec{x}^o = \begin{pmatrix} x_1^{(0)} \\ x_2^{(0)} \\ \vdots \\ x_n^{(0)} \end{pmatrix}$$

vektordan foydalanib quyidagi iteratsiya jarayonini tuzamiz:

$$\vec{x}^{(k+1)} = C\vec{x}^{(k)} + \vec{f} \quad (k = 0, 1, 2, \dots)$$

yoki buning yoyilmasi

$$\begin{cases} x_1^{(k+1)} = c_{11}x_1^{(k)} + c_{12}x_2^{(k)} + \dots + c_{1n}x_n^{(k)} + f_1, \\ x_2^{(k+1)} = c_{21}x_1^{(k)} + c_{22}x_2^{(k)} + \dots + c_{2n}x_n^{(k)} + f_2, \\ \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \quad \dots \\ x_n^{(k+1)} = c_{n1}x_1^{(k)} + c_{n2}x_2^{(k)} + \dots + c_{nn}x_n^{(k)} + f_n. \end{cases} \quad (3.59)$$

Bu jarayonni bajara borib quyidagi vektorlar ketma-ketligiga olamiz:

$$\vec{x}_1^{(1)}, \vec{x}_1^{(2)}, \dots, \vec{x}_1^{(m)}, \dots$$

Iteratsiya usulining yaqinlashish shartlari

Fundamental adabiyotlarda bu jarayon ixtiyorli $\vec{x}^{(0)}$ boshlang‘ich vektor olinganda yuqorida olingan ketma-ketlik yagona yechimiga yaqinlashishi uchun S matriksa elementlari

$$\sum_{j=1}^n |c_{ij}| \leq \alpha < 1, \quad (i = 1, 2, \dots, n) \quad (3.60)$$

yoki

$$\sum_{i=1}^n |c_{ij}| \leq \beta < 1, \quad (j = 1, 2, \dots, n) \quad (3.61)$$

shartlardan birortasini qanoatlantirishi etarli ekanligi isbotlangan. Sistemaning aniq yechimi cheksiz davom etadigan jarayon natijasida topiladi, yuqoridagi ketma-ketlikning $\vec{x}^{(k)}$ vektori taqribiy yechimni ifodalaydi. $\vec{x}^{(k)}$ taqribiy yechim xatoligini quyidagi formulalardan biri yordamida baholash mumkin:

agar (3.27) shart bajarilsa,

$$\left| x_i - x_i^{(k)} \right| \leq \frac{\alpha}{1-\alpha} \max_{j=1,2,\dots,n} \left| x_j^{(k)} - x_j^{(k-1)} \right| \quad (3.62)$$

yoki (3.61) shart bajarilsa,

$$\left| x_i - x_i^{(k)} \right| \leq \frac{\beta}{1-\beta} \sum_{j=1}^n \left| x_j^{(k)} - x_j^{(k-1)} \right| \quad (3.63)$$

bu baholardan mos ravishda quyidagilar kelib chiqadi:

$$\max \left| x_i - x_i^{(k)} \right| \leq \frac{\alpha}{1-\alpha} \max \left| x_i^{(k)} - x_i^{(k-1)} \right| \quad (3.64)$$

yoki

$$\sum_{i=1}^n \left| x_i - x_i^{(k)} \right| \leq \frac{\beta}{1-\beta} \sum_{j=1}^n \left| x_j^{(k)} - x_j^{(k-1)} \right| \quad (3.65)$$

yuqoridagi baholashlar o'ng tamoni berilgan aniqlikka erishilganligini bildirishi bilan jarayonni to'xtatamiz. Boshlang'ich vektor $\vec{x}_1^{(0)}$, umuman, ixtiyoriy tanlanishi mumkin. Ba'zan uni $\vec{x}^0 = \vec{f}$ kabi tanlanadi.

Berilgan (3.58) sistemani (3.59) ko'rinishga keltirishning har xil usullari mavjud bo'lib, ulardan birini tanlashda, asosan, (3.60) yoki (3.61) shartlardan atiga bittasining bajarilishiga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Quyida bunday usullardan ba'zi birlarini misollar orqali keltiramiz.

Berilgan (3.58) sistemadagi A matritsaning diagonal elementlari noldan farqli bo'lsa, ya'ni

$$a_{ii} \neq 0 \quad (i=1,2, \dots, n)$$

(3.58) sistemani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} x_1 &= \frac{1}{a_{11}} (b_1 - a_{12}x_2 - \dots - a_{1n}x_n) \\ x_2 &= \frac{1}{a_{22}} (b_2 - a_{21}x_1 - a_{22}x_2 - \dots - a_{2n}x_n) \\ &\dots \\ x_n &= \frac{1}{a_{nn}} (b_n - a_{n1}x_1 - a_{n2}x_2 - \dots - a_{n(n-1)}x_{n-1}) \end{aligned} \right\} \quad (3.66)$$

Bu holda C matritsaning elementlarini $C_{ij} = -a_{ij}/a_{ii}$ ($i \neq j$), $c_{ii} = 0$ kabi aniqlab (3.60) va (3.61) shartlarni quyidagicha yozamiz:

$$\sum_{j=1}^n \left| \frac{a_{ij}}{a_{ii}} \right| \leq \alpha < 1 \quad (i = 1, 2, \dots, n) \quad (3.67)$$

$i \neq j$

$$\sum_{i=1, i \neq j}^n \left| \frac{a_{ij}}{a_{ii}} \right| \leq \beta < 1 \quad (j = 1, 2, \dots, n) \quad (3.68)$$

A matritsaning diagonal elementlari

$$\left| a_{ii} \right| > \sum_{j \neq i} \left| a_{ij} \right| \quad (i = 1, 2, \dots, n) \quad (3.69)$$

shartni qanoatlantirganda, (3.67), (3.68) shartlar bajariladi.

Umuman olganda, asosiy matritsasi maxsus bo'limgan chiziqli tenglamalar sistemasini yechish uchun yaqinlashuvchi iteratsiya usuli mavjud bo'ladi. Lekin bu usullarni amaliy hisoblashlarda doim ham qo'llab bo'lavermaydi.

Agar iteratsiya usuli yaqinlashuvchi bo'lsa, u boshqa usullarga qaraganda quyidagi afzalliklarga ega ekanligini payqash mumkin:

1)iteratsiya etarlicha tez yaqinlashuvchi bo'lib, sistemani berilgan aniqlikda yechish uchun n dan kam iteratsiya kerak bo'lgan holda hisoblash vaqtidan yutamiz, chunki bitta iteratsiya uchun zarur bo'lgan arifmetik amallar soni n^2 ga . Gauss usulida esa bu son n^3 ga 'ro'ortsional bo'ladi;

2)iteratsiya usulida yaxlitlash xatoligi Gauss usulidagidan kam bo'ladi. Bundan tashqari iteratsiya usuli O'z-o'zini to'g'rilovchi bo'lib, hisoblashdagi ba'zi xatolar natijaga ta'sir qilmaydi. CHunki, iteratsiya jarayonidagi har bir yaqinlashishni yangi boshlang'ich vektor deb qarash mumkin;

3) iteratsiya usuli bilan ma'lum sondagi koeffitsientlari nolga teng bo'lgan sistemalarni yechish qulay bo'ladi;

4) iteratsiya jarayonini kompyutyerda hisoblash uchun dasturlash juda qulay.

Bu usulni quyidagi misol yordamida tushuntiramiz.

3.17-masala. Oddiy iteratsiya usuli bilan quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini $\varepsilon=10^{-3}$ aniqlikda yeching.

$$\left. \begin{array}{l} 20.9x_1 + 1.2x_2 + 2.1x_3 + 0.9x_4 = 21.70 \\ 1.2x_1 + 21.2x_2 + 1.5x_3 + 2.5x_4 = 27.46 \\ 2.1x_1 + 1.5x_2 + 19.8x_3 + 1.3x_4 = 28.76 \\ 0.9x_1 + 2.5x_2 + 1.3x_3 + 32.1x_4 = 49.72 \end{array} \right\} \quad (3.70)$$

Yechish. Berilgan (3.70) sistemani (3.66) kabi ko'rinishga keltiramiz:

$$x_1 = \frac{1}{20.9}(21.7 - 1.2x_2 - 2.1x_3 - 0.9x_4)$$

$$x_2 = \frac{1}{21.2}(27.46 - 1.2x_1 - 1.5x_3 - 2.5x_4)$$

$$x_3 = \frac{1}{19.8}(28.76 - 2.1x_1 - 1.5x_2 - 1.3x_4)$$

$$x_4 = \frac{1}{32.1}(49.72 - 0.9x_1 - 2.5x_2 - 1.3x_3)$$

hosil bo'lgan sistemaning koeffitsientlari (3.67) shartni qanoatlantirishini tekshiramiz.

$$\sum_{j \neq 1} |C_{1j}| \approx 0.20 < 1, \quad \sum_{j \neq 2} |C_{2j}| \approx 0.24 < 1,$$

$$\sum_{j \neq 3} |C_{3j}| \approx 0.25 < 1, \quad \sum_{j \neq 4} |C_{4j}| \approx 0.15 < 1,$$

iteratsiya jarayoni yaqinlashuvchi bo'lib, oxirgildan $\alpha = 0.25 < 1$ ekanligini olamiz. Bunda $\frac{\alpha}{1-\alpha} = \frac{1}{3}$

bo'ladi. Sistemaning ozod hadlarini boshlang'ich $\bar{x}^{(0)}$ vektorning mos elementlari uchun qabul qilamiz, ya'ni

$$\bar{x}^{(0)} = \begin{pmatrix} 21.7/20.9 \\ 27.46/21.2 \\ 28.76/19.8 \\ 49.72/32.1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1,04 \\ 1,03 \\ 1,45 \\ 1,55 \end{pmatrix}$$

Hisoblash jarayonini

$$\max \left| x_i^{(k)} - x_i^{(k-1)} \right| \leq \frac{0.001}{1/3}, \quad (i = 1, 2, 3, 4)$$

shart bajarilguncha davom ettiramiz.

Hisoblashni ketma-ket bajara borib, quyidagilarni olamiz:

K=1 da

$$x_1^{(1)} = \frac{1}{20.9}(21.7 - 1.248 - 2.175 - 3.875) = 0.75$$

$$x_2^{(1)} = \frac{1}{21.2}(27.46 - 1.248 - 2.175 - 3.875) = 0.95$$

$$x_3^{(1)} = \frac{1}{19.8}(28.76 - 2.184 - 1.95 - 2.015) = 1.14$$

$$x_4^{(1)} = \frac{1}{32.1}(49.72 - 0.936 - 3.25 - 1.885) = 1.36$$

$$\max \left| x_i^{(1)} - x_i^{(0)} \right| = \max \{ 0.29, 0.08, 0.34, 0.19 \} > \frac{0.001}{1/3}.$$

K=2 bo'lganda

$$x_1^{(2)} = \frac{16.942}{20.9} = 0.8106, \quad x_3^{(2)} = \frac{23.992}{19.8} = 1.2117$$

$$x_2^{(2)} = \frac{21.450}{21.2} = 1.0118, \quad x_4^{(2)} = \frac{45.1888}{32.1} = 1.4077$$

$$\max \left| x_i^{(2)} - x_i^{(1)} \right| = \max \{ 0.0606, 0.0618, 0.0717, 0.0477 \} > \frac{0.001}{1/3} = 3 \cdot 0.001$$

K=3 bo'lganda

$$x_1^{(3)} = \frac{16.67434}{20.9} = 0.7978, \quad x_3^{(3)} = \frac{23.71003}{19.8} = 1.1975$$

$$x_2^{(3)} = \frac{21.1503}{21.2} = 0.9977, \quad x_4^{(3)} = \frac{44.88575}{32.1} = 1.3983$$

$$\max|x_i^{(3)} - x_i^{(2)}| = \max |0.0128; 0.0113; 0.0112; 0.0072| > \frac{0.001}{1/3} = 3 \cdot 0.001$$

K=4 bo‘lganda

$$x_1^{(4)} = \frac{16.7295}{20.9} = 0.8104, \quad x_3^{(4)} = \frac{23.7703}{19.8} = 1.2005$$

$$x_2^{(4)} = \frac{21.2106}{21.2} = 1.0005, \quad x_4^{(4)} = \frac{44.9510}{32.1} = 1.4003$$

$$\max|x_i^{(4)} - x_i^{(3)}| = \max |0.0126; 0.0028; 0.0030; 0.0020| > 3 \cdot 0.001.$$

K=5 bo‘lganda

$$x_1^{(5)} = \frac{16.71809}{20.9} = 0.7999, \quad x_3^{(5)} = \frac{23.7582}{19.8} = 1.1999$$

$$x_2^{(5)} = \frac{21.19802}{21.2} = 0.9999, \quad x_4^{(5)} = \frac{44.93774}{32.1} = 1.3999$$

$$\max|x_i^{(5)} - x_i^{(4)}| = \max |0.0105; 0.0006; 0.0006; 0.0004| > 3 \cdot 0.001.$$

$$|x_1^{(4)} - x_1^{(5)}| = 0.0105, \quad |x_3^{(4)} - x_3^{(5)}| = 0.0006$$

$$|x_2^{(4)} - x_2^{(5)}| = 0.0006, \quad |x_4^{(4)} - x_4^{(5)}| = 0.0004$$

K=6 uchun hisoblash kerak:

$$x_1^{(6)} = \frac{16.7204}{20.9} = 0.8000; \quad x_3^{(6)} = \frac{23.7604}{19.8} = 1.2000;$$

$$x_2^{(6)} = \frac{21.2004}{21.2} = 1.0000; \quad x_4^{(6)} = \frac{44.9404}{32.1} = 1.4000;$$

$$\max|x_i^{(6)} - x_i^{(5)}| = \max |0.0001; 0.0001; 0.0001| < 3 \cdot 0.001$$


Demak, sistemaning yechimi

$$x_1=0.8000, x_2=1.0000, x_3=1.2000, x_4=1.4000.$$

3.9 - Maple 7 dasturi

$$y = \frac{x-b}{a-b} y_0 + \frac{x-a}{b-a} y_1$$

3. Takribiy differensialash formulasini x_i - nuktalar tablisada berilganda aniklang:

$$y'(x_0) = \frac{1}{h} \left(\Delta y_0 - \frac{\Delta^2 y_0}{2} + \frac{\Delta^3 y_0}{3} - \frac{\Delta^4 y_0}{4} + \dots \right)$$

$$y'(x_0) = \frac{1}{h} \left(\Delta y_0 - \frac{\Delta^3 y_0}{3} - \frac{\Delta^5 y_0}{5} - \dots \right)$$

$$y'(x_0) = \left(\Delta y_0 + \frac{\Delta^2 y_0}{2} - \frac{\Delta^3 y_0}{3} + \frac{\Delta^4 y_0}{4} - \frac{\Delta^5 y_0}{5} + \dots \right)$$

$$y'(x_0) = \frac{1}{h} \left(\frac{\Delta^2 y_0}{2} + \frac{\Delta^4 y_0}{4} - \frac{\Delta^6 y_0}{6} + \dots \right)$$

4. Uchta nukta uchun Simpson formulasini kursating:

$$\int_a^b f(x) dx \approx \frac{b-a}{6} \left[f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b) \right]$$

$$\int_a^b P(x) dx = \frac{b-a}{3} [f_0 + f_3 + 4f_2 + 2f_1]$$

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{(b-a)}{2} [f_0 + f_3 + f_1]$$

$$\int_a^b f(x)P(x) dx = \frac{3(b-a)}{2} [f_0 + 4f_2 + f_1]$$

5. Gaussning 1- interpolyasion formulasini kursating:

$$P(x) = Y_0 + q \Delta Y_0 + \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 Y_{-1} + \frac{(q+1)^{[3]}}{3!} \Delta^3 Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = Y_{-1} + q \Delta Y_0 + \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 Y_{-1} + \frac{(q+1)^{[3]}}{3!} \Delta^3 Y_{-2} + \dots$$

$$P(x) = Y_1 + q \Delta Y_1 + \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = Y_0 + q \Delta Y_1 + \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 Y_0 + \dots$$

6. Chebyshev kvadratur formulasini aniklang:

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{n} f(x_i)$$

$$\int_a^b f(x) dx = \sum_{i=1}^n f(x_i)$$

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n f(x_i)$$

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{a+b}{n} \sum_{i=1}^n f(x_i)$$

7. Stirling interpolasyon formulasini kursating:

$$P(x) = Y_0 + q \frac{\Delta Y_{-1} + \Delta Y_0}{2} + \frac{q^{[2]}}{2} \Delta^2 Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = Y_0 + q \frac{\Delta Y_0 + \Delta Y_1}{2} + \frac{(q+1)^2}{2} \Delta Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = Y_0 + q \frac{\Delta Y_1 + \Delta Y_0}{2} + \frac{q^3}{2} \Delta^2 Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = Y_0 + q \frac{\Delta Y_1 + \Delta Y_1}{2} + \frac{q}{2} \Delta^2 Y_{-1} + \dots$$

8. Bessel interpolasyon formulasini kursating:

$$P(x) = \frac{Y_0 + Y_1}{2} + (q - \frac{1}{2}) \Delta Y_0 + \frac{q(q-1)}{2} \cdot \frac{\Delta^2 Y_{-1} + \Delta^2 Y_0}{2} + \dots$$

$$P(x) = \frac{Y_1 + Y_2}{2} + q^2 \Delta Y_0 + \frac{q(q+1)}{2} \Delta Y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = \frac{Y_0 + Y_1}{2} + q \Delta Y_0 + \frac{q(q+1)}{2} \cdot \frac{\Delta Y_{-1} + \Delta Y_0}{2} + \dots$$

$$P(x) = \frac{Y_0}{2} + q \Delta Y_0 + \frac{q^2}{2} \Delta Y_{-1} + \dots$$

9. Lagranj interpolasyon kupyadini kursating:

$$Z_n(x) = \sum_{j=0}^n f(x_j) \prod_{i=j}^n \frac{x - x_i}{x_j - x_i}$$

$$Z_n(x) = \sum_{j=0}^n f(x_j) \prod_{i=j}^n \frac{x - x_i}{x_j - x_i}$$

$$Z_n(x) = \sum_{j=0}^n f(x_j) \prod_{i=j}^n \frac{x_j - x_i}{x - x_i}$$

$$Z_n(x) = \sum_{j=0}^n f(x_j) \prod_{i=j}^n \frac{x - x_j}{x_j - x_i}$$

10. A matrisaning xos kupyadini kursating:

$$P(\lambda) = \lambda^n - P_1 \lambda^{n-1} - P_2 \lambda^{n-2} - \dots - P_n$$

$$P(\lambda) = P_1 \lambda - P_2 \lambda^2 - \dots - P_n \lambda^n$$

$$P(\lambda) = \lambda_1 - \lambda_2 P_2 + \lambda_3 P^3 + \dots + \lambda_n P^n$$

$$P(\lambda) = \lambda_1 - \lambda_2 P_2 + \lambda_3 P^3 + \dots + \lambda_n P^n$$

11. Nyutonning 2-chi interpolasiyion formulasini kursating:

$$P_n(x) = Y_n + q \Delta Y_{n-1} + \frac{q(q+1)}{2!} \Delta^2 Y_{n-2} + \dots$$

$$P_n(x) = Y_n + (q-1) \Delta Y_n + \frac{q(q-1)}{2!} \Delta^2 Y_{n-1} + \dots$$

$$P_n(x) = Y_{n-1} + q \Delta Y_n + \frac{q(q-1)}{2!} \Delta^2 Y_{n-2} + \dots$$

$$P_n(x) = Y_n + q \Delta Y_n + \frac{q(q+1)}{2!} \Delta^2 Y_{n-1} + \dots$$

12. Agar $f'(x) = 0$ tenglamani grafigini chizish kiyin bulsa, u vaktida tenglamani kaysi formada yozish mumkin : $f'(x) = (2x-1)2^x - 1 = 0$

$$2x-1=2^{-x}$$

$$2x \cdot 2^{-x} = 2x^x + 1$$

$$2x-1=2^{-x}$$

$$2x+1=1+2^x$$

13. Interpolasiyalash jarayonining kaysi xolatida rasional funksiyalar sinfi olinadi:

Funksiya berilgan nuktalarda cheksizga aylanadigan bulsa.

Chizikli funksiyalar bulsa

Chizikli bulmagan funksiyalar bulsa

Davriy funksiyalar bulsa

14. M_{n-1}^{-1} matrisa kaysi kurinishiga ega:

$$M_{n-1}^{-1} = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ a_1 & a_{12} & a_{13} & \dots & a_{1,n-1} & a_{1n} \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & 0 \end{pmatrix}$$

$$M_{n-1}^{-1} = \begin{pmatrix} P_1 - \lambda & P_2 & \dots & P_n \\ 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

$$M_{n-1}^{-1} = A^{-1}$$

$$M_{n-1}^{-1} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

15. Interpolasiyalash algebraik deyiladi, agar ...

Darajali kupxadlar olinsa

Algebraik funksiya olinsa

Transendent funksiya olinsa

Rasional funksiya olinsa

16. Agar davriy funksiya bulsa, $\{R(x)\}$ sinfi sifatida kaysi funksiyalar sinfi olinadi:

Trigonometrik funksiyalar

Chizikli funksiyalar

Davriy bulmagan funksiyalar olinsa

Chizikli bulmagan funksiyalar

19. Trapeziya formulasining koldik xadimi aniklang: $\xi \in [x_i, x_i + h]$

$$R = -\frac{h^3}{12} y''(\xi)$$

$$R = -\frac{h^4}{12} y''(\xi)$$

$$R = -\frac{h^2}{6} y'''(\xi)$$

$$R = -\frac{h^3}{12} y''(\xi)$$

20. Teskari matrisani topish formulasini kursating:

$$A^{-1} = \frac{1}{\Delta} \begin{pmatrix} A_{11} A_{22}, \dots, A_{nn} \\ A_{21} A_{32}, \dots, A_{nn} \\ \vdots \\ A_{n1} A_{n2}, \dots, A_{nn} \end{pmatrix}$$

$$A^{-1} = \begin{pmatrix} A_{11} A_{22}, \dots, A_{nn} \\ A_{nn} A_{22}, \dots, A_{nn} \end{pmatrix}$$

$$A^{-1} = A^*$$

$$A^{-1} = E$$

21. Kaysi shart bajarilganda Nyutonning 2-chi interpolasion formulasini kullash kulay:

Agar $x = x_0$ va $x = x_1$ ga yakim bulsa

Agar $x \geq x_0$ bulsa va $x = x_0$ ga yakim

Agar $x \leq x_0$ bulsa va $x = x_0$ ga yakim buladi

Agar $x \geq x_n$ bulsa va $x = x_n$ ga yakim buladi

22. Zeydel metodining yakintashish shartini kursating:

$$\max_i \sum_{j \neq i} \left| \frac{a_j}{a_i} \right| < 1 \quad \max_j \sum_{i \neq j} \left| \frac{a_i}{a_j} \right| < 1$$

$$|x_i - x_i^{(k)}| \leq \frac{\alpha}{1-\alpha}$$

$$\max |x_i - x_i^{(k)}| \leq \frac{\alpha}{1-\alpha} \max |x_i^{(k)}|$$

$$\sum_{j \neq i} |\alpha_j| \leq \alpha < 1, \quad \sum_{i \neq j} |\alpha_j| \leq \beta < 1$$

23. Krulov metodi bilan y_i larni topish formulasini kursating:

$$y_i^{(n)} = \sum_{j=1}^n a_j y_j^{(n-1)}$$

$$y_i^{(n)} = \sum_{j=1}^n a_j$$

$$y_i^{(n)} = \sum_{i=1}^n y_j^{(n-1)}$$

$$y_i^{(n)} = a_i y_i$$

24. Gaussning 1-interpolyasion formulasini kursating:

$$P(x) = y_0 + q\Delta y_0 + \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 y_{-1} + \frac{(q+1)^{[3]}}{3!} \Delta^3 y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = \frac{q^{[2]}}{2!} \Delta^2 y_{-1} + \frac{(q+1)^{[3]}}{3!} \Delta^3 y_{-1} + \dots$$

$$P(x) = y_0 + qy_0 + \frac{q^{[2]}}{2!} y_1 + \frac{(q+1)^{[3]}}{3!} y_2 + \dots$$

$$P(x) = y_0 + q\Delta y_0 + \frac{\Delta^2 y_{-1}}{2!} + \frac{\Delta^3 y_{-1}}{3!} + \dots$$

25. Kuyidagi tenglamani Nyuton usuli bilan yechish algoritmini kursating:
 $x^3 + 2x - 1 = 0$

$$X_{n+1} = X_n - \frac{x_n^3 + 2x_n - 1}{3x_n^2 + 2}$$

$$X_n = X_{n+1} - \frac{x^3 + 2x^2 - 1}{3x_{n+1}^2 + 2}$$

$$X_{n+1} = X_n - \frac{x^3 + 2x^2 - 1}{3x^2 + 2}$$

$$X_n = X_{n+1} - \frac{x_n^3 + 2x_n - 1}{3x_n^2 + 2}$$

26. Kuyidagi

$$Lu \equiv u'' + p(x)u' + q(x)u = f(x), \quad a < x < b,$$

$$l_0 u \equiv \alpha_0 u(a) + \beta_0 u'(a) = \gamma_0,$$

$$l_1 u \equiv \alpha_1 u(b) + \beta_1 u'(b) = \gamma_1$$

ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalada $p(x)$, $q(x)$, $f(x)$ funksiyalar kaysi sinfga taalukli:

$$C^{(2)}[a, b]$$

$$C[a, b]$$

$$L[a, b]$$

$$L_p[a, b]$$

27. Kesmani ikkiga bulish metodining asosiy goyasi nimadan iborat:

$[a, b]$ - da uzlusiz $f(x)$ va $f(a)f(b) < 0$

$f(x)$ $[a$ va $b]$ da uzlusiz

$f(x)$ uzlusiz

$f(a)f(b) > 0$

28. Ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalani takribiy usullar bilan (kallocasiya, eng kichik kvadratlar, integral usuli, soxachalar usuli, Galerkin usuli va boshkalar) yechishda $\psi[x, a_1, a_2, \dots, a_n]$ tafovut funksiyasining ifodasini keltirib chikaring:

$$L\varphi_0(x) - f(x) + \sum_{k=1}^n a_k L\varphi_k(x)$$

$$L\sum \varphi_i(x) - f(x) + \sum_{k=1}^n a_k L\varphi_k(x)$$

$$L(\varphi_0(x) - f(x)) + \sum_{k=1}^n a_k \varphi_k(x)$$

$$L(\varphi_0(x) - f(x)) + \sum_{k=1}^n a_k L\varphi_k(x) f(x)$$

29. Oddiy differential tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalani UK otish usuli bilan Koshi masalasiga keltirishda UK oitsh burchagi $\alpha - \alpha_*$, ni anildash uchun tenglamani keltirib chikaring:

$$F(\alpha) = y(1, \alpha_*) - y_1 = 0$$

$$F'(\alpha) = y'(1, \alpha_*) - \alpha y_1 = 0$$

$$F(\alpha) = y(1, \alpha_*) - y_1 = 0$$

$$F(\alpha) = y(1, \alpha_*) - y_1/\alpha = 0$$

30. Ikkinchi tartibli oddiy differential tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalalarni kallokasiya usuli bilan yechganda:

Berilgan nuktalarda tafovut funksiyasi nolga tenglanadi

Tafovut funksiyasining kvadrati minimallashtiriladi

Bazis funksiyalar tafovut funksiyasiga ortogonal kilib tanlanadi

Berilgan nuktalarda tafovut funksiyasi minimallashtiriladi

31. Kar kanday a usbat sonni chekli yoki cheksiz unli kasr shakida yozishni kursating:

$$a = f_n 10^n + f_{n-1} 10^{n-1} + f_{n-2} 10^{n-2} + \dots + f_{n-n+1} 10^{n-n+1} + \dots$$

$$a = f_n 10^n + f_{n+1} 10^{n-1} + \dots$$

$$a = \beta_n 10^n + \beta_{n+1} 10^{n-1} + \dots$$

$$a = \beta_{n-1} 10^{n-1} + \beta_n 10^{n+1} + \dots$$

32. Yigindimning absolyut xatosini topish formulasini kursating:

$$U = \pm x_1 \pm x_2 \pm x_3 \pm \dots \pm x_n$$

$$|\Delta U| \leq |\Delta X_1| + |\Delta X_2| + \dots + |\Delta X_n|$$

$$\Delta U = \Delta X_1 - \Delta X_2 - \dots - \Delta X_n$$

$$\Delta U = |\Delta X_1| + |\Delta X_2| + \dots + |\Delta X_n|$$

$$\Delta U = \Delta X_1 + \Delta X_2 + \dots + \Delta X_n$$

33. Idkita takribiy son ayirmasining limit – absolyut xatosini topish formulasini kursating:

$$\Delta U = \Delta x_1 + \Delta x_2$$

$$\Delta U = \Delta x_1 - \Delta x_2$$

$$\Delta U = \Delta x_1 \Delta x_2$$

$$U = x_1 - x_2$$

34. Kupaytmaning nisbiy xatosini kursating: $U = x_1 \cdot x_2 \cdot \dots \cdot x_n$

$$\left| \frac{\Delta U}{U} \right| \leq \left| \frac{\Delta x_1}{x_1} \right| + \left| \frac{\Delta x_2}{x_2} \right| + \dots + \left| \frac{\Delta x_n}{x_n} \right|$$

$$\Delta U = \Delta x_1 \Delta x_2 \cdot \dots \cdot \Delta x_n$$

$$\Delta U = \Delta x_1 \Delta x_2 \cdot \dots \cdot \Delta x_n$$

$$\left| \frac{\Delta U}{U} \right| = \delta$$

35. Darajanining nisbiy xatosini kursating: $U = x^m$

$$\delta_x = m\delta_x$$

$$\delta_n = \frac{1}{m}\delta_x$$

$$\ell_n u = m \ell u$$

$$\delta u = m \delta x$$

36. $J = \int_0^1 \frac{dx}{1+x}$, $n = 10$ integralni kiymatini Simpson formulasi yordamida aniklang:

$$J=0,69315$$

$$J=0,61416$$

$$J=0,52411$$

$$J=0,59315$$

37. Agar funksiyaning kiymati xisoblanishi kerak bulgan nuktadagi kiymati jadvalning oxirida bulsa kaysi interpolasyon formulani ishlatalish urinli:

Nyutomning 2-chi formulasini

Lagranj formulasini

Bessel formulasini

Gaussning 2- chi formulasini

38. Agar xisoblanayotgan funksiyaning kiymati jadvalning urtasida bulsa, kaysi interpolasyon formulani kullash mumkin:

Stirling yoki Bessel

Nyutomning 1-chi formulasini

Lagranj formulasini

Gaussning 1- chi formulasini

39. Ikkinci tartibli oddiy differential tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalalarini Galyorkin usuli bilan yechganda:

Bazis funksiyalar tafovut funksiyasiga ortogonal kilib tanlanadi

Berilgan nuktalarda tafovut funksiyasi nolga tenglanadi

Bazis funksiyalari minimallashtiriladi

Tafovut funksiyasi berilgan nuktalarda minimallashtiriladi.

40. Nisbiy xatoni xisoblash formulasini kursating:

$$\delta_a = \frac{\Delta a}{|A|}$$

$$\delta_a = \Delta a + |A|$$

$$\delta_a = \Delta a - |A|$$

$$\delta_a = \Delta a \cdot |A|$$

41. Ikkinci tartibli oddiy differential tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalalarini Kollokasiya usuli bilan yechganda masala kuyidagi masalaga keltiriladi:

Chizikli tenglamalar sistemasini yechish

Chizikli bulmagan tenglamalar sistemasini yechish

Kuyi tartibli oddiy differential tenglama uchun chegaraviy masalani yechish

Oddiy differential tenglama uchun Koshi masalasini yechish.

42. Ikkinci tartibli oddiy differential tenglama uchun kuyilgan chegaraviy masalalarini Kollokasiya usuli bilan yechganda masala kuyidagi masalaga keltiriladi:

Chizikli tenglamalar sistemasini yechish

Chizikli bulmagan tenglamalar sistemasini yechish

Kuyi tartibli oddiy differential tenglama uchun chegaraviy masalani yechish

Oddiy differential tenglama uchun Koshi masalasini yechish.

43. Ildizning $U = \sqrt[m]{x}$ nisbiy xatosini topish formulasini kursating:

$$\delta_n = x_m$$

$$\delta_n = x$$

$$\delta_n = \frac{m}{\delta_x}$$

$$\delta_n = \frac{\delta_x}{m}$$

45. $f(x) = x^4 - 5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning ildizini Dekart teoremasi orkali musbat ildizlar sonini aniklang:

Uchta yoki bitta

Turta

Oltita

Ikkiti

46. $f(x) = x^4 - 5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning Lagranj teoremasiga kura, ildizi joylashgan oralikni aniklang:

A) (-3,84; 3,84)

(3; -1)

(0; -1)

(-2; 1)

47. $f(x) = 0$ tenglamani yechish uchun Vegsteyn metodi algoritmini kursating:

$$Z_{n+1} = x_{n+1} - \frac{(x_{n+1} - x_n)(x_{n+1} - Z_n)}{x_{n+1} - Z_n + Z_{n-1} - x_n} \quad (n = 1, 2, \dots)$$

$$Z_{n+1} = x_{n+1} - \frac{(x_{n+1} - x_n)(x_n - Z_n)}{x_{n+1} - Z_n + Z_{n-1} - x_n} \quad (n = 0, 1, \dots)$$

$$Z_n = x_{n-1} - \frac{(x_{n+1} - x_n)(x_n - Z_n)}{x_{n+1} - Z_n + Z_{n-1} - x_n} \quad n = 1, 2, \dots$$

$$Z_{n+2} = x_{n+1} - \frac{(x_{n+1} - x_n)(x_{n+1} - Z_n)}{x_{n+1} - Z_n + Z_{n-1} - x_n} \quad n = 0, 1, 2, \dots$$

48. $f(x) = 0$ tenglamani vatarlar metodi bilan yechish algoritmini kursating:

$$x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)(x_n - x_{n-1})}{f(x_n) - f(x_{n-1})} \quad (n = 0, 1, 2, \dots),$$

$$x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)(x_n - x_{n-1})}{f(x_{n-1}) - f(x_{n+1})} \quad (n = 1, 2, \dots)$$

$$x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)(x_n - x_{n-1})}{f(x_n) - f(x_{n-1})} \quad (n = 1, 2, \dots)$$

$$x_{n-1} = x_{n+1} - \frac{f(x_n)(x_n - x_{n-1})}{f(x_n) + f(x_{n-1})} \quad (n = 0, 1, 2, \dots)$$

49. $f(x)$ funksiya $[a, b]$ kesmada kaysi shartni kanoatlantirganda vazn funksiyasi deb aytildi :

$$\rho(x) \geq 0, \quad 0 < \int_a^b \rho(x) dx < \infty$$

$$\int_a^b \rho(x) dx < 0$$

$$\int_a^b \rho(x) dx > 0$$

$$\int_a^b \rho(x) dx < \infty$$

50. Chizikli algebraik tenglamalar sistemasi yechimi uchun progonka usuli necha boskichdan iborat:

- Ikkita
- Bitta asosiy va bitta yordamchi
- Uchta
- Ikkita asosiy va bitta yordamchi

51. Iterasiyon metodlarga kaysi metodlar kiradi:

- Iterasiya metodi, Zeydel metodi, relaksasiya metodi
- Gauss, Kramer
- kvadrat ildizlar metodi
- 2) va 3) javoblar birgalikda

52. Kachon anik integralni takribiy xisoblash formulalarini kullash mumkin:

- Agar integral ostidagi funksiya elementar funksiyalar sinfigidan bulsa.
- Agar integral ostidagi funksiya murakkab bulsa.
- Agar integral ostidagi funksiya uzlusiz bulsa.
- 2) va 3) javoblar birgalikda

53. Algebraik tuldiruvchi deb nimaga aytildi:

$$M_y = (-1)^{i+j} (a_{ij})$$

$$M_j = (-1)^{i-j} A$$

$$M_y = a_y$$

$$M_y = a_y \bar{x}$$

54. Kvadratur formula deb nimaga aytildi:

- Bir karrali integralni sonli xisoblash formulasiga
- Ikki karrali integralni sonli xisoblash
- Uch karrali integralni sonli xisoblash
- Bir va ikki karrali integralni sonli xisoblash

55. Kubatur formulasi deb nimaga aytildi:

- Ikki karrali integralni sonli xisoblash
- Bir karrali integralni sonli xisoblash
- Uch karrali integralni sonli xisoblash
- Bir va ikki karrali integralni sonli xisoblash

56. Integralni takribiy xisoblashning umumiy kvadratur formulasini kursating:

$$\int_a^b f(x) dx = \sum_{k=1}^n A_n^{(k)} f(x_n^{(k)})$$

$$\int_a^b f(x) dx = A_n^{(k)} f(x_n^{(k)})$$

$$\int_a^b f(x) P(x) dx = f(x) A_n^{(k)}$$

$$\int_a^b P(x) dx = f(x) A_n^{(k)}$$

57. Gauss metodining tugri usulini kursating:

$$\left. \begin{aligned} x_1 + b_{12}^{(1)} x_2 + b_{13}^{(1)} x_3 + \dots + b_{1n}^{(1)} x_n - b_{1,n+1}^{(1)} \\ x_2 + b_{23}^{(2)} x_3 + \dots + b_{2n}^{(2)} x_n - b_{2,n+1}^{(2)} \\ \cdots \\ x_n - b_{n,n+1}^{(n)} \end{aligned} \right\}$$

$$\left. \begin{aligned} a_{11} x_1 + a_{12} x_2 + \dots + a_{1n} x_n - b_1 \\ a_{nn} x_n - b_2 \end{aligned} \right\}$$

$$x_n - b_{n,n+1}^{(n)}$$

$$\left. \begin{aligned} a_{22}^{(1)} x_2 + a_{23}^{(1)} x_3 + \dots + a_{2n}^{(1)} x_n - a_{2,n+1}^{(1)} \\ a_{33}^{(2)} x_3 + \dots + a_{3n}^{(2)} x_n - a_{3,n+1}^{(2)} \\ \cdots \\ x_n - a_{n,n+1} \end{aligned} \right\}$$

58. Kvadratur formulasini kursating:

$$R_n(f) \approx \int_a^b f(x)dx - \sum_{k=1}^n A_n^{(k)} f(x_n^{(k)})$$

$$P_n(x) = \int_a^b P(x)dx - \sum_{k=0}^n f(x_n^{(k)})A_n^{(k)}$$

$$P_n(x) = \int_a^b f(x)dx - A_n^{(k)} f(x_n^{(k)})$$

$$R_n(f) \approx \int_a^b f(x)dx - \sum_{k=1}^n A_n^{(k)}$$

59. Chizikli tenglamalar sistemasini yechishning iterasiya metodi formasini vektorli kurinishini kursating:

$$\bar{x} = \alpha \bar{x} + \bar{\beta}$$

$$\bar{x}^{(k+1)} = \alpha \bar{x}^{(k)} + \bar{\beta}$$

$$A\bar{x} = \bar{b}$$

$$x_n^{(k+1)} = \alpha_n x_n^{(k)} + A$$

60. Agar $f(x)$ funksiya chizikli funksiyaga yakin bulsa, uni nima bilan almashtirish mumkin:

$$\text{balandligi } (b-a), \text{ asoslari } f(a) \text{ va } f(b) \text{ bulgan trapesiya yuzi } \int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{2}[f(a) + f(b)]$$

bilan almashtirish mumkin.

$$\int_a^b f(x)P(x)dx \approx \frac{b-a}{2}[f(a) + f(b)] \text{ parabola bilan.}$$

$$\int_a^b P(x)dx = [f(a) + f(b)] \text{ bilan.}$$

$$\int_a^b R(x)dx = \frac{b}{2}[f(a) + f(b)] \text{ bilan.}$$

61. Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oralikda kvadratik funksiya bulsa integralni takribiy ravishda nima bilan almashtirish mumkin:

$x=a$ va $x=b$ tugri chiziklar orasida joylashgan, $x=a$, $x=(a+b)/2$, $x=b$ nuktadan utuvchi 2-tartib parabola orikali chegaralangan yuzaga bilan

$x=a$ va $x=(a+b)/2$, $x=b$ nuktalardan utuvchi 2-tartibli parabola bilan almashtirish mumkin.

$x=(a+b)/2$, $x=a$ nuktalardan utuvchi trapesiya yuzi bilan

$x=a$, $x=b$ va $x=(a+b)/2$ nuktalardan utuvchi parabola bilan

62. Simpson formulasini kursating:

$$\int_a^b P(x)f(x)dx = \frac{b-a}{2}[f(a) + f(b)]$$

$$P(x) = \int_a^b f(x)dx + \frac{b-a}{2}$$

$$\int_a^b f(x)dx = \frac{b-a}{6} \left[f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b) \right]$$

$$\int_a^b P(x)dx = \frac{b}{2-a} \left[f(a) + f\left(\frac{a+b}{2}\right) \right]$$

63. Chizikli algebraik tenglamalar sistemasining kanday xossasi progonka usulini (turgunlikni tekshirmagan xold kullaş imkonini beradi:

Sistema yechiluvchan va uch diagonalli

Bosh elementlar noldan farkli

Yetakchi elementlar noldan farkli

Sistema yechiluvchan, ya'ni koeffisiyentlar matrisasi spektri birlik aylanada yotadi.

64. Agar chekli ayirmalı sxemada ikkita kushni katlaundagi yechimlar ishtirot etsa ular kanday sxemalar deyiladi:

Ikki katlamli sxemalar

Bir katlamli sxemalar

Uch katlamli sxemalar

Turt katlamli sxemalar

65. Chizikli algebraik tenglamalar sistemasi deb nimaga aytildi:

Noma'lumlarni birinchidan yukori darajasini va kupaytmasini uz ichiga olmagan tenglamaga

Noma'lumlar kupaytmasini uz ichiga olgan tenglamaga

Noma'lumlarni yukori darajasini uz ichiga olmagan tenglamaga

2) va 3) birgalikda

66. Transendent tenglama deb nimaga aytildi:

Kursatkichli, logarifmik, teskari logarifmik, trigonometrik funksiyalar katnashgan tenglamaga

Chizikli funksiya katnashgan

Noma'lumlar katnashgan

Chizikli bulmagan funksiyalar katnashgan

67. Beshta nukta uchun Simpson formulasini kursating:

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{3,5} [f_0 + f_3 + 2(f_1 + f_4) + 4(f_2 + f_5)]$$

$$\int_a^b P(x) dx = \frac{b-a}{3,5} [f_0 + f_3 + 4(f_1 + f_2 + f_4) + 3(f_5 + f_6)]$$

$$\int_a^b P(x)f(x) dx = \frac{b-a}{5} [f_0 + f_5 + 4(f_1 + f_3 + f_5) + 2(f_2 + f_4)]$$

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{b-a}{3} [f_0 + f_3 + 2(f_1 + f_3 + f_5) + 4(f_2 + f_4)]$$

68. Xususiy xosilali differensial tenglamalarni yechish xuddi oddiy differensial tenglamalardagi kabi bir necha guruxga bulinadi:

Bular:

Anik usullar, takribiy usullar va sonli usullar

Analitik, grafik usullar

Analitik, iterasiya usullar

Variasion, sonli usullar

69. Kramer formulasini kursating:

$$x_i = \frac{\Delta x_i}{\Delta}$$

$$\bar{x} = A^{-1}\bar{b}$$

$$x^{-1} = A\bar{b}$$

$$x_i = \frac{\Delta x_0}{x}$$

70. Chizikli tenglamalar sistemasini Gauss metodi bilan yechishda asosiy goyasi nimadan iborat:

Noma'lumlarni ketma-ket yekotishdan iborat

Sistemanı kompakt xolatga keltirishdan iborat

1) va 2) javoblar birgalikda

$$b_{2j} = \frac{a_{2j}}{a_{22}} ni topishdan iborat$$

ME'YORIY HUJJATLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI AXBOROTLASHTIRISH TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 6-son, 252-modda; 2001 yil,
1-2-son, 23-modda)

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun axborot majmui faoliyatining iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini, uning O'zbekiston Respublikasida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilaydi, axborot egalari va axborotdan foydalanuvchilar bo'l mish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi.

2-modda. Qonunning amal qilish sohasi

Ushbu Qonun davlat organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning:
axborotlarni to'plash, jamg'arish, qayta ishslash, uzatish, qo'llash va ruxsat etilmagan tanishuvdan saqlash;

axborot tizimlarini, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotlarni qayta ishslash va uzatishning boshqa tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun boshqa qonunlarning (ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi hamda boshqa qonunlarning) ta'siri ostidagi axborotga, hujjatlashtirilmagan axborotga, shuningdek mualliflik va patent huquqi me'yorlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarga taalluqli emas.

3-modda. Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati

Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosatining asosiy yo'naliishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublikani rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan hamda real ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tasdiqlaydigan O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish kontseptsiyasida belgilanib:

davlat va jamoat organlarining, fuqarolarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (matnda bundan keyin «tashkilotlar» deb yuritiladi) axborotga bo'lган ehtiyojini har tomonlama qondirishni;

axborotni bir tartibga solishni, standartlashtirishni, yagona axborot maydoni yaratishni hamda respublika jahon axborot hamjamiatiga kirishi uchun sharoit yaratishni;

respublikada yaratilayotgan va chetdan keltirilayotgan texnik, dasturiy va texnologik axborot vositalari hamda resurslarini sertifikatsiya qilishni;

rivojlangan, ishslash bobida mukammal va ishonchli axborot infrastrukturasini shakllantirishni;

axborotlashtirishning texnik asoslarini tarkib toptirishda respublikaning suveren huquqlari va mintaqaviy tuzilmalarning manfaatlariga rioya etishni, axborot tizimlarini tashkil etish va amal qilish jarayonida ularning o'zaro hamjihat harakat qilishlarini yo'lga qo'yishni;

respublikadagi ishlab chiqarish, boshqaruv, ilmiy va ijtimoiy sohalarda elektronika, hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining yangi namunalarini yaratish hamda joriy etishni;

axborotlashtirishning bir erda haddan ziyod quyuqlashuvi va axborot sohasida yakkahokimlik qilinishining oldini olish asosida axborotlashtirishni jadal rivojlantirish, axborot jarayonlarini davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda pul bilan ta'minlash va idora etish usullaridan tashkilotlarning mustaqilligiga va tadbirkorlikka o'tish uchun

axborotlashtirish dasturi uchun davlat tasarrufida bo'lмаган mablag'larni jaib etish uchun shart-sharoitlar yaratishni;

ommaviy foydalanuvchining qurbi etadigan istiqbolli axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishni;

ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axborot tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy rag'batlantirish va imtiyozlar tizimini, shuningdek boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda joriy etishni;

axborot resurslarini yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlariga rioya etish maqsadida

axborotlarni hamda ularni qayta ishslash vositalarini himoya qilish yo'llarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni;

davlat axborot resurslarining asralishi, jamg'arilishi va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlashni;

axborotlashtirishning jamiyat rivojiga ta'sirini o'rganishni va baholashni nazarda tutadi.

II BOB. AXBOROT TIZIMLARI VA ULARNING MAJMUI

4-modda. O'zbekiston Respublikasining axborot majmui

Respublikaning axborot majmui davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlaridan tashkil topadi.

Respublika, hududiy, tarmoq, mahalliy axborot tizimlari va shoxobchalari, shuningdek ularda ishlatiladigan aloqa vositalari respublika axborot majmuining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu axborot tizimlari tashkiliy-tarkibiy xususiyatlariga, mavzusiga texnologik va boshqa belgilariiga qarab shakllantiriladigan hujjatlashtirilgan axborotlarga qayta ishlov berilishini ta'minlaydi.

5-modda. Davlat organlarining axborot tizimlari

Respublika byudjeti hisobidan vujudga keltirilgan hamda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi axborotlarga ishlov berish tizimlari, ma'lumot bazalari va banklari, ekspert va axborot-qidiruv tizimlari hamda shoxobchalari O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining axborot tizimiga kiradi.

6-modda. Hududiy axborot tizimlari

Hududiy axborot tizimlari mahalliy davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining tahlil etish va boshqarish vazifalarini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

7-modda. Tarmoqlar va tashkilotlarning axborot tizimlari

Tarmoqlar va tashkilotlarning axborot tizimlari vazirliklar va idoralar, mulk shaklidan qat'i nazar, kontsernlar, korporatsiyalar, ishlab chiqarish birlashmalari, tashkilotlar va korxonalarning ishlashini ta'minlovchi axborotlarga ishlov berish tizimlaridan, ma'lumot bazalari va banklaridan iboratdir.

Avtomatlashtirilgan kredit-bank va birja tizimlari hamda pulsiz muomala tizimlari ham tarmoq axborot tizimlariga kiradi.

8-modda. Avtomatlashtirilgan kredit-bank va birja tizimlari

Avtomatlashtirilgan kredit-bank va birja tizimlari o'zaro hisob-kitoblar jadal o'tkazilishini ta'minlash, kredit-moliya operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek birja faoliyatini, brokerlik va maklerlik xizmatlarini avtomatlashtirish, soliq va auditorlik faoliyatlarini amalga oshirish (byudjetlarni, kapital mablag'larni, soliq nazoratini shakllantirish) uchun tuziladi.

9-modda. Pulsiz muomalaning avtomatlashtirilgan tizimlari

Pulsiz muomalaning avtomatlashtirilgan tizimlari kredit kartochkalari va pulsiz moliya hujjatlarining boshqa turlaridan foydalangan holda o'zaro hisob-kitoblar o'tkazishda aholiga qulaylik yaratish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Jamg'arma banki tizimi, shuningdek boshqa banklar, manfaatdor vazirliklar va idoralar asosida tashkil etiladi.

10-modda. Axborot uzatish

Tarmoq, hududiy va davlat axborot tizimlari o'rtaida axborotlar uzatish zarur ro'yxat, ma'lumotlar tarkibi va hajmlari doirasida oldindan kelishgan holda amalga oshiriladi.

11-modda. Xususiy va davlat tasarrufida bo'limgan boshqa axborot tizimlari

Jismoniy shaxslarning (O'zbekiston Respublikasi, boshqa davlatlar fuqarolarining) axborot tizimlari o'z mablag'lari hisobiga tashkil etiladi va ular tomonidan belgilangan tartibda ruxsatnomaga olingan taqdirdagina ishlatiladi.

Davlat tasarrufida bo'limgan axborot tizimlari o'z muassisalarining mablag'lari hisobiga tashkil etiladi va ular tomonidan axborot mahsulotlari yaratish va xizmatlari tashkil etish uchun foydalaniadi.

12-modda. Aloqa va ma'lumotlar uzatish tizimlari

Aloqa va ma'lumotlar uzatish tizimlari axborotlashtirishning kommunikatsiyaviy asosi hisoblanadi. Mazkur tarmoqlar aloqaga qo'shilish, ma'lumotlarni qabul qilish va uzatishga oid xalqaro standartlar va protokollar talablariga rioya etish asosida tuziladi, ular esa aloqa tarmoqlari tuzilmasining yangi turlarini yaratish va axborot xizmatining yangi turlarini tashkil etish imkoniyatini ta'minlaydi.

Xizmatlarning yangi turlari axborot egalarining tashabbusi bilan ham, axborotlardan foydalanuvchilarning tashabbusi bilan ham joriy etilishi mumkin.

Aloqa va ma'lumotlar uzatish tizimlarini barpo etish va ulardan foydalanish, shuningdek ularning faoliyatini to'xtatish qoidalari mazkur tizimlardan foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vakolati davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladi.

13-modda. Axborotlashtirishda tizim, dastur va tarmoq ta'minoti birligi

Axborotlashtirishda tizim, dastur va tarmoq ta'minoti birligi axborotlashtirish jarayonlarining davlat tomonidan tartibga solinishi printsiplariga, shuningdek axborot vositalari va mahsullari ishlab chiqarishda hamda ulardan foydalanishda yagona standartlarga, sifat sertifikatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruving maxsus organlari faoliyatiga asoslanadi.

III BOB. AXBOROTLASHTIRISH INFRASTRUKTURASI VA SANOATI

14-modda. Axborotlar infrastrukturasi

O'zbekiston Respublikasining axborotlar infrastrukturasini — axborotlarni qayta ishlovchi va axborotga oid boshqa xizmat ko'rsatuvchi, avtomatlashtirilgan tizimlarga servis xizmati ko'rsatuvchi; xodimlar va foydalanuvchilarga o'rgatuvchi; maslahat beruvchi va uslubiyatga doir ishlarni bajaruvchi, foydalanuvchilarga axborot xizmati ko'rsatish sifatini oshirishga doir boshqa yordamchi foydali faoliyatni amalga oshiruvchi mulkchilikning barcha shakllaridagi ilmiy va ishlab chiqarish tuzilmalari tashkil etadi.

Axborotlar infrastrukturasi sohasida tashkilotlar amalga oshiradigan faoliyat xalq xo'jaligi tizimida «Axborot xizmati» yordamchi tarmog'i sifatida hisobga olinadi.

15-modda. Axborotlashtirish sanoati

Davlat organlari tomonidan, shuningdek ustavida axborotlashtirish mahsuloti ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish nazarda tutilgan, yuridik shaxslar, shu yo'nalishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar tomonidan axborotlashtirish mahsuloti ishlab chiqarish — axborotlashtirish sanoatidan iborat iqtisodiy faoliyat tarmog'inii tashkil etadi.

Axborotlashtirish sanoatining dasturlari, moddiy, texnikaviy, moliyaviy, tashkiliy va o'zga xil resurslari davlat statistika organlarida hisobga olinmog'i lozim.

Davlat statistika organlariga beriladigan ma'lumotlar ro'yxati va ularni taqdim etish shakllari axborotlashtirish sanoati sub'ekti to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash bilan bir vaqtida belgilanadi.

16-modda. Axborot majmuining texnika bazasi

O'zbekiston Respublikasi axborot majmuining texnika bazasi zamonaviy kompyuter texnikasini, dasturiy mahsullarni, kommunikatsiya va aloqa vositalarini o'z ichiga oladi. Texnika bazasi ruxsatnomalar, shartnomalar hamda bitimlar asosida respublikada chiqariladigan va respublikaga olib kelinadigan dasturiy-apparat vositalari negizida vujudga keltiriladi.

17-modda. Axborotlar, axborotlashtirish mahsulotlari va axborot xizmatlari bozori

Axborotlar, axborotlashtirish mahsulotlari va axborot xizmatlari bozori ushbu Qonunning qoidalari hisobga olingan holda shakllantiriladi. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar axborotlar, axborotlashtirish mahsulotlari va axborot xizmatlari bozorida teng mavqeli sheriklar sifatida qatnashadilar.

Axborot mahsulotlari va axborot xizmatlarining sifati va boshqa iste'mol xususiyatlari davlat standartlarida, texnikaviy shartlarda yoxud texnik topshiriqlarda yoki bevosita ularni ishlab chiqarish uchun tuzilgan shartnomada belgilab qo'yiladi.

IV BOB. AXBOROTLASHTIRISH SOHASIDAGI BOSHQARUV

18-modda. Axborotlashtirish sohasidagi davlat boshqaruv organlari

Axborotlashtirish sohasidagi boshqaruvni O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi amalga oshiradi. Axborotlashtiriish mahsullari va tizimlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish uchun maxsus xizmatlar — Dasturiy mahsullar davlat reestri, Ma'lumot bazalari davlat reestri va Axborot tizimlari davlat reestri tashkil etiladi. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati natijasida hosil qilingan va Davlat reestrlarida qayd etilgan dasturiy mahsullar va ma'lumotlar bazalarining jamlamasi Dasturiy-axborot mahsulotlari milliy fondini tashkil etadi.

19-modda. Davlat boshqaruv organlarining axborotlashtirish sohasidagi vakolatlari va mas'uliyati

Axborotlashtirish sohasidagi davlat boshqaruv organlarining vakolatlariga:

axborotlashtirish sohasida davlat siyosatining asoslarini ishlab chiqish, davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning axborotlashtirish zaxiralarini hosil etish hamda ulardan foydalanish ishlarini

muvofiqlashtirib borish, sub'ektlarning axborotlashtirish sohasidagi munosabatlarga taalluqli huquqlari va kafolatlarini himoya qilish;

axborotlashtirish sohasidagi umum davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishga rahbarlik qilish, ana shu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larni taqsimlash, istiqbolga mo'ljallangan axborot texnologiyalari sohasida ilmiy tadqiqotlarni, loyihalarni muvofiqlashtirish va rag'batlantirish, ularning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

davlat boshqaruv organlarini axborotlar bilan ta'minlash tartibi va shartlarini belgilash;

avtomatlashtirilgan axborot va axborot-hisoblash tizimlari hamda tarmoqlari yaratishni, shu jumladan ularni hisobga olish, sertifikatsiyalash hamda litsenziya berishni tartibga solish;

axborotlashtirish infrastrukturasing umumiylar kommunikatsiya muhitini va boshqa tarkibiy qismlari yaratilishini ta'minlash, axborotlashtirish sohasidagi bozor omillarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

axborotlashtirish sohasidagi loyihalar va takliflarni ekspertizadan o'tkazish, bu sohada tarmoq hujjatlari va standartlarining yagona tizimini joriy etish hamda ularga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish;

axborotlashtirish sohasida xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish hamda ilmiy-texnikaviy aloqalarni uyg'unlashtirish kiradi.

Davlat boshqaruv organlari tomonidan hujjatlarni bir xillashtirish tizimining tarkibi, davlat va jamoat faoliyatining barcha sohalarida to'planadigan hamda ishlov beriladigan axborotlarga, shuningdek odamlarning huquqlari va manfaatlari muhofaza hamda himoya etilishini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan xususiy shaxslar to'g'risidagi axborotlarga doir klassifikatorlar, standartlar belgilanadi.

20-modda. Dasturiy mahsullarni ekspertizadan o'tkazish va sertifikatsiyalash

Axborotlashtirish mahsullarining raqobat qobiliyatini ta'minlash va uning sifatiga davlat ta'sirini kuchaytirish, shuningdek ichki bozorni himoya qilish maqsadida ana shunday mahsullar ekspertizadan o'tkaziladi va sertifikatsiyalanadi.

Dasturiy mahsullarni ekspertizadan o'tkazish va sertifikatsiyalash Dasturiy mahsullarning davlat reestri va Ma'lumot bazalari davlat reestri asosida amalga oshiriladi.

Dasturiy mahsullar davlat reestrining, Ma'lumot bazalari davlat reestrining me'yoriy-texnik bazasi, ekspertizadan o'tkazish va sertifikatsiyalash qoidalari xalqaro me'yorlar va bitimlarga muvofiq bo'lishi kerak.

21-modda. Axborotlashtirish sohasidagi faoliyatni rag'batlantirish va davlat tomonidan tartibga solib borish

Davlat boshqaruv organlari axborot texnologiyasi, axborotlashtirish sanoati yaratuvchilarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar, ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarishning ustuvor yo'naliishlari rivojlantirilishini rag'batlantiradilar, axborot mahsullarining raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashadilar, mutlaqo yangi yechimlarni patentlashni va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni ta'minlaydilar.

Qonunda belgilangan hollarda davlat organlari muayyan axborot texnologiyalari, mahsullari va axborot xizmatlarining eksporti va importini, ularning ichki bozorda sotilishini cheklashga, shuningdek ishlab chiqaruvchilar zimmasiga standartlashtirish va sifatning zarur darajasini ta'minlash vazifasini yuklashga haqlidirlar.

Davlat mulki bo'lgan axborot resurslarini shakllantirish va ularni foydalanuvchilarga berish ishlarini tashkil etish ana shunday axborot resurslariga doir ishlarni bajarishi lozim bo'lgan davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi.

Davlat mulki qatoriga qo'shilishi mumkin bo'lgan axborot turlari va axborot resurslarining tarkibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

V BOB. AXBOROTLAR VA AXBOROT TIZIMLARINING HUQUQIY REJIMI

22-modda. Axborotdan foydalanishning huquqiy rejimi

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilab berilgan huquqlari va majburiyatlariga muvofiq holda axborotlashtirish sohasida huquqiy munosabatlarning sub'ektlari sifatida ish ko'radilar.

Axborotdan foydalanishning huquqiy rejimi davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan O'zbekiston Respublikasining hujjatlarida va me'yoriy hujjatlarida, axborotlashtirish sohasidagi munosabatlar qatnashchilarining shartnoma va bitimlarda belgilab qo'yiladi.

Axborotlardan foydalanuvchilar toifasi va axborotlarni qo'riqlash tartibi mazkur Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlovchi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab beriladi.

23-modda. Axborotlarga nisbatan mulkchilik huquqi

Axborot davlat organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat mahsuli sifatida moddiy yoki intellektual mulk ob'ekti bo'lishi mumkin. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar axborotlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadigan mulkiy huquqqa egadirlar.

Hujjatlashtirilgan axborot mulk ob'ekti sifatida alohida hujjat yoki hujjatlar to'plami shaklida (kutubxona, arxiv, fond, bilimlar bazasi va boshqa shakkarda) namoyon bo'ladi.

Axborot egasi o'z mulkining ob'ektiga nisbatan har qanday qonuniy xatti-harakatlarni sodir etishi, shuningdek axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi yoki uni tasarruf etuvchi shaxsni tayinlashi mumkin.

Quyidagilar:

o'z kuchi bilan va o'z hisobidan axborot yaratish;

axborot yaratishga doir shartnomasi;

axborotga nisbatan mulkdorlik huquqini boshqa shaxsga o'tkazish shartini o'zida aks ettirgan oldi-sotdiga, etkazib berishga doir shartnomasi yoki boshqa kelishuv shartnomasi;

merosga olish va tortiq qilish axborotga nisbatan mulkdorlik huquqi paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Axborotga nisbatan mulkdorlik huquqini ro'yobga chiqarishning o'ziga xos jihatlari amaldagi mualliflik huquqiga doir qonunlar bilan belgilab qo'yiladi.

Davlat mulki hisoblangan axborotga himoya sertifikatiga ega bo'lgan tizimlarda qayta ishlov berilishi lozim.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida kiritiladigan va uzatiladigan hujjatlarning yuridik kuchi elektron imzo bilan tasdiqlanishi mumkin. Elektron imzoning yuridik kuchi avtomatlashtirilgan tizimda imzolarning bir xilligini ta'minlovchi sertifikatsiyalangan dasturiy-texnika vositalari mavjud bo'lgan taqdirda e'tirof etiladi.

24-modda. Axborotga nisbatan mulkdorlik huquqi sub'ektlari

Davlat o'zining hokimiyat va boshqaruv organlari timsolida, yuridik va jismoniy shaxslar axborotga nisbatan mulkiy huquq sub'ekti bo'lishlari mumkin.

Davlat organlari, tashkilotlar axborotga nisbatan o'zlarining mulkiy huquqlarini davlat hokimiyyati organlari to'g'risidagi, korxonalar, jamoat birlashmalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, muayyan yuridik shaxslarning, axborotlashtirish sohasidagi munosabatlar boshqa sub'ektlarining nizomlari va ustavlariga muvofiq ro'yobga chiqaradilar.

Shaxsiy axborot hamda uning moddiy ashyolari fuqarolarning mulki hisoblanadi va ular tegishli ma'lumotlar bankiga yoki arxivga saqlash uchun topshirilgan hollaridagina ularni rasmiy axborotlar qatoriga qo'shish mumkin.

25-modda. Xususiy shaxslarga doir axborotlarni qayta ishslash

Xususiy shaxslarga doir axborotlarni qayta ishslashning tizimlari aholining talab-ehtiyojlari va manfaatlaridagi o'zgarishlarni, fuqarolarning ijtimoiy fikrlarini o'rganish, jinoiy harakatlarga qarshi kurash, O'zbekiston Respublikasining davlat sirlarini, iqtisodiyotga oid sirlarini va boshqa sirlarini qo'riqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil etish, davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarish hamda uning istiqlolini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar olish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari, boshqa tashkilotlar tomonidan vujudga keltiriladi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar va boshqa tizimlardi xususiy shaxslarga doir axborotlardan ularning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklab qo'yish uchun foydalanimasligi lozim.

Xususiy shaxslarga doir axborotlarni davlat tasarrufida bo'limgan tashkilotlar tomonidan qayta ishslash ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

O'z vakolatlariga muvofiq xususiy shaxslarga doir axborotlarga egalik qiluvchi va ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar ana shunday axborotlardan foydalanish tartibi hamda qoidalarini buzganlik uchun intizomiylar, ma'muriy va jinoiy javobgar bo'ladi.

26-modda. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNING O'ZLARIGA DOIR AXBOROTLAR BILAN TANISHUVI

YUridik va jismoniy shaxslar axborotning to'liq va ishonchli bo'lismeni ta'minlash maqsadida o'zlariga doir axborotlar bilan tanishish, ularga aniqliklar kiritish, ana shu axborotdan kim va qanday maqsadda foydalanayotganini bilish huquqiga egadirlar.

Axborot tizimlarida xususiy shaxslarga doir ma'lumotlari bo'lgan davlat organlari, jamoat tashkilotlari, basharti, axborotni bu tarzda taqdim etish O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan qo'riqlanadigan sirlar oshkor etilishiga sabab bo'lmasa, xususiy shaxslarga taalluqli axborotni ularning talabiga ko'ra taqdim etishlari shart.

Axborotni bermaganlik yoki uni yashirganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

27-modda. Axborotning egasi va undan foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlar

Axborotning egasi va u vakolat bergen shaxslar axborotlarni qayta ishslash hamda ulardan foydalanishning amalidagi qonunlarga zid kelmaydigan rejimi va qoidalarini belgilaydilar.

Axborotning egasi undan foydalanish shartlarini belgilaydi yoxud o'z huquqini shartnomaga asosida boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga beradi.

Axborot egasining qaroriga binoan axborot undan foydalanuvchiga shartnomaviy narxlarda yoki axborot xizmatlari uchun belgilangan tariflardagi narxlarda berilishi mumkin.

Axborotning egasi axborot xizmatlari to'g'risidagi shartnomada qayd etilganidek, axborot hamda uni qayta ishslash dasturlari to'liq, ishonchli va sifatlari bo'lismeni ta'minlashi shart.

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan organlar va tashkilotlarga hujjatlashtirilgan axborotlarni berishlari shart.

28-modda. Axborot egasining javobgarligi

Axborot egasi atayin noto'g'ri, chala, muddatni buzib axborot bergenlik uchun foydalanuvchi oldida javobgar bo'ladi, shu tufayli foydalanuvchiga etkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq qoplaydi.

Zararni qoplash shartlari shartnomaga bilan belgilanadi. Zararni qoplash miqdorini tomonlar mustaqil belgilaydilar, nizoli hollarda esa uni sud, xo'jalik sudi belgilaydi.

29-modda. Axborotlashtirish sohasidagi munosabatlar sub'ektlarining huquqlarini himoya qilish

Axborotga va axborot mahsuliga doir nizolar hamda ularga egalik qilish huquqlari qonunlar asosida hal etiladi.

Axborot resurslari, shu jumladan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborot resurslari to'plash va ulardan foydalanish sohasidagi huquqiy munosabatlar sub'ektlarining huquqlarini yuridik jihatdan himoya qilish, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, qoidabuzarlarni javobgarlikka tortish, sub'ektlarning buzilgan huquqlarini tiklash va etkazilgan zararning o'rmini qoplash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Davlat tasarrufida bo'lмаган axborot tizimlarida ishlov beriladigan axborotlar ushbu axborotlar tizimi Axborot tizimlari davlat reestridda ro'yxatdan o'tkazilgan va uning egasi axborotga ishlov berish uchun ruxsatnomaga olgan hollardagina qo'riqlanadi. Ishlov berishdan ko'zlangan maqsad va xizmat ko'rsatish qoidalari ruxsatnomada ko'rsatib o'tiladi.

Axborotlar hamda axborot jarayonlari sohasidagi huquqbazarliklar uchun yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, fuqarolik, mehnat, jinoyat qonunlarining me'yorlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

30-modda. SHaxsiy axborotlarni va xususiy shaxslarga doir axborotlarni himoya qilish

SHartnomaga asosan avtomatlashtirilgan tizimga kiritilgan shaxsiy axborotlar va xususiy shaxslarga doir axborotlardan foydalanishning belgilangan qoidalari buzganlik hollari sud tomonidan aniqlanadi.

Axborotning egasi yoki undan foydalanuvchi tomonidan huquqlari yoxud manfaatlari buzilgan xususiy shaxslar o'z huquqlari tiklanishini, etkazilgan zararning o'rni qoplanishi va ko'rilib ma'naviy zarar uchun tovon to'lanishini sud organlari orqali talab qilishlari mumkin.

31-modda. EHM uchun yaratilgan dasturga mualliflik huquqi

Ijodiy faoliyati natijasida EHM uchun dastur yaratgan jismoniy shaxs uning muallifi deb e'tirof etiladi. Basharti, EHM uchun dastur ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan bo'lsa, dastur har biri mustaqil ahamiyatga ega qismlardan iboratmiyo'qmi yoki uning bo'linish-bo'linmasligidan qat'i nazar, bu shaxslardan har biri bunday dasturning muallifi deb e'tirof etiladi.

EHM uchun yaratilgan dasturga mualliflik huquqi jismoniy shaxsga yoki jamoaga Dasturiy mahsullar davlat reestri beradigan shahodatnoma bilan guvohlanriladi.

EHM uchun yaratilgan dastur muallifi uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar:

mualliflik huquqi — EHM uchun yaratilgan dastur muallifi deb hisoblanish huquqi;

nomlash huquqi — EHM uchun yaratilgan dasturda muallif nomini ko'rsatish shaklini: o'z nomi bilan, shartli nom (tahallus) bilan yoki xufyonanom bilan atashni belgilash huquqi; hamda

daxlsizlik (bus-butunlik) huquqi — EHM uchun yaratilgan dasturning o'zini ham, uning nomini ham muallifning shon-sharafiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan buzib ko'rsatishlar va boshqa tajovuzlardan himoya qilish huquqidan iborat shaxsiy huquqlarga ega bo'ladi.

32-modda. EHM uchun yaratilgan dastur va boshqa dasturiy-axborot mahsullariga bo'lgan mulkiy huquq

O'z mablag'i hisobiga dastur yoki boshqa dasturiy-axborot mahsullari yaratgan yoki ana shu huquqni dastur muallifi yoxud boshqa mulkdordan qonuniy asosda olgan yuridik yoki jismoniy shaxs EHM uchun yaratilgan dastur va boshqa dasturiy-axborot mahsullarining egasi hisoblanadi.

Agar EHM uchun yaratilgan dasturga bo'lgan mulkiy huquq yuridik shaxsga yoki davlatga tegishli bo'lsa, unda EHM uchun yaratilgan dasturga mualliflik huquqi guvohnomasini muallifning (mualliflarning) dastur yaratilgan joydan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish olishiga, undan nusxa ko'paytirilgan va mulkdor tomonidan sotilgan hollarda esa mualliflik huquqlari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq muallifga (mualliflarga) bunda mulkdor olgan foydaning (daromadning) bir qismini ajratib berishga asos bo'lishi mumkin.

Axborot mahsullarining moddiy ashyolari ashyoviy mulk ob'ektlari sifatida muhofaza qilinadi.

Dasturning asl nusxasiga mulkiy huquq Dasturiy mahsullar davlat reestri beradigan maxsus guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Dasturning hisobga olingan ko'chirmasiga nisbatan mulkiy huquq dasturni etkazib berishga (dasturning oldi-sotdisiga) doir shartnomada tasdiqlanadi.

33-modda. Axborotlashtirish sohasidagi nizolarni qarab chiqish tartibi

Axborotlashtirish sohasidagi sud tasarrufiga kirmagan nizolarni qarab chiqish uchun axborotlashtirishni boshqaruvchi davlat organlari huzurida O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida ish ko'ruchchi muvaqqat va doimiy komissiyalar tuzilishi mumkin.

VI BOB. AXBOROTLASHTIRISH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK

34-modda. Davlatlararo munosabatlar

Axborotlashtirish sohasidagi davlatlararo munosabatlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar, yuridik shaxslarning o'zaro yaxlit, birligidagi, jamoa, dasturiy va texnikaviy jihatdan o'zaro bir butun axborot tizimlari, shuningdek axborotlashtirishning boshqa masalalari bo'yicha tuzadigan birligidagi ilmiy-texnika dasturlari, shartnomalari va majburiyatlarasi asosida tarkib topadi. Axborotlashtirish sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida amalga oshiriladi.

35-modda. Xalqaro kommunikatsiya tarmoqlariga qo'shilish

Davlat hokimiysi va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar shartnomalar asosida o'z axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qo'shishga haqlidirlar. Cheklangan tarzda axborotga ishlov beruvchi axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qo'shilishiga faqat zarur himoya chora-tadbirlari ko'riganidan keyingina yo'l qo'yiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarga qarashli axborot tizimlarining axborotlar tarmoqlariga g'ayriqonuniy ravishda qo'shilishi, xuddi shuningdek ulardan g'ayriqonuniy yo'l bilan axborotlar olishi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Tashkent sh.,

1993 yil 7 may,

868-XII-son

Vazirlar Mahkamasining

2002 yil 6 iyundagi

200-son qaroriga

2-ILOVA

Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash to'g'risida nizom

- I. Umumiy qoidalar
- II. Asosiy vazifalari
- III. Asosiy funksiyalari
- IV. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning vakolatlari
- V. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning tarkibi va tuzilmasi
- VI. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishini tashkil etish

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" 2002 yil 30 maydagi PF-3080son Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashning (keyingi o'rirlarda Muvofiqlashtiruvchi Kengash deb ataladi) faoliyatinitartibga soladi.
2. Muvofiqlashtiruvchi Kengash O'zbekiston Respublikasida kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi yuqori muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.
3. Muvofiqlashtiruvchi Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

II. ASOSIY VAZIFALARI

Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

4. kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning zamonaviy jahon tendentsiyalariga va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga muvofiq keluvchi ustuvor yo'naliшlarini belgilash;
5. kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va iqtisodiy rag'batlantirish omillari yaratish bo'yicha Hukumatga takliflar kiritish;
6. kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasiga oid dasturlar, loyihamlar va boshqa normativ- huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi hamda ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish;
7. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturlarini bajarishda, milliy axborot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda davlat boshqaruв organlari, xususiy sektor hamda jamoat tashkilotlarining kelishilgan siyosat yuritishlari va birgalikda ishtirok etishlarini ta'minlash;
8. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida raqobat muhitini shakllantirishga ko'maklashish, innovatsiya biznesini, shu jumladan mamlakatimizning o'zining dasturiy vositalari va kompyuter texnikasini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlari kompyuterlashtirilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
9. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar, homiylik mablag'lari va grantlarni jalb etishga, ta'lim muassasalarining axborot tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish;
10. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash ishlarini, shu jumladan mutaxassislarining chet elda o'qishini muvofiqlashtirish;
11. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida axborot xavfsizligi tizimlarini yanada rivojlantirishni tashkil etish.

III. ASOSIY FUNKSIYALARI

Muvofiqlashtiruvchi Kengash yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

12. O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini belgilash yuzasidan takliflar kiritadi;
13. kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishini tashkil etadi;
14. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasiga oid dasturlar, qonun loyihalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishini tashkil etadi hamda ularni ekspertizadan o'tkazadi;
15. davlat boshqaruvi organlari, xususiy sektor hamda jamoat tashkilotlarining kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturlarini bajarish, milliy axborot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish borasida kelishilgan siyosat yuritishlarini va birgalikda ishtirok etishlarini muvofiqlashtiradi;
16. Kengash majlislarida O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasiga oid dasturlar va tadbirlarning bajarilishini ko'rib chiqadi;
17. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga oid Hukumat qarorlarining, Kengash qarorlarining davlat boshqaruvi organlari, sub'ektlar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;
18. davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazirliklar va idoralarning kompyuterlashtirish, axborotlashtirish, kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, shuningdek Internet tarmog'ida axborot resurslarini joylashtirish va ularni o'z vaqtida yangilab borish, ta'lif muassasalarining axborot tizimlari va tarmoqlaridan foydalanish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitib boradi;
19. kompyuterlashtirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini va uning infratuzilmasini rivojlantirish uchun tegishli vazirliklar va idoralar, xorijiy moliya institutlari orqali investitsiyalar va grantlar, shuningdek homiylik mablag'lari jalb etilishini tashkil etadi;
20. tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan axborot, telekommunikatsiya va kompyuter tarmoqlari va tizimlarida zarur xavfsizlik tizimlarining yaratilishini tashkil etadi;
21. ishchi guruhlarning shaxsiy tarkibini belgilaydi;
22. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, axborot xavfsizligi tizimlarini rivojlantirish va joriy etishning jahon va mamlakatimiz miqyosidagi ilg'or tendentsiyalari to'g'risidagi axborotlarini eshitib boradi.

IV. MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASHNING VAKOLATLARI

Muvofiqlashtiruvchi Kengash:

23. kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturlarini, milliy axborot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jamoat tashkilotlarini jalb etish;
24. o'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish;
25. vazirliklar, idoralar va idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ilmiy tashkilotlardan tahliliy materiallarni va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni so'rab olish;
26. fan-texnika taraqqiyoti tendentsiyalarini hisobga olgan holda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi dolzarb vazifalarni hal etish uchun ishchi guruhlar tuzish;

V. MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASHNING TARKIBI VA TUZILMASI

27. Muvofiqlashtiruvchi Kengashga Kengash Raisi boshchilik qiladi.
28. Muvofiqlashtiruvchi Kengash tarkibiga boshqaruvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida rahbarlar va etakchi mutaxassislardan bo'lgan rais o'rinosarlari va kengash a'zolari kiradi. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlanadi.
29. Kengash a'zolari boshqa ishga o'tganda uning tarkibiga ularning o'rniga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

30. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishchi organi hisoblanadi.

VI. MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASHNING ISHINI TASHKIL ETISH

31. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning raisi Muvofiqlashtiruvchi Kengashning faoliyatiga rahbarlik qiladi va unga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun javob beradi.
32. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning raisi o'z o'rniда bo'limgan hollarda uning funksiyalarini rais o'rnbosarlaridan biri bajaradi.
33. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning faoliyati teng huquqlilik va qaror qabul qilish vaqtida kollegiallik printsiplariga asoslanadi.
34. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning majlisi Muvofiqlashtiruvchi Kengash a'zolarining oddiy ko'pchiligi ishtirok etayotgan bo'lsa vakolatli hisoblanadi.
35. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning majlisi qarorlari Muvofiqlashtiruvchi Kengashning Raisi tomonidan tasdiqlanadigan protokollar bilan rasmiylashtiriladi.
36. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning majlislari uning vakolati doirasiga kiritilgan masalalarning tayyorlanishiga qarab, biroq kamida har chorakda bir marta o'tkaziladi.
37. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning majlislarini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash Muvofiqlashtiruvchi Kengashning raisi va uning o'rnbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.
38. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning qarorlari majlisda ishtirok etayotgan Muvofiqlashtiruvchi Kengash a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.
39. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning qabul qilingan qaroridan norozi bo'lgan a'zosi o'z fikrini yozma shaklda ifodalash huquqiga ega, ushbu hujjat majlis protokoliga tirkab qo'yiladi.
40. Muvofiqlashtiruvchi Kengashning qarorlari ijro etish uchun manfaatdor vazirlıklar, idoralar, xo'jalik birlashmalariga, korxonalar va tashkilotlarga yuboriladi.
41. Muvofiqlashtiruvchi Kengash faoliyatini texnik ta'minlashni Vazirlar Mahkamasining aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masalalari bo'yicha kompleksi xodimlaridan iborat bo'lgan kotibiyat amalga oshiradi.
42. Muvofiqlashtiruvchi Kengash Internetda o'zining veb-sahifasiga ega bo'lib, unda Kengash faoliyatiga doir ma'lumotlar joylashtiriladi va barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro fikr almashuvi uchun imkoniyat yaratiladi.

**MA`RUZA VA TAJRIBA MASHG'ULOTLARIDA
TA`LIM TEXNOLOGIYALARI**

«HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH» O'QUV FANI BO'YICHA MA`RUZA VA TAJRIBA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida fan-texnika taraqqiyoti oliy ta'lismi tizimida jahon andozalarini hisobga olgan holda ta'limni takomillashtirish masalalarini ilgari surmoqda. Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lida» nomli asarida «...Ta'lim xalq ma`naviyatiga yaratuvchilik kayfiyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi. Kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi», - deb ta'kidlab o'tganlar. Bugungi kunda oldimizda jahon fani va madaniyatining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirilgan, inson aql-zakovati yaratgan boyliklardan bahramand bo'lган yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Faqat shu asosdagina millatning taraqqiyot sari intilishini ta'minlovchi intellektual kuchni vujudga keltirish mumkin.

Mamlakatning o'ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda O'zbekiston tanlab olgan o'z rivojlanish modeli shunga olib keldiki, ijtimoiy-siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy hayotning taraqqiy etgan mamlakatlarda umume'tirof etilgan tamoyillari hamda me'yordi xukmron va muqarrar xususiyat kasb etib, ular respublikaning nafaqat hozirgi holatini, balki uning taraqqiyotini belgilaydi.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilinishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faoliyikka, ijtimoiy-siyosi hayotda mustaqil ravishda yo'naliish ola bilish mahoratiga ega bo'lган yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi.

Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lism-tarbiya modelini amaliyatga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqidir. Shu boisdan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida «O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi – ta'lism jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya`ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori savyaga ega bo'lган mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib, ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lism tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Yurtimizda iqtisodiy ta'linda o'qitish texnologiyalari, avvalo, insonparvarlik tamoyiliga asoslangandir. Falsafa, pedagogika va psixologiyada ta'kidlanganidek, bu yo'naliishning asosiy farqli tomoni shundaki, bunda butun diqqat-e'tibor talaba shaxsiga qaratiladi. Chunki, talaba – bu iqtisod sohasida bo'ljak mutaxassis, u – shaxs. Shuning uchun ta'lism jarayonidagi o'qitish texnologiyalari talabaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil, faol bilish faoliyatini tashkil etishga qaratilgandir. Shundan kelib chiqqan holda, «Hisoblash usullarini algoritmlash» o'quv fani bo'yicha ta'lism texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarni ko'rsatib o'tamiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism. Bu ta'lism o'z mohiyatiga ko'ra ta'lism jarayonining barcha ishtiroychilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'lismni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lism oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lism texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'likligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lism oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'lumi ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsnинг o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – bu yangi komp'yuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

Berilgan konseptual qoidalarga asosan, «Iqtisodiy-matematik usullar va modellar» fanining maqsadi, tuzilishi, o'quv ma'lumotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, berilgan sharoitda va o'quv rejasida belgilangan vaqtida, fan bo'yicha davlat ta'lim standartlarida belgilangan ta'lim maqsad va natijalariga erishishni ta'minlaydigan kommunikasiya, ma'lumot, boshqarish va o'qitishning uslublari hamda vositalari yaxlitlikda tanlab olindi:

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuiy, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashgan), anjuman, aniq vaziyatlarni yechish), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor –so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullari.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asolangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – chizmali organayzerlar, komp'yuter va axborot texnologiyaları.

Kommunikasiya usullari: talabalar bilan tezkor teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqaning (ma'lumotning) usul va vositalari: joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini tahlil qilishga asoslangan kuzatish, tezkor-so'rov, o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'ulotining bosqichlari, belgilangan maqsadga erishishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining faoliyati, nafaqat auditoriya ishini, balki mustaqil va auditoriyadan tashqari ishlarni nazoratini (joriy, oraliq, yakuniy) belgilab beruvchi o'quv mashg'ulotlarini texnologik xarita ko'rinishida rejalshtirish.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulot jarayonida (o'quv vazifalari va testlarini bajargani uchun baholash, ta'lim oluvchining har bir o'quv mashg'ulotidagi o'quv faoliyatini reyting baholash), ham butun kurs davomida (har bir ta'lim oluvchining reyting bahosiga asosan joriy, oraliq va yakuniy natijalari) ta'lim natijalarini rejali tarzda kuzatib borish.

MA`RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI


1.	Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 40-45 nafrar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, vizual ma`ruza
3.	Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	<p>7. Amaliy va matematik masalalar. Masalalarni EHMda yechishning asosiy bosqichlari.</p> <p>8. Hisoblash matematikasining tarixi va fanning predmeti.</p> <p>9. Miqdorlarning taqribi qiyatlari. xatoliklar va ularning manbai. Absolyut va nisbiy xatoliklar.</p> <p>10. Qiymatli raqam va ishonchli raqam tushunchalari. Yaxlitlash qoidasi.</p> <p>11. Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasi.</p> <p>12. Xatoliklar nazariyasining teskari masalasi.</p>
4.	O'quv mashg'ulotining maqsadi:	«Hisoblash usullarini algoritmlash» fanining predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.
5.	Pedagogik vazifalar: Hisoblash usullarini algoritmlash tushunchasi bilan tanishtirish va fanning predmetini tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➢ Hisoblash usullarini algoritmlash fanining predmetini izohlaydi; ➢ Hisoblash usullarini, algoritmlash, avtomatlashtirish tushunchalariga ta`rif beradi; ➢ Xatolikning tarqalishi, yaxlitlash qoidalarini bayon qiladi. ➢ Xatoliklarning umumiy formulasini bayon qiladi. ➢ Xatoliklar nazariyasining teskari masalasini aytib beradi.
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma`ruza, blitz-so'rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo'q” texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma`ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

MA`RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Hisoblash usullarini algoritmlash fanining predmetini bayon qiling. • Hisoblash usullarini, algoritmlash, avtomatlashtirish tushunchalariga ta`rif bering. • Xatolikning tarqalishi, yaxlitlash qoidalarini tasvirlab bering. • Xatolikning tarqalishi. Xatoliklarning umumiy formulasini aytib bering. <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma`ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. AQP tarkibi va strukturasi to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi.</p> <p>O'yaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Ta`rifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>3.2. Faol ishtiroy etgan talabalarни rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Hisoblash usullari” va “Algoritm” so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

TARQATMA MATERIALLAR

- Berilgan sxemani to'ldiring. Fanning strukturasi va boshqa fanlar bilan aloqasini ko'rsating:



BLITS-SO'ROV texnologiyasi asosida

TOPSHIRIQ: Ikki o'zgaruvchili funksiya grafigini chizish va natija olish algoritmi tuzilsin.

Talaba: _____ Guruuh: _____

Nº	Ishni bajarish tartiblari	Bitta talabaning javoblari	Bitta talabaning javoblarini to'g'ri javobdan farqi	Guruuning javoblari	Guruuning javoblarining to'g'ri javobdan farqi	To'g'ri javob
1.	Buyruqlar satriga berilgan intervallar kiritiladi va Enter tugmasi bir marta bosiladi					
2.	Matlab dasturi ishga tushiriladi					
3.	mesh(x,y,z) komandasi yozilib Enter tugmasi bir marta bosiladi					
4.	Buyruqlar satriga berilgan funksiya kiritiladi va Enter tugmasi bir marta bosiladi					
5.	Edit menyusidagi Copy Figure buyrug'i bajariladi					
6.	MS Word dasturi ishga tushirilib natija nuxsasi qo'yiladi(Vstavit)					
7.	Kompyuter ishga tushiriladi					
8.	Alovida grafik oynada berilgan funksiyaning grafigi chiqadi					
	Baho					

FOYDALI MASLAHATLAR

Tafakkur gulshanidan:

Bilim haqida

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan — olim,
Orlanib so‘ramagan — o‘ziga zolim.
A. NAVOIY

Oz-ozdan o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.
A. NAVOIY

Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani.
Qarilik chog‘i xarj qilgil ani.
A. NAVOIY

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.
A. FIRDAVSIY

Sivilatsiya tarixini olti so‘z bilan ifodalash mumkin: qancha ko‘p bilsang, shuncha ko‘p qodirsan.
E. ABU

Ma’naviy hayotda ham amaliy hayotdagidek, kimki bilimga tayansagina to‘xtovsiz kamol topadi va yutuqlarga erishaveradi.
U. JEYMS

Sizni ulug‘likka undaydigan hech bir narsaga e’tiborsiz bo‘lmang.
STENDAL

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.
A. FIRDAVSIY

Aqli, bilimli odamlar kerak; insoniyat porloq hayotga yaqinlasha borgan sayin, bunday odamlar aksariyatni tashkil etmaguniga qadar, ularning soni ko‘payib boraveradi.
A. P. CHEXOV

Inson qanchalik ko‘p bilsa, u shu qadar kuchli.
M. GORKIY

Eng dovyurak odam ham toki unda qat’iy e’tiqod yo‘q ekan, nomardga aylanishi mumkin.
E. DELAKRUA

Bilim — barcha kulfatlarga qalqon.
A. RUDAKIY

Bilim shunday kuchki, bu kuchga bizni qurshab turgan tabiat inerniyasi qarshi turolmaganidek, eng tosh qotgan yanglishishlar ham dosh berolmaydi.
A. I. GERTSEN

Bilganlarimizning cheki bor, bilolmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo‘q.
LAPLAS

Mustaqil mutolaa to'grisida

Ilm berish faqat matabning ishi emas. Maktab shu bilimga kalit beradi xolos. Maktabdap tashqari o'qish hayotni to'laligicha qamrab oladi! Inson bir umr ilmini oshira borishi lozim.

Inson hayot ekan, garchi sochi oqargan bo'lsa ham bilim olishi mumkin, bilim olishni istaydi va bilim olishi shart. Binobarin, maktabdan tashqari olinadigan har qanday bilim, chupik hayot butun borligi bilai maktab doirasiga sig'maydi, mustaqil o'qish jarayonidir.

Hech bir odam mukammal, ya'ni to'la shakllangan holda dunyoga kelmaydi, ammo uning butun hayoti betnim harakatdagi o'sish va doimiy shakllanishdan iboratdir.

Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: biriichi tarbiyani o'z hayot tajribalarini singdirish yo'li bilan ota-onada beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog'ini esa unga hayotning o'zi o'rgatadi.

O'z hayot tajribasini har tomonlama boyitmagan odamning tarbiyasi — behuda.

Tarbiya ishida o'z-o'zini takomilllashtirish jarayoniga katta o'rin berilmog'i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etgan.

Har qanday chuqur bilim faqat mustaqil o'qish yo'li bilangina orttiriladi.

Insonni uning shaxsiy ma'naviy faoliyati, boshqacha aytganda, boshqa odamlardan yoki kitoblardan bilganlarini o'zicha, mustaqil o'yashi, boshidan kechirishi, his eta bilishi o'qi-mnshli qiladi.

O'z ustingizda mustaqil ishlashdan hech vaqt to'xtamang, qanchalik o'qimang, qanchalik bilmang, ilm va o'qishning cheki va chegarasi yo'qligini unutmang.

O'z fikrini yaxshi ifodalay olmaslik — illat; lekin mustaqil fikrga ega bo'lmashlik esa undan ham battarroq illat; mustaqil fikrlar, mustaqil orttirilgan bilimlardangina tug'iladi.

Birovdan eshitib olingen bilimlar bilan qanoatlanishni sira tasavvur etolayman; o'zgalarning bilimi garchand bizni u-bu narsaga o'rgatsa ham, ammo faqat o'z aqling bilan aqlli bo'la olasan.

O'zgalarning dasturi — maslahat ovozidan boshqa narsa emas.

O'zi harakat qilmasa, hech kim hech qachon maqsadiga erisholmaydi. Birov ko'rsatgan har qanday yordam ham sen qilgan urinishlarning o'rnini bosolmaydi.

Haqiqatni o'zgalar tilidan to'la bilib, to'ti singari yodlab olgandan ko'ra, o'z hara-kating bilan chalaroq bilganing afzal.

Tirishqoqlik ilm sari yagona yo'ldir.

Fanda eng ishonchli ko'makchi o'z aqling, tafakkuringdir.

Tayyor e'tiqodlarni na yaxshp tanish-bilishlardan tilab, na kitob magazinidan sotib olish mumkin. Uni o'z miyamizda sodir bo'ladigan mustaqil fikrlash jarayonida shakllantira borishimiz zarur.

Fan cho'qqilariga chiqishga urinishdan avval fan asoslarini egallang. Boshlagan ishingizni oxiriga yetkazmay turib, keyingisiga qo'l urmang. Olgan bilimingizdagи kemtiklarni hatto eng dadil taxmin va farazlar bilan ham ifodalashga urinmang. Fanda qora ishdan qochmaslikka o'rganing.

Kamolot va bilimga hech bir odam o'z-o'zidan erisholmaydi. Kimki bilimdon bo'lishni istar ekan, unga o'z faoliyati, o'z kuchi, o'z tirishqoqligi bilan erishmog'i lozim.

Agar chindan ham farzandlarimiz bilimli odam bo'lishni istasalar, ular bilimni mustaqil mashqlar orqali egallamoqlari kerak.

O'qimishlilik achchiq ildizning shirin mevasidir.

Axloqiy va aqliy kamolot haqida

Odamning ulug‘ligi bo‘yi bilan o‘lchanmaganidek, xalqning ulug‘vorligi ham uning soni bilan o‘lchanmaydi; yagona o‘lchov, uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir.

Hozirgi jamiyatlar uchun tarbiya masalasi kelajak taqdiri bilan bog‘liq hayot-mamot masalasidir.

Avvalgi zamonlarda vorislik yordamida, asriy urf-odatlar, urug‘-aymoqchilik va xalk, udumlari yordamida erishilgan narsalarga endilikda faqat ta’limning ko‘magi bilangina erishish mumkin.

Ta’limga ehtiyoj har bir kishida mujassam; xalq nafas olish uchun havoni qanchalik ardoqlasa va izlasa, u ta’limni ham shu qadar e’zozlaydi va izlaydi.

Tarbiya — vijdon ishi; ta’lim esa fanning vazifasi. Keyinchalik, inson voyag‘a yetgach, bilimning bu ikki turi biri birini to‘ldiradi.

Barcha ta’limlarning bosh vazifalaridan biri shundaki, ular mutlaq farog‘at sari nihoyasiz intila borishdek umumiy ishda insoniyat uchun muttasil ravishda yangi avlodlarni yetishtirib beradi.

Bilim odamiing ijodiy maqsadlariga xizmat etmog‘i lozim. Vilim orttirishning o‘zi kifoya emas, uni iloji boricha keng yonmoq va hayotga tatbiq etmoq zarur.

Tarbiyaga jamiyat a’zolari o‘rtasida qaror topgan munosabatlarni saqlab turish uchun juda zarur bo‘lgan bilimlarni uzlucksiz egallash, deb qarash mumkin.

Umumiy ta’lim insoniyat va ayrim shaxs orasidagi mayjud tabiiy aloqaning tasdig‘i va anglashinishidir.

Sivilizatsiyaning buyuk vazi-fasi — odamni fikrashga o‘rgatishdir.

Fikr! Buyuk narsa! Insonning ulug‘vorligi ham fikrdan bo‘lmay nimadan?

Bilimli odam, uni qurshab turgan hayotning barcha tomonlari va jabhalari bo‘yicha o‘z dunyoqarashi, o‘z mushohadasiga ega bo‘lgan kishidir.

Ta’lim va kamolotning turi ko‘p, ularning har biri o‘zicha muhim, ammo axloqiy ta’lim ularning barchasidan yuqori turmog‘i lozim.

Tarbiya ishida har bir kishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g‘amxo‘rlik qilish bilap ayni chog‘da, ularda atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat hissimi tarbiyalashga ham e’tibor bermoq zarur.

Davlatning gullab-yashnashn, xalqning farog‘ati beshak oljanob xulq-odobga bog‘liq, oljanob xulq-odob esa tarbiya tufaylidir.

Tarbiya asoson bizning dilimizga individ va jamiyat uchun foydali bo‘lgan fazilat urug‘larini sochmog‘i lozim.

Odamda cheksiz ijodiy quvvatlar mujassamki, aks holda, u odam bo‘la olmasdi. Bu quvvatlarni ro‘yobga chiqarmoq va ochmoq lozim. Buni adolatga undovchi hamdu sanolar bilan emas, balki insonga qulay ijtimoiy va moddiy shart-sharoitlarni yaratib berish bilan hal etmoq zarur.

Tarbiya — faqat insonzehni-ni o‘sirish va unga ma’lum hajmdagi bilimni singdirishgina emas, balki u insonda mehnatga tom ma’nodagi chanqoqlik hissini uyg‘otmog‘i lozim, busiz odam hayotda na e’tiborli va na baxtiyor bo‘la oladi.

Tarbiya, bu nisbatan keksaroq avlodning o‘z tajribasi, o‘z ehtirosi, o‘z e’tiqodini yosh avlodga topshirishi demakdir.

Tarbiyaning bosh vazifasi odamni yaxshi qadam bosishga majbur etishgina emas, balki shu yaxshi ishlardan huzurla-nishga ham o‘rgatishdir; faqat ishlabgina qolmay, ishni sevish ham kerak.

Tarbiya bizni yo‘ldan ozdirmay turishining o‘zi kifoya emas, u tobora bizni yaxshilab bormog‘i lozim.

Xulq-atvor va xulq madaniyati haqida

Barcha fazilatlar singari o‘zni tuta bilish ham mashq orqali rivojlanadi. Kimki katta yoshga yetganda o‘z ehtiroslarini boshqarishni xohlar ekan, bunga u yoshlidan o‘rganmog‘i lozim.

Qiziqqon odam har doim ham badfe‘l bo‘lavermaydi. Biroq odam qanchalik shiddatli va toz bo‘lsa, u o‘zini tutish ko‘nikmasiga ham ko‘proq ega bo‘lishi kerak.

Insonning tushunmay va o‘zini tuta bilmay qolgan payti uning eng yomon holatidir.

Ehtiyotkor va sovuqqon bo‘ling. Sovuqqonlik otashyuraklik singari zarurdir.

Kurash bor ekan, o‘z ustingdan g‘alaba qilishing mumkin va u haqiqiy g‘alabadir; ruhning kamolati ham jism kamolatidek mashaqqatli.

Uyurda kuchli fillar ko‘p bo‘lishiga qaramay, agar ular esankirab qolishsa, echki suruvidan farq qilmay qoladilar.

Tajanglik va qaysarlikni kuchlilik belgisi, deb hisoblaydiganlar katta xato qiladilar. Jazavaga tushgan odamni hatto olti kishi zo‘rg‘a ushlab tursa ham, bari bir u kuchsizdir.

Aksari tinch oqar daryolar sershovqin shalolalardan boshlangani bilan, biroq ularning hech biri to dengizgacha o‘ynoqlab, ko‘pirib borolmaydi. Bu sokinlik ko‘z ilg‘amas buyuk kuch belgisidir; hissiyotlar va fikrlar toshqinligi, teranli-gi ham ortiqcha shiddatni taqozo etmaydi.

Insonning haqiqiy kuchi uning shiddatida emas, balki sobit osoyishtaligidadir.

Insonning imkonli boricha vaziyatni o‘zi ko‘proq baholab, iloji boricha vaziyatga o‘zi tobe bo‘lmasligi, so‘zsiz, uning eng buyuk xizmati bo‘lib qolaveradi.

Xulq — har kim o‘z qiyofasini ko‘rsatadigai ko‘zgudir.

Dono kishilarning xulq-atvori — aqldan, o‘rtamiyona odamlarniki — tajribadan, o‘ta nodonlarniki — noilojlikdan, jonivorlarniki esa — tabiatdan yuzaga keladi.

Odamlarning xulq-atvori kitobdag‘i izohlar singari ularning eng muhim fazilatlarini belgilab beradi.

Ahmoqona xatti-harakatlar pastkashlik, xavf-xatarsiz qilingan ezguliklar esa oddiy bir holdir. Hayotini xavf ostida qoldirsa ham ulkan va ulug‘ ishlarni qilgan odamgina yaxshi odamdir.

Faqat aqli va qalbi toza kishigina to‘la ma’nodagi yaxshi va ishonchli odamdir.

Kishilar qusur va fazilatlarimiz xulq-atvorimizdan bilinib turadi, deb o‘ylaydilar-u, ammo o‘sha qusur va fazilatlar har bir daqiqada o‘zini sezdirib turishini esa payqamaydilar.

R. EMERSON

Odob — jamiyat qonunlari ichida eng ahamiyatlisi va eng hurmatga sazovoridir.

Sotsial buzuqlik o‘zi rivojlanayotgan sotsial muhitdan rang oladi.

Nimaiki yaxshi bo‘lsa hurmatga sazovordir, hurmatga sazovor narsa har doim yaxshidir.

Yaxshi xulqlar mayda fidoyiliklardan tashkil topgan.

Yaxshi ishda doimo saxovat haj, o‘sha ishni qilishga kuch ham yetarli bo‘ladi.

Doimo biror ish qilishni juda istagan paytingda to‘xtab, istayotgan ishing yaxshi-yomonligini o‘ylab ko‘r.

Sening har bir xulq-atvoring boshqa kishilarga ta’sir etadi; yoningda inson borligini unutma.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

O'rinnov Sherali Raufovich

2012 yil 1 martdan:

Navoiy davlat konchilik instituti «Texnologik jarayonlar

va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish»

kafedrasi dotsenti

Tug'ilgan sana:

13.02.1977

Millati:

o'zbek

Ma'lumoti:

oliy

Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:

Ilmiy darajasi:

texnika fanlari nomzodi

Qaysi chet tillarini biladi:

Tug'ilgan joyi:

Buxoro viloyati, Shofirkon tumani

Partiyaviyligi:

yo'q

Tamomlagan:

1999 y. Toshkent davlat texnika universiteti
(kunduzgi)

Hisoblash texnikasi va avtomatlashtirilgan
tizimlarning dasturiy ta'minoti

Ilmiy unvoni:

dotsent

rus, ingliz tillari



«Hisoblash usullarini algoritmlash» o'quv – uslubiy majmuasining tuzuvchisi haqida ma'lumotnomma

Xalilov Azim Jurakulovich

Tug'ilgan yili:

20.02.1981

Tug'ilgan joyi:

Samarqand viloyati, Narpay tumani

Millati:

O'zbek

Ma'lumoti:

Oliy



Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:

Hisoblash mashinalari, matematik modellash va
matematik usullarni ilmiy-tadqiqotlarda qo'llash

A.J. Xalilov 2011 yildan hozirgi vaqtga qadar Navoiy davlat konchilik instituti "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqaruv" kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimida ishlab, «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish», «Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan paketlar», «Texnologik jarayonlarni modellashtirish asoslari» va «Hisoblash usullarini algoritmlash» fanlaridan ma'ruza, amaliyat hamda tajriba mashg'ulotlarini olib bormoqda.

Hozirgi kunda Navoiy davlat konchilik instituti "Avtomatlashtirish va boshqaruv" kafedrasi katta ilmiy xodim-izlanuvchisi.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSLIK VA QO'LLANMALAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Юсупбеков Н.Р., Мухитдинов Д.П., Базаров М.Б. Электрон ҳисоблаш машиналарини кимё технологиясида қўллаш. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Фан, 2010.
2. Кнут Д.Э. Искусство программирования: Том 2: Получисленные алгоритмы: Пер. с англ./ Под общ. ред. Ю.В. Козаченко. -Москва: Издат. дом "Вильямс", 2004. – 832 с.
3. Абзалимов Р.Р. Численные методы решения уравнений на ЭВМ. - Т.: ТГТУ, 2008. – 168 с.
4. Самарский А.А., Гулин А.В. Численные методы. – М.: Наука, 1989. – 432 с.
5. Грибанов В.П., Калмыкова О.В., Сорока Р.И. Основы алгоритмизации и программирование. - М.: Моск. гос. ун-т экономики, статистики и информатики, 2001. - 129 с.
6. Заковряшин А.И. Алгоритмизация и программирование вычислительных задач. - М: Science Press, 2002. – 380 с

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Юсупбеков Н.Р., Мухитдинов Д.П., Базаров М.Б., Халилов А.Ж. Бошқариш системаларини компьютерли моделлаштириш асослари. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. –Н.: Навоий-Голд-Сервес, 2009.
2. Генри мл. Уоррен. Алгоритмические трюки для программистов / Пер. с англ. - М.: Издательский дом "Вильяме", 2004. – 382 с.
3. Голицына О.Л., Попов И.И. Основы алгоритмизации и программирования. – М.: Форум, 2008. – 432 с.
4. Лапчик М.П. Вычисления. Алгоритмизация. Программирование. - М.: Наука, 1988. – 207 с.
5. Пытьев Ю.П. Математические методы интерпретации эксперимента. – М.: В-Ш., 1989. – 351 с.
6. Дозорцев В.М. «Компьютерные тренажеры для обучения операторов технологических процессов». – Москва, 2009.
7. Данилов А.И. Компьютерный практикум по курсу «Теория управления». SIMULINK – моделирование в среде MATLAB. Учебное пособие. –М.: МГУИЭ. 2002.
8. Дьяконов В., Круглов В. MatLab. Анализ, идентификация и моделирование систем. Специальный справочник. –СПб.: Питер, 2002.
9. Н.Р. Юсупбеков, Ф.Т. Адилов, С.Ш. Халилова «Построение компьютерных тренажеров для подготовки операторов химико-технологических процессов и производств» Ташкент. 2004.
10. Н.Р. Юсупбеков, Ш.М. Гулямов, У.Т. Мухамедханов. «Применение программируемые логических контроллеров SIMATIC S7-200 к решению задач логического управления» Ташкент. 2008.
11. «Основы автоматизированного проектирования» под ред. И.П. Норенкова. Учеб. для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2002. – 336с.
12. Абдуллаев М «Рақамли ва микрокомпьютерли технология». –Тошкент, 2007.
13. Баг Г. Объектно-ориентированный анализ и проектирование с примерами приложений на C++, Издательство «Бинном», М.: 1999.
14. Дадажонов Т. ва бошқ.. «MATLAB асослари» Т:- 2008 й. 632 б.
15. Полещук Н.Н., Савельева В.А. Самоучитель AutoCAD 2007. СПб.: 2006.- 624 с.
16. Потемкин В.Г. «Вычисления в среде MATLAB» Москва. 2004.
17. Андриевский Б.Р., Фрадков А.Л. Избранные главы теории автоматического управления с примерами на языке MATLAB.// М.: Наука, 2000. – 475 с.
18. Ануфриев И.Е., Смирнов А.Б., Смирнова Е.Н. MATLAB 7.// СПб.: БХВ-Петербург, 2005.
19. Базаров М.Б., Халилов А.Ж., Кадыров Ё.Б. Решение задач теории автоматического управления в среде MATLAB: Учебное пособие.- Навои: - 2010.– 116 с.
20. Гультаев А. Визуальное моделирование в среде MATLAB.//СПб.: 2000.

21. Дащенко А.Ф. и др. MATLAB в инженерных и научных расчетах //Одесса «Астропринт» 2003.
22. Дьяконов В.П. Mathematica 4: учебный курс. // СПб.: Питер, 2001.
23. Дьяконов В.П. MATLAB 6.5 SP1/7+Simulink 5.6 в математике и моделировании. // М.: СОЛОН-Пресс, 2005.
24. Дьяконов В.П. Maple 9.5/10 в математике, физике и образовании — М.: СОЛОН-Пресс, 2006. — 720 с.
25. Кетков Ю. Л. и др. MATLAB 7: программирование, численные методы// СПб.:БХВ-Петербург, 2005.
26. Макконелл Дж. Основы современных алгоритмов. 2-е изд. Перевод с английского под редакцией С.Кландо// ТЕХНОСФЕРА. Москва 2004.
27. Матросов А. Решение задачи математики и механики в среде Maple. // "Знание", Москва,1999.
28. Мироновский Л.А., Петрова К.Ю. Введение в MATLAB. Учебное пособие// СПб., 2006.
29. Никульчев Е.В. Пособие "Control System Toolbox". MATLAB и Simulink для проектирования и разработки систем управления//
30. Потемкин В.Г. MATLAB 5 для студентов. 2-е изд., испр. и доп. //М.: Диалог-МИФИ, 1999.
31. Савотченко С.Е., Кузьмичева Т.Г. Методы решения математических задач в Maple. Учебное пособие – Белгород: Изд. Белаудит, 2001. – 116 с.
32. Семененко Н.Г. Введение в математическое моделирование. Maple, Mathematica, MATLAB// М.: СОЛОН, 2002.
33. Тан К. Введение в компьютерную алгебру с использованием объектно-ориентированного программирования// Мир. 2001.
34. Тарасевич Ю. Математическое и компьютерное моделирование. //М.: Едиториал-УРСС, 2001.
35. Черных И.В. SIMULINK: среда создания инженерных приложений // М .: 2004 .
36. Bazarov M.B., Xalilov A.J., Jumayeva D.N. Maple kompyuter algebrasi sistemasini mustaqil o'rganuvchilar uchun uslubiy qo'llanma - Navoiy.-2008.

XORIJIY ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI

Xorijiy adabiyotlar

1. Дорф Р., Бишоп Р. Современные системы управления //Пер. с англ. Б.И. Копилова.- М.: «Лаборатория базовых знаний», 2002. – 832 с.
2. Ли Кунну. Основы САПР CAD/CAM/CAE. Пер. с анг. – СПб.: Питер, 2004.
3. Гудвин Г.К., Грэбе С.Ф., Сальгадо М.Э. Проектирование систем управления. Пер. с англ. А.М. Епанешникова – М.: БИНОМ, 2016. – 911 с
4. Hans Berger «Automatisieren mit STEP 7 in AWL» Германия. 1999.

Internet manbalar:

www.ziyo.net.uz, www.edu.uz, www.gov.uz, www.autodesk.com; www.autocad.ru;
www.orcad.ru; exponenta.ru, matlab.exponenta.ru www.twirpx.com, www.mathcad.ru;
www.maplesoft.com. <http://csd.newcastle.edu.au/control/>.www.wikipediya.ru.